Kalit so'zlari: *Ot, epizootologiya, oshqozon bo'kalari, tuxum, lichinkalar, gastrofilyoz, Gasterophilus intestinalis, Gasterophilus nasalis, Gasterophilus pecorum, Gasterophilus haemorrhoidalis, Gasterophilus inermis, Gasterophilus nigricornis, parazitlik, hasharotning biologiyasi.*

Аннотация. *В статье подробно описаны биологическое развитие, таксономия, особенности распространения и эпизоотологический статус основных видов лошадиного гастрофилеза, наиболее распространенных в зарубежных странах и Узбекистане: Gasterophilus intestinalis, Gasterophilus nasalis, Gasterophilus pecorum, Gasterophilus haemorrhoidalis, Gasterophilus inermis и Gasterophilus nigricornis.*

Ключевые слова: *Лошадь, эпизоотология, желудочные трематоды, яйца, личинки, гастрофилоз, Gasterophilus intestinalis, Gasterophilus nasalis, Gasterophilus pecorum, Gasterophilus haemorrhoidalis, Gasterophilus inermis, Gasterophilus nigricornis, паразитизм, биология насекомых.*

Abstract. *The article describes in detail the biological development, taxonomy, distribution characteristics, and epizootological status of the main species of equine gastrophilosis that are most common in foreign countries and Uzbekistan: Gasterophilus intestinalis, Gasterophilus nasalis, Gasterophilus pecorum, Gasterophilus haemorrhoidalis, Gasterophilus inermis, and Gasterophilus nigricornis.*

Keywords: *Horse, epizootology, stomach flukes, eggs, larvae, gastrophilosis, Gasterophilus intestinalis, Gasterophilus nasalis, Gasterophilus pecorum, Gasterophilus haemorrhoidalis, Gasterophilus inermis, Gasterophilus nigricornis, parasitism, insect biology.*

Kirish. Chorvachilikning otchilik tarmog'ida parazitar kasalliklari keng tarqalib borishi kuzatilmoqda. Otlar parazitar kasalliklaridan biri hasharotlar lichinkalari tomonidan chaqiradigan endoparazit kasalliklarining ko'payishi, tarqalishi chorvachilikda iqtisodiy jihatdan juda katta zararni keltirib chiqarmoqda. Ayni damda hayvonlar orasida bu kasalliklarning tarqalishi dolzarb muammo hisoblanadi.

Gasterophilus (*Leach, 1817*) avlodiga mansub so‘nalarning lichinkalari tomonidan chaqiriladigan otlar gastrofillyozi (Gasterophilosis) alohida o‘rin egallaydi. Bu kasallik oshqozon-ichak traktining funksional buzilishlarini keltirib chiqarishi natijasida hayvonlarning umumiy rezistentligini pasayishi, anemiya va og‘ir asoratlar oqibatida o‘lim holatlariga olib kelishi bilan xarakterlanadi.

Otlar gastrofillyozi *(Gasterophilosis)* - *Gasterophilus* avlodiga mansub 5 xil so‘nalarning lichinkalari bo’lib, ular otlar, eshaklar va zebralarning oshqozon-ichak traktida rivojlanishi natijasida gastrofillyoz kasalligini chaqiradi. Bu kasallik surunkali kechuvchi invazion kasallik bo’lib, hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimini izdan chiqaradi. Natijada hayvon oriqlaydi, holsizlanadi va o’sish rivojlanishi orqada qoladi. Otlar gastrofillyoz qo’zg’atuvchilari sistematik jihatdan quyidagi taksonomik guruhlarni tashkil qiladi:

- Turkum: Ikki qanotlilar (Diptera)
- Oila: *Oestridae*
- Kenja oilasi: *Gasterophilinae*
- Avlod: *Gasterophilus* (Leach, 1817).

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha *Gasterophilus* avlodining 9 ta turi aniqlangan. Shulardan, eng ko‘p uchraydigan 6 turi otlarda parazitlik qiladi. Ular quyidagilar:

1. *G. intestinalis (De Geer)*
2. *G. nasalis (Linnaeus)*
3. *G. haemorrhoidalis (Linnaeus).*
4. *G. pecorum (Fabricius)*
5. *G. inermis (Brauer)*
6. *G. nigricornis (Loew*)

Qolgan 3 turi esa (*G. meridionalis, G. ternicinctus, G. flavipes*) asosan Afrika mintaqasidagi zebralar va yovvoyi eshaklarda parazitlik qiladi.

Gastrofillyoz qo‘zg‘atuvchilarining rivojlanish jarayoni to‘liq metamorfoz yo’li bilan ko’payadi. Rivojlanish sikli bir yil davom etadi. So’nalarning rivojlanishi 3 ta bosqichdagi lichinkalik va imago davrlarini o’taydi. Bu davrlar rivojlanish jarayonining 5/6 qismini egallaydi. Ular quyidagicha ketma ketlikda rivojlanadi:

Imago (voyaga yetgan hasharot): Og‘iz organlari reduksiyaga uchraganligi sababli oziqlanmaydi. Ularning yagona maqsadi - urchish va tuxum qo‘yish. Hasharotlarning yashash davri qisqa bo’lib, o‘rtacha 1 kundan 20-26 kungacha yashaydi. Urg‘ochi hasharotlar havoda uchib turgan holatda, tuxumlarini otlarning ko‘krak, old oyoqlar, yelka jun qoplamiga maxsus yopishqoq modda yordamida yopishtiradi. *G. intestinalis* ko‘proq oldingi oyoqlar va yelkaga, *G. nasalis* iyak ostiga, *G. haemorrhoidalis* esa buyin atrofiga tuxum yopishtiradi. Ammo, so’naning *G. pecorum* turi tuxumlarini yaylov o‘tlariga, otlar yuradigan yo‘laklarga va suv bo‘ylaridagi o‘simliklarga qo‘yadi. Har bir urg‘ochi so’nalar o’rtacha 1300 tadan 2400 tagacha tuxum qo’yadi. Otlar bu so’nalarning tuxum ichida shakllangan birinchi bosqich lichinklarini o’tlar bilan qo’shib yeganda zararlanadi. Gastrofillyoz qo‘zg‘atuvchilarining lichinkalik rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

1-bosqichdagi lichinka issiqlik va namlik ta’sirida tuxumdan chiqadi. So’ng 5-10 kun ichida ot o‘zini yalashi yoki terini teshib kirishi natijasida og‘iz bo‘shlig‘iga, milk, va shilliq to’qimalarga tushgan lichinkalar 21-28 kungacha migratsiya qilib indoparazitlik qiladi. Bu davrda ular "stomatit" va "gingivit" chaqiradi.


2-bosqichdagi lichinka og‘izdan yutilib, oshqozon yoki o‘n ikki barmoqli ichakka o‘tadi va u yerda 3 chi bosqichga aylanadi.

3-bosqichdagi lichinka asosiy parazitar bosqich bo‘lib, qish davomida ot organizmida yashaydi (8-10 oy). Ularning teri qatlami kuchli xitinlashgan og‘iz ilmoqlari bilan oshqozon (asosan *G. intestinalis*) yoki o‘nikki barmoqli ichak (*G. nasalis*) devoriga yopishib oladi. Bahorda yetilgan lichinkalar axlat bilan tashqi muhitga chiqadi. Tuproqqa tushgan lichinkalar g’umbakka aylanadi. Bu g’umbaklar 3-5 hafta davomida rivojlanib, voyaga yetgan hasharot bo’lib g’umbakdan chiqadi. G’umbakdan chiqqan urg‘ochi va erkak pashshalar otlar saqlanadigan joylar, yaylovlar yoki ot tezagining atrofida uchrashib, havoda yoki yerda tezda juftlashadi. Erkak pashshalar juftlashgandan

keyin ko‘p o‘tmay nobud bo‘ladi. Urchitilgan urg‘ochi pashshalarning hid sezish a’zolari yaxshi sezadi. Ular hid sezish a’zolari orqali darhol otlar podasini qidirib topadi. Urg‘ochi pashsha havoda uchib yurib, otlarning atrofida tahdid solib, ularning tuklariga bir necha yuzlab yoki minglab tuxumlarini yopishtirib chiqadi. Urg‘ochi pashsha o‘zidagi barcha tuxumlarni qo‘yib bo‘lgach, quvvati tugaydi va nobud bo‘ladi.



1 –rasm. Otlarning orqa oyoq va son qismi tuklarida *Gasterophilus* tuxumlarining yopishib turgan holati



2-rasm. *Gasterophilus* 3-bosqich lichinkasi, g’umbagi va oshqozonda yopishib rivojlangan lichinkalar

Gastrofilyoz qo’zg’atuvchilarining dunyo bo’yicha hududiy tarqalishi, ekologik dinamikasi

Gasterophilus dunyo bo‘ylab kosmopolit tarqalish areali hisoblansa-da, turlar tarkibining biogeografik zonalarda taqsimlanishi turlichadir. Xalqaro meta-analitik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bio-xilma-xillikning eng yuqori cho‘qqisi Xitoy (Ichki Mo‘g‘uliston) va Janubiy Afrika hududlariga to‘g‘ri keladi (har birida 7 tadan tur qayd etilgan). Yevropa mamlakatlarida (Ruminiya, Polsha, Italiya) asosan *G. intestinalis* va *G. nasalis* dominantlik qiladi va ekstenzivlik ko‘rsatkichi 47% dan 53.6% gacha o‘zgarib turadi. Shimoliy va Sharqiy Afrikada esa yovvoyi faunaning (zebralar) mavjudligi sababli *G. meridionalis* va *G. ternicinctus* sirkulyatsiyasi yuqori.

Markaziy Osiyo va O‘zbekiston iqlimiy o‘ziga xosligi: Mintaqamizning quruq va keskin kontinental iqlimi so‘nalarning parazitlik sikliga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerda asosan 4 ta tur () keng tarqalgan. Yoz oylaridagi anomal issiqlik va qurg‘oqchilik imago bosqichining parvoz vaqtini qisqartiradi. Yaylov sharoitida otlarning invaziya bilan zararlanish darajasi kuz fasliga kelib o’rtacha 80-90% gacha yetishi amaliy tajribalarda va adabiy ma’lumotlarda kuzatilgan.

O‘zbekistonning Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog’iston respublikalarida boqiladigan otlarda asosan 3 ta tur **(***G. intestinalis* va *G. nasalis, G. pecorum***)** uchraydi. So’nalarning rivojlanishi uchun namlik ko’proq bo’lgan tog‘ va tog‘oldi yaylovlari, daryo bo‘ylari hamda oraliq xojayinlar borligi pashshalarning faollik davrini uzoqroq davom etishini ta’minlaydi. Jumladan, Toshkent viloyati shimol va shimoli-sharqiy qismi tog’ bilan o’ralgan bo’lib, bir tomondan shimoliy qismini Ugam tizmasi, shimoli-sharqiy qismini Pskom tizmasi, sharqiy qismini Chatqol tog’ tizmasi hamda janubroqqa cho‘zilgan Ko‘ksu tizmalari joylashgan. Sharqiy

tomondagi tog‘oldi adirlari va qirlari tutashib, Toshkent viloyatining Parkent va Ohangaron tumanlari tog‘lariga ulanib ketadi. Bu hududlarda O‘zbekistondagi jami otlarning eng katta qismi (60-70%) ni boqiladi.

- Aynan, ushbu tog‘ va tog‘oldi yaylovlarining mavjudligi pashshalarning ko‘payishi uchun qulay mikroiqlimni yaratadi.

Dunyo olimlari tomonidan ushbu hasharotning 9 ta haqiqiy (valid) turi o’rganilgan bo‘lib, ularning filogenetik va ekologik jihatdan hududiy tarqalishi bo’yicha quyidagi jadvalda berilgan:

1-jadval.

1	Parazit lichinkalarning nomlanishi	Asosiy xo’jayin	3 chi bosqichdagi lichinkalar migratsiya joylashuvi	Global tarqalish hududlari
1	**Gasterophilus intestinalis**	Ot, eshak, xachir, zebra	Oshqozonning kardiak qismi	Kosmopolit (Butun dunyoda)
2	**Gasterophilus nasalis**	Ot, eshak, zebra	O‘nikki barmoqli ichak	Kosmopolit (Keng tarqalgan)
3	**Gasterophilus haemorrhoidalis**	Ot, eshak	To‘g‘ri ichak va anus	Palearktika, Shimoliy Amerika
4	**Gasterophilus pecorum**	Ot, yovvoyi otlar, eshak	Oshqozon va qizilo‘ngach	Evroosiyo, Afrika (Yuqori patogen)
5	**Gasterophilus inermis**	Ot, xonaki eshaklar	Oshqozon va o‘nikki barmoqli ichak	Evropa, Osiyo, Shimoliy Afrika
6	**Gasterophilus nigricornis**	Ot, eshak	O‘nikki barmoqli ichak	Markaziy Osiyo, Xitoy, Sharqiy Evropa
7	**Gasterophilus flavipes**	Xonaki eshak, ot, zebra	Oshqozon (Kardiak/Pilorik)	Afrika, Janubiy Evropa, Xitoy (Qayta tiklangan tur)
8	**Gasterophilus ternicinctus**	Faqat yovvoyi zebralar	Oshqozon va o‘nikki barmoqli ichak	Afrotropika (Endemik)
9	**Gasterophilus meridionalis**	Burchell zebrasi, eshak	Oshqozon va dudoq sohasi	Janubiy va Sharqiy Afrika

Xulosa. Yuqorida berilgan ilmiy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, *Gasterophilus* (oshqozon bo‘kasi) avlodiga mansub parazitlar dunyo bo‘ylab kosmopolit tarqalish areali va yuqori biogeografik xilma-xillikka ega bo‘lib, global miqyosda o‘rganilgan 9 ta haqiqiy turdan 6 tasi otlarda, qolgan 3 ta endemik tur esa asosan Afrika yovvoyi faunasida parazitlik qiladi. O‘zbekistonning o‘ziga xos quruq va keskin kontinental iqlim sharoitida ushbu parazitlar to‘liq metamorfoz asosida 1 yillik rivojlanish siklini o‘taydi. Bunda yilning issiq faslida tuproq yuzasida shakllangan g‘umbak bosqichidan uchib chiqqan qisqa umrli imago pashshalar hayvon tanasiga yoki yaylov o‘tlariga minglab tuxum qo‘yadi. Natijada, og‘iz bo‘shlig‘i (L1, L2) va oshqozon-ichak traktida (L3) 8–10 oylab davom etadigan surunkali endoparazitizm zanjiri yuzaga keladi. Respublika hududida, ayniqsa Toshkent viloyatining shimoliy va shimoli-sharqiy qismini o‘rab turgan Ugam, Pskom, Chatqol hamda Ko‘ksu tog‘-tog‘oldi tizimlarida (xususan, Parkent va Ohangaron tumanlarida) namlikning yetarliligi parazit sirkulyatsiyasi uchun optimal mikroiqlimni yaratadi. Aynan mana shu hududlarda jami otlar populyatsiyasining eng katta qismi (60-70%) jamlangani hamda kuz fasliga kelib yaylovlarda invaziya ekstensivligining 80-90% gacha keskin ko‘tarilishi mazkur entomoz kasalligini yilqichilik tarmog‘i uchun jiddiy iqtisodiy va veterinariya sohasi muammosi sifatida baholashga to‘liq ilmiy asos hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Азимов Ш.А., Енилеева Н.Х. (1977). Гастрофилез лошадей и меры борьбы с ним. – Ташкент: Фан.

2. Азимов Ш.А., Енилеева Н.Х., Ишмирзаев Б. (1987). Желудочно-кишечные оводы лошадей в условиях Узбекистана и меры борьбы с ними. – Ташкент.

3. Attia M.M., Khalafalla R.E., Mahdy O.A. (2018). Gastro-intestinal parasites of horses in Egypt. Journal of the Egyptian Society of Parasitology.

4. Erimov S.F., Erimov F.F., Jumaniyozova J.M. (2024). Gastrofilyoz – otlarning xavfli entomoz kasalligi. Veterinariya fanlari axborotnomasi.

5. Erimov S.F. (2025). Orolbo‘yi ekotizimida gastrofilyoz qo‘zg‘atuvchilarining otlar mahsuldorligiga ta’siri. Ilmiy jurnal.

6. Ibrayev B.K., Lider L.A., Bauer C. (2015). Gasterophilus spp. infections in horses from northern and central Kazakhstan. Veterinary Parasitology, 214(3-4), 304-308.

7. Niedźwiedź A., Borowicz H., Jaworski Z. (2013). Prevalence study in horses infected by Gasterophilus sp. in Poland. Veterinary Parasitology.

8. Özdal N., Inci A., Yildirim A., Duzlu O. (2010). Presence of Gasterophilus Species in Horses in Van Region. Van Veterinary Journal.

9. Rabei Ș.O., Hassan M.M., et al. (2024). Gasterophilus in horses from Romania: diversity, prevalence and seasonal dynamics. Parasitology Research.

10. Xin-Yu Li, Thomas Pape, Dong Zhang *"Taxonomic review of Gasterophilus (Oestridae, Gasterophilinae) of the world with updated nomenclature, keys, biological notes and distributions"*. ZooKeys (2019).

11. Ș. O. Rabei, A. S. Carstolovean, C. A. Culda, A. D. Mihalca.

12. "Gasterophilus in horses from Romania: diversity, prevalence, seasonal dynamics and distribution". Jurnali (2024-yil dekabr).

13. D. Otranto, J. R. Colwell (va boshqalar). *"Species composition of Gasterophilus spp. (Diptera, Oestridae) flies"* (2005-yil).

UO'K 633.51 + 632.937 + 595.735

G'O'ZA AGROTSENOZIDA BEGONA O'TLARDAGI SHIRA BITLARI SON DINAMIKASI

A.H. Avezova, magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch
R.S. Ro`zmetov, kat.i.x., Xorazm Ma`mun akademiyasi, Xiva

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda g'o'za dalalaridagi begona o'tlarda uchraydigan shira bitlarining tarqalishi, son dinamikasi va ekologik xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqotlar davomida begona o'tlarning shira bitlari uchun asosiy oziqa va saqlanish manbayi ekanligi aniqlandi. Erta bahor davrida zararkunandaning begona o'tlarda rivojlanib, keyinchalik g'o'za nihollariga migratsiya qilishi kuzatildi. Shira bitlarining tarqalishi va soniga iqlim omillari hamda begona o'tlarning tur tarkibi sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Olingan natijalar g'o'za agrotsenozida integratsiyalashgan himoya choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *g'o'za, shira bitlari, Aphididae, begona o'tlar, agrotsenoz, zararkunanda, populyatsiya dinamikasi, fitosanitar holat, biologik himoya, integratsiyalashgan kurash, entomologik monitoring, agroekotizim*

Аннотация. *В данном исследовании изучены распространение, численность и экологические особенности тлей, встречающихся на сорных растениях в хлопковых агроценозах. Установлено, что сорные растения служат основным источником питания и резерватором тлей. Выявлено, что ранней весной вредитель развивается на сорняках, а затем мигрирует на всходы хлопчатника. Отмечено значительное влияние климатических факторов и видового состава сорных растений на численность и распространение тлей. Полученные результаты имеют важное значение для разработки интегрированных мер защиты хлопчатника в агроценозах.*

Ключевые слова: *хлопчатник, тли, Aphididae, сорные растения, агроценоз, вредитель, динамика популяции, фитосанитарное состояние, биологическая защита, интегрированная борьба, энтомологический мониторинг, агроэкосистема.*

Abstract. *This study investigated the distribution, population dynamics, and ecological characteristics of aphids found on weeds in cotton agrocenoses. The results showed that weeds serve as the main food source and reservoir for aphids. In early spring, aphids develop on weeds and later migrate to cotton seedlings. Climatic factors and weed species composition were found to significantly influence aphid abundance and distribution. The obtained results are important for developing integrated pest management strategies in cotton agroecosystems.*

Keywords: *cotton, aphids, Aphididae, weeds, agrocenosis, pest, population dynamics, phytosanitary condition, biological control, integrated pest management, entomological monitoring, agroecosystem.*

G'o'za dalalarida erta bahorda shira bitlarining tarqalishini o'rganish qishloq xo'jaligi entomologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shira bitlari (Aphididae) g'o'za o'simligining dastlabki rivojlanish bosqichlarida barg va yosh novdalardan shirani so'rib oziqlanadi. Natijada o'simlikning fiziologik jarayonlari buzilib, fotosintez darajasi pasayadi, barglar deformatsiyalanadi hamda o'sish va rivojlanish sekinlashadi. Ayniqsa, vegetatsiyaning boshlang'ich

davrida zararlanish kuzatilsa, hosildorlik va tola sifatiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Erta bahor davrida iqlim omillarining o‘zgaruvchanligi, havoning tez isishi va namlikning ortishi chira bitlarining tez ko‘payishiga qulay sharoit yaratadi. Shu sababli ularning dalalarda tarqalish dinamikasini o‘rganish zararkunandaning ommaviy rivojlanishini oldindan prognoz qilish imkonini beradi[1]. O‘z vaqtida monitoring olib borish natijasida zararkunanda soni iqtisodiy zarar yetkazish chegarasiga yetmasidan oldin samarali kurash choralarini qo‘llash mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda paxtachilikda ekologik xavfsiz va iqtisodiy samarador himoya usullarini ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi. Shira bitlariga qarshi kimyoviy preparatlarning me’yoridan ortiq qo‘llanilishi foydali entomofaunaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi hamda agrotsenozdagi biologik muvozanatni buzadi[2]. Erta bahordagi tarqalishni chuqur o‘rganish esa biologik kurash usullarini takomillashtirish, entomofaglardan samarali foydalanish va integratsiyalashgan himoya tizimini yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, shira bitlari ko‘plab virusli kasalliklarning tashuvchisi hisoblanadi. Ularning g‘o‘za maydonlarida erta paydo bo‘lishi o‘simlik kasalliklarining keng tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan zararkunandaning fenologiyasi, migratsiyasi va ekologik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat hosildorlikni oshirish, balki fitosanitar barqarorlikni ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, g‘o‘za dalalarida erta bahorda chira bitlarining tarqalishini o‘rganish paxta hosilini saqlab qolish, ekologik xavfsiz himoya choralarini ishlab chiqish, pestitsid yuklamasini kamaytirish hamda qishloq xo‘jaligida barqaror agrotexnologiyalarni rivojlantirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.[3]

Tadqiqot usullari. G‘o‘za dalalaridagi begona o‘tlarda shira bitlarining sonini aniqlash va ularning tarqalishini o‘rganish maqsadida dala kuzatuvlari hamda entomologik hisoblash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotlar vegetatsiya davrining erta bahor bosqichida olib borildi. Dala tajribalari g‘o‘za ekilgan maydonlarda marshrut usuli asosida tashkil etildi. Kuzatuv uchastkalari dalaning turli qismlaridan tanlab olinib, begona o‘tlarning turi, tarqalish zichligi va ularda uchraydigan shira bitlari soni muntazam ravishda qayd etildi. Namunalar olishda diagonal va transekt usullaridan foydalanildi. Har bir kuzatuv nuqtasida ma’lum maydondagi begona o‘tlar ajratilib, ulardagi shira bitlari miqdori vizual hisoblash usuli orqali aniqlandi.

Shira bitlarining sonini hisoblashda o‘simlikning bargi, poyasi va yosh novdalari alohida ko‘rikdan o‘tkazildi[4]. Zararkunandaning lichinka va imago bosqichlari stereomikroskop yordamida aniqlanib, sistematik tarkibi entomologik aniqlagichlar asosida belgilandi. Hisoblash ishlari ertalabki vaqtda, havo harorati nisbatan mo‘tadil bo‘lgan paytda amalga oshirildi. Begona o‘t turlarini aniqlashda geobotanik usullardan foydalanildi. O‘simlik namunalari yig‘ilib, ularning morfologik belgilari asosida tur tarkibi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida uchragan asosiy begona o‘t turlarining fenologik holati ham qayd etib borildi. Shira bitlarining tarqalish darajasi va uchrash chastotasini baholash uchun populyatsion-ekologik tahlil usullari qo‘llanildi. Zararkunandaning o‘rtacha soni, maksimal va minimal ko‘rsatkichlari matematik-statistik usullar asosida hisoblandi. Olingan natijalarga dispersiya va variatsion tahlil elementlari qo‘llanib, ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi aniqlandi[5].

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda biologik statistika usullaridan foydalanildi. Hisoblashlar Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi va natijalar jadval hamda diagrammalar shaklida ifodalandi[3].

Tadqiqot usullari. G‘o‘za agrotsenozida uchraydigan begona o‘tlar shira bitlari (Aphididae) uchun muhim rezervoar va vaqtinchalik oziqa manbai vazifasini bajaradi. Shu sababli g‘o‘za dalalaridagi begona o‘tlarda shira bitlarining sonini aniqlash va tahlil qilish zararkunandaning rivojlanish dinamikasini baholashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Jadval ma’lumotlari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim begona o‘t turlari shira bitlarining ko‘payishi uchun qulay ekologik muhit yaratib, ularning erta bahor davrida ommaviy rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Begona o‘tlarning vegetatsiya davri g‘o‘za ekiniga nisbatan ertaroq boshlanishi natijasida shira bitlari dastlab ushbu o‘simliklarda rivojlanadi. Ayniqsa, namlik yetarli va havo harorati mo‘tadil bo‘lgan sharoitlarda shira bitlarining partenogenetik yo‘l bilan tez ko‘payishi kuzatiladi. Natijada begona o‘tlar zararkunada populyatsiyasining asosiy manbalaridan biriga aylanadi. Keyinchalik esa shira

bitlari qanotli individlar hosil qilib, g‘o‘za nihollariga migratsiya qiladi. Bu holat zararkunandaning g‘o‘za dalalarida tez tarqalishiga olib keladi.

1-jadvaldagi natijalar ayrim begona o‘t turlarida shira bitlari sonining yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘simliklarning morfologik va fiziologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Barglarning yumshoqligi, hujayra shirasi tarkibidagi oziqa moddalarning ko‘pligi hamda azot birikmalarining yuqori miqdori shira bitlari uchun qulay oziqlanish muhiti yaratadi. Ayrim begona o‘tlarning dalada zich tarqalishi esa zararkunandaning yashashi va ko‘payishi uchun mikroiqlim hosil qiladi.

1-jadval

G`o`za dalalaridagi begona o`tlarda shira bitlarining soni (2025-2026 y)

N	Begona o`tlar nomi	1 bargdagi hasharotlar soni(dona)
1.	Tuyatovon	5
2.	Qamish	261
3.	Oq sho‘ra	0
4.	Ajriq	0
5.	Qo’ypechak	0
6	Yontoq	2
7.	Chuchukmiya	87

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, begona o‘tlar nafaqat shira bitlari uchun oziqa manbai, balki ko‘plab virusli kasalliklarning tabiiy rezervuari ham hisoblanadi. Shira bitlari ushbu kasalliklarni bir o‘simlikdan boshqasiga ko‘chirishda asosiy vektor vazifasini bajaradi. Shu sababli begona o‘tlarning dalada ko‘pligi fitosanitar holatning yomonlashishiga olib keladi. Ayniqsa, g‘o‘za nihollari rivojlanishining dastlabki bosqichlarida zararlanish kuzatilsa, o‘simliklarning o‘sishi sustlashadi, barglar buraladi va hosildorlik kamayadi. 1- Jadval natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, g‘o‘za dalalarida begona o‘tlarni o‘z vaqtida yo‘qotish shira bitlari sonini kamaytirishda muhim agrotexnik tadbir hisoblanadi. Begona o‘tlarning muntazam nazorat qilinishi zararkunandaning dastlabki o‘choqlarini bartaraf etishga yordam beradi. Bu esa kimyoviy insektitsidlardan foydalanish ehtiyojini kamaytirib, agrotsenozdagi foydali entomofaunani saqlab qolishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, monitoring ishlari orqali qaysi begona o‘t turlari shira bitlari uchun asosiy xo‘jayin ekanligini aniqlash mumkin. Ushbu ma’lumotlar integratsiyalashgan himoya tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, biologik kurash usullarini qo‘llashda entomofaglarning faolligi va zararkunandaning ekologik bog‘liqligini hisobga olish zarur. Xulosa qilib aytganda g‘o‘za dalalaridagi begona o‘tlarda shira bitlarining sonini o‘rganish zararkunandaning ekologiyasi, migratsiyasi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari g‘o‘za agrotsenozida fitosanitar barqarorlikni ta’minlash, hosildorlikni oshirish va ekologik xavfsiz himoya choralarini ishlab chiqishda katta amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ходжаев Ш.Т. Энтомология Энтомология. — Ташкент: Ўқитувчи, 2019. — 560 с.

2. Ходжаев Ш.Т. Ўсимликларни биологик ҳимоя қилиш Ўсимликларни биологик ҳимоя қилиш. — Тошкент: Меҳнат, 2004. — 280 б.

3. Pedigo L.P. Entomology and Pest Management Entomology and Pest Management. — 6th ed. — Illinois: Waveland Press, 2014. — 784 p.

4. Dent D. Integrated Pest Management Integrated Pest Management.—London: Chapman & Hall, 2000.-410 p.

5. Blackman R.L., Eastop V.F. Aphids on the World’s Crops Aphids on the World’s Crops: An Identification and Information Guide. — 2nd ed. — Chichester: Wiley, 2000. — 466 p.

UDC: 581.6

BIOECOLOGICAL FEATURES OF *PLANTAGO MAJOR L.*

L.A.Baxieva, PhD, Associate Professor, Karakalpak State University, Nukus

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Plantago major L. o'simligining laboratoriya sharoitlarida (urug'larni suvga ivitish va kontrol variantlari), shuningdek, dala tajribalarida yetishtirish agrotexnologiyasi, tarkibi, ishlatilishi, tarqalishi va xom ashyo tayyorlash haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Qoraqalpog'iston, dorivor o'simliklar, Plantaginaceae Juss. oilasi, hayotiy shakllari, xalq tabobati,agrotexnik tadbirlar*

Аннотация. *В статье приведены сведения по агротехнике выращивания, составу, использованию, распространению и заготовке сырья Plantago major L. в лабораторных условиях (включая варианты с замачиванием семян и контрольные), а также в полевых опытах.*

Ключевые слова: *Каракалпакстан, лекарственные растения, семейство Plantaginaceae Juss., жизненная форма, народная медицина, агротехника выращивания.*

Abstract. *The article provides information on the cultivation techniques, composition, use, distribution, and harvesting of Plantago major L. raw materials under laboratory conditions (including soaked seeds and control variants), as well as in field experiments.*

Keywords: Karakalpakstan, medicinal plants, family Plantaginaceae Juss., life form, folk medicine, cultivation techniques.

Introduction. Plantago major (Plantago major L.) Plantaginaceae is one of the most popular and long-used medicinal plants. Studies of P. major pollen have shown that as early as 4,000 years ago, this plant was used for various purposes [1].

Uzbekistan is a region rich in medicinal plants, both naturally and geographically. Approximately 4,500 species of higher plants are found naturally in this area. Of these, about 1200 plant species have medicinal properties, which testifies to the richness of the plant world of the Republic of Uzbekistan[1,2].

The genus Plantago L. has 21 species in mainland Central Asia (Table 1). There are 250 species in the world, including 6 in Uzbekistan and 4 in Karakalpakstan, and they are widely used as cultivated plants[1]. They are short-rooted, perennial herbaceous plants. The above-ground part consists of basal leaves and a 10-50 cm tall flower trunk. The leaves are long, winged, petiolate, broadly ovate or broadly elliptical, with smooth edges. One or more flower arrows.

1-table

Distribution of Plantago L. species in Central Asia

1.	*Plantago asiatica* L.	12.	*Plantago lagopus* L.
2.	*Plantago atrata* Hoppe	13.	*Plantago lanceolata* L.
3.	*Plantago australis* Lam.	14.	*Plantago major* L.
4.	*Plantago cordata* Lam.	15.	*Plantago maritima* L.
5.	*Plantago cornuti* Gouan	16.	*Plantago maxima* Juss. ex Jacq.
6.	*Plantago coronopus* L.	17.	*Plantago media* L.
7.	*Plantago depressa* Willd.	18.	*Plantago ovata* Forssk.
8.	*Plantago erecta* E. Morris	19.	*Plantago patagonica* Jacq.
9.	Plantago helleri Small	20.	*Plantago serraria* L.
10.	*Plantago indica* L.	21.	*Plantago virginica* L.
11.	*Plantago krascheninnikovii* E.V.Serg.		

Materials and methods. Buckwheat is a perennial herbaceous plant belonging to the family Plantago major (*Plantaginaceae*). It is a large, thick-rooted, stalkless perennial herbaceous plant. The above-ground part consists of basal leaves and a 10-50 cm tall flower trunk[3]. The leaves are long, winged, petiolate, broadly ovate or broadly flat-edged, with 3-9-pointed main roots. One or more flower arrows. Small, inconspicuous, four-parted flowers are arranged on a spike-like inflorescence at the tip of the flower arrow.

The fruit is an egg-shaped, multi-seeded pod. Buckwheat blooms and fruits in June-September.

Results and discussion. In our experiments conducted under laboratory conditions, we examined the seeds of the horsetail plant (Table 2). On 27.03.2023, (Figure 4) and in field conditions, we began by determining the germination of household plots (01.05.2023) in the experimental plot (23.04.2023) on the territory of the Faculty of Biology (Table 2). To do this, first:

The seeds of the horsetail plant (seeds collected in 2023) were counted.

For the experiment, 4 Petri dishes were thoroughly cleaned and labeled. Then, filter paper was placed in Petri dishes, seeds were placed, and 3-5 ml of water was added. It is necessary to ensure

that the amount of water does not increase. In this way, the germination of seeds is monitored and counted.

The germination of the horse thistle plant's seeds was observed at various temperatures. For each analysis, 40 seeds were counted in Petri dishes and repeated 4 times (Table 3). In this case, the seeds were placed in Petri dishes in two different ways (in their original state and soaked in water).




Figure 1 Observation of seed germination in laboratory conditions

In each variant, the initial and final germination of the seeds and the number of seeds were determined separately, and then the average percentage was recorded in a diary. The optimal temperature for seed germination in Petri dishes is +20+22°C. In this case, the seeds begin to germinate in their original state within 6-10 days, and when soaked in water, within 3-8 days.

Plantago major L. has long-winged, rod-shaped rhizomatous leaves and a floral axis growing above ground (1 or more). The flowers are small and inconspicuous. The flower has a small calyx cut into 4 parts, the flower's crown is light brown, 4 parts, and the stamens are 4. The ovaries are double-marked, located above. The fruit is an egg-shaped, multi-seeded capsule. Blooms in May-June. It grows along roadsides, in fields and crops, along meadows and forest edges, and along ditches. The plant's leaves are collected year-round for use and dried in a cool place. Dried leaves are ovate, ellipsoidal, smooth-edged, with 5-9 ovate roots. They are 12 cm long and 8 cm wide, and consist of short, stipular leaves, odorless. The horse thistle is a remedy for more than 80 diseases. For example, it is used for gastrointestinal diseases (gastritis, enteritis, enterocolitis), whooping cough, hemorrhoids, cancer, chickenpox, constipation, and eye diseases. Below the horseshoe[1,2,4].

Pour a glass of hot water over one tablespoon of the leaves and let it steep for 30 minutes. Then take small portions for an hour.

2. Wash the leaves, extract the juice, add an equal amount of honey, and boil for 20 minutes. Recommended for atherosclerosis: 2-3 tablespoons per day[1,2].

Pour 1 cup of hot water over 1 tablespoon of crushed dry leaves and let it steep for 10 minutes. Take small portions for 1 hour a day.

Buckthorn reproduces by seeds. It grows and develops well in areas with high soil moisture and a shortage of weeds. The designated area for planting is plowed in a 25-30 cm furrow. During plowing, 20-30 tons of manure and 45-60 kg of phosphorus fertilizers are applied per hectare. After plowing, in late autumn (the second and third ten-day periods of November), they are harrowed vertically and thoroughly leveled (Figure 1).

Seeds are sown on a seeding machine with row spacing of 60 cm. In this case, the sowing depth is 0.5-1.0 cm. 5-6 kg of seeds are used per hectare. Before sowing, the seeds are thoroughly washed, the mucous membrane is cleaned, and they are dried.

10 kg of sand, powdered manure, and other substances are added per 1 kg of seeds. This allows for even sowing of seeds. Seeds are also sown in autumn, where they are first stratified (maintained at a temperature of 0-6 degrees Celsius in moist sand to accelerate germination) or cleaned of mucilage by washing.



Figure 2. The flowering of the horsetail plant in the front garden

Buckwheat is irrigated 10-12 times during the season, cultivated 3-4 times, and fertilized with 30 kg of nitrogen, 40 kg of phosphorus, and 20 kg of potassium per hectare in May-July. In the second and subsequent years, in May, the leaves of the sprouted plants are joined in two rows, 10 cm apart from each other, and fertilized twice.

It is cleaned of burners. There should be 8-10 balls per meter, and planting should be done according to plant density. Throughout the season, it is irrigated 10-12 times, cultivated 3-4 times, and fertilized with 30 kg of nitrogen, 40 kg of phosphorus, and 20 kg of potassium per hectare in May-July. In the second and subsequent years, in May, the leaves of the emerging plants are ripened in two rows, 10 cm apart from each other, and they are fertilized twice.

Starting from the second year, 6-7 centners of dry leaf yield per hectare is obtained from the fields planted with horsetails. A field planted with horsetail can harvest up to 3-4 years. It is possible to harvest 1.5-2 tons of dry leaves per hectare from horse thistle fields.

The average weight of 1000 seeds of Plantago major L. is 1-1.7 grams, and the seeds of large horsetails are small and brown. In our experiment from 2022-2023, the sowing date of March 25th showed a positive result. The influence of planting schemes on the growth and development of Plantago major L. was observed in two different ways. In the 1st method of row planting, the 2nd method is sowing, the 1st method is sowing in a 60x40 scheme, from 4 rows, an average of 3 leaves are obtained on one bush, the length of the flower stalk is 5.5-7 cm, the leaf volume is 4-5 cm, the ripening period of the plant is 180 days, the dried product is 100 g of leaves. 2nd method of sowing: 2 leaves per plant, flower bud length 4-6 cm, leaf size 3-4 cm, plant ripening 160 days, dried yield 150 g of leaf.

Sowing in 2023-2024 showed good results. 5-6 kg of seeds are used per hectare. In the first year, 2-3 centners of dry leaf yield per hectare is obtained from large areas planted with horsetails, and from the second year, 6-7 centners of dry leaf yield per hectare can be obtained.

Primarily, collect the leaves of Plantago major L., dry them thoroughly, and use them in medicine. Drinking dried leaves of Plantago major L. with tea at home improves nutrition. One dry leaf weighs 0.6 grams, while two or three leaves weigh 1.3 grams.

REFERENCES:

1. Abdiniyazova G.J. Medicinal plants of republic Karakalpakstan (2017) Tashkent, Bayoz, -168 pp

2. Abdiniyazova G.J., Baxieva L.A. Agricultural technology for cultivation of the plant *plantago major* L.*//Science and Education in Karakalpakstan. 2025 №4/2.57-60pp.*

3. Yerzhepov S. Flora of Kara-kalpak, its economic description, use and guard. Tashkent: Fan; 1978.300p.

4. Khozimatov K.Kh., Aprasidi G.S., Khodzhimatov O.K. Wild-growing medicinal plants of Central Asia. Tashkent: Abu Ali Ibn Sino, 1995, 122p.

UDC: 635.6:595.132

NEMATODE FAUNA OF CAPSICUM ANNUUM L. IN GREENHOUSES OF SOUTHERN UZBEKISTAN

S.H.Choriyev, PhD, Termez State University, Termez

ORCID ID: *0009-0004-8859-4567*

D.N.Mardonayeva, basic doctoral student, Termez State University, Termez

Annotatsiya. *Maqolada Surxondaryo vohasida issiqxona sharoitida bulg'or qalampiri (Capsicum annuum L.) o'simligida uchrovchi nematodalar faunasi tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasida bu o'simliklardan 2 ta sinf, 4 ta kenja sinf, 7 ta turkum, 12 ta kenja turkum, 17 ta katta oila, 29 ta oila, 32 ta kenja oila, 40 ta avlodga mansub 76 turdagi nematodalar uchraganligi qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *fitonematodalar, issiqxona, bulg'or qalampiri, fauna, ildiz, ildiz atrofidagi tuproq.*

Аннотация. *В статье анализируется фауна нематод, обитающих в теплицах на сладком перце (Capsicum annuum L.) в оазисе Сурхандарья. В результате исследования на этих растениях обнаружено 76 видов нематод, относящихся к 2 классам, 4 подклассам, 7 отрядам, 12 подотрядам, 17 основным семействам, 29 семействам, 32 подсемействам и 40 родам.*

Ключевые слова: *фитонематоды, теплица, сладкий перец, фауна, корни, почва вокруг корней.*

Abstract. *The article analyzes the fauna of nematodes that live in greenhouses on bell pepper (Capsicum annuum L.) in the Surkhandarya oasis. As a result of the research, 76 species of nematodes belonging to 2 classes, 4 subclasses, 7 orders, 12 suborders, 17 major families, 29 families, 32 subfamilies, and 40 genera were found on these plants.*

Keywords: *phytonematodes, greenhouse, bell pepper, fauna, roots, soil around the roots.*

Introduction. In our country, certain results are being achieved in determining the composition of the nematode fauna of agricultural crops in closed areas, analyzing their bioecological characteristics, assessing the degree of damage to plants by common species of parasites, as well as developing the nematode fauna of plants and developing measures to combat them. In particular, the Strategy for the Development of New Uzbekistan for 2022-2026 sets the tasks of "Increasing the income of farmers and peasants by at least 2 times, ensuring an annual growth in the volume of agriculture by at least 5 percent through the accelerated development of agriculture and the application of advanced scientific achievements" [1]. Based on these tasks, it is of great scientific and practical importance to determine the composition of the fauna of parasitic nematodes in greenhouse crops in the Surkhandarya region, their bioecological characteristics, and the level of damage to greenhouse crops by common parasitic species, as well as to develop environmentally friendly measures to combat them.

Research material and methods. Phytohelminthological faunal studies 2024-2025 238 soil and 238 root samples of bell pepper plants were collected using the route method from greenhouse farms in the Surkhandarya oasis districts[2]. These samples were collected from soil and root samples

using the Berman funnel method at the Helminthology Laboratory of the Department of Zoology at Termez State University[3]. The preparations were prepared according to the Sainhorst method[5]. To determine the type and sex of nematodes, an N-300M Trinocular microscope, as well as nematode detectors and atlases, was used. To determine the size of nematodes, the De Man formula, adopted by most researchers and revised by Mikoletsky, was used[6]. The phytonematode system developed by De Ley and M.A. Blaxter was used to classify nematodes[7].

Results and discussion. As a result of the research, 76 species of nematodes belonging to 2 classes, 4 subclasses, 7 orders, 12 suborders, 17 large families, 29 families, 32 subfamilies, and 40 genera were identified in the bell pepper (Capsicum annuum L.) plant (Table 1).

Table 1

Distribution of nematodes in the bell pepper plant and rhizosphere

№	Nematode species	Number of individuals		Total	100 %
		rhizosphere	root		
1	*Prismatolaimus dolichurus*	5		5	0,19
2	*Mononchus truncatus*	8		8	0,30
3	*Dorylaimus stagnalis*	11		11	0,42
4	*D.bastianoides*	7		7	0,27
5	*Mesodorylaimus parasubulatus*	12		12	0,46
6	*Eudorylaimus labiatus*	10		10	0,38
7	*E. pratensis*	14		14	0,53
8	*E. monohystera*	2		2	0,08
9	*Aporcelaimus superbus*	2		2	0,08
10	*A. regius*	3		3	0,11
11	*Xiphinema index*	5	1	6	0,23
12	*Alaimus primitivus*	3		3	0,11
13	*Trichodorus primitivus*	8	2	10	0,38
14	*Monhystera simplex*	4		4	0,15
15	*Plectus cirratus*	5		5	0,19
16	*Proteroplectus tenuis*	2		2	0,08
17	*Heterocephalobus elongatus*	28	13	41	1,56
18	*H. filiformis*	4	2	6	0,23
19	*Cephalobus persegnis*	40	12	52	1,97
20	*C. nanus*	17		17	0,65
21	*Eucephalobus mucronatus*	5	2	7	0,27
22	*E. striatus*	20	6	26	0,99
23	*E. cornis*	4		4	0,15
24	*Acrobeloides buetschlii*	46	21	67	2,54
25	*A. emarginatus*	34	11	45	1,71
26	*A. obliquus*	6		6	0,23
27	*A. nanus*	13	5	18	0,68
28	*A. maximus*	4		4	0,15
29	*Chiloplacus symmetricus*	11	3	14	0,53
30	*Ch. Propinquus*	45	18	63	2,39
31	*Ch. Lentus*	35	13	48	1,82
32	*Ch. Demani*	13		13	0,49
33	*Cervidellus desidiosus*	4		4	0,15
34	*Panagrolaimus rigidus*	162	65	227	8,61
35	*P. armatus*	29	6	35	1,33
36	*P. longicaudatus*	8	5	13	0,49
37	*P. obesus*	5		5	0,19
38	*Teratocephalus terrestris*	6		6	0,23
39	*Xylorhabditis operosa*	4		4	0,15
40	*Rhabditis longicaudata*	18	6	24	0,91
41	*Rh. brevispina*	31	11	42	1,59
42	*Aphelenchus avenae*	123	57	180	6,83
43	*A. eremitus*	7	4	11	0,42
44	*Paraphelenchus tritici*	13	5	18	0,68
45	*P. pseudoparietinus*	32	8	40	1,52
46	*Aphelenchoides parietinus*	55	28	83	3,15

47	*A. blastophthorus*	19	6	25	0,95
48	*A. clarolineatus*	15	5	20	0,76
49	*A. composticola*	77	18	95	3,61
50	*Tylenchus davainei*	25	6	31	1,18
51	*T. arcuatus*	8	3	11	0,42
52	*Filenchus filiformis*	28	8	36	1,37
53	*F. multistriatus*	7		7	0,27
54	*Lelenchus discrepans*	6	2	8	0,30
55	*Lelenchus leptosoma*	8	4	12	0,46
56	*Aglenchus agricola*	14	5	19	0,72
57	*Tylenchorhynchus brassicae*	27	11	38	1,44
58	*T. claytoni*	21	9	30	1,14
59	*Merlinius brevidens*	18	7	25	0,95
60	*Psilenchus clavicaudatus*	7	4	11	0,42
61	*Helicotylenchus dihystera*	72	27	99	3,76
62	*H. pseudorobustus*	34	12	46	1,75
63	*H. multicinctus*	17	6	23	0,87
64	*Rotylenchus robustus*	19	9	28	1,06
65	*R. buxophilus*	12	5	17	0,65
66	*Pratylenchus pratensis*	93	36	129	4,90
67	*P. penetrans*	54	20	74	2,81
68	*Meloidogyne incognita*	56	203	259	9,83
69	*Hemicycliophora arenaria*	8	5	13	0,49
70	*Paratylenchus macrophallus*	29	11	40	1,52
71	*P. goodeyi*	16	7	23	0,87
72	*Ditylenchus dipsaci*	115	53	168	6,38
73	*D. destructor*	56	21	77	2,92
74	*D. tulaganovi*	18		18	0,68
75	*D. intermedius*	9	3	12	0,46
76	*Nothotylenchus acris*	9	5	14	0,53
Total	Number of species	76	51	76	100 %
	Number of individuals	1820	815	2635	

A total of 2,635 individuals belonging to 76 species were found in the roots and soil around the roots of bell pepper (Capsicum annuum L.), and 51 nematode species were recorded in the roots of the plants and 76 in the soil near the roots. The degree of dominance of the number of individuals of the identified nematode species (Kasprzak and Niedbala, 1981) was studied[8]. No eudominant species were recorded in terms of dominance. Four species of nematodes, namely *Aphelenchus avenae, Panagrolaimus rigidus, Ditylenchus dipsaci* and *Meloidogyne arenaria* are dominant species. 8 types of nematodes, such as *Chiloplacus propinquus, Acrobeloides buetschlii, Aphelenchoides parietinus, A.composticola, Pratylenchus pratensis, P.penetrans, Helicotylenchus dihystera, Ditylenchus destructor* are subdominant species. 14 types of nematodes were identified, namely, *Cephalobus persegnis, Heterocephalobus elongatus, Chiloplacus lentus, Acrobeloides emarginatus, Rhabditis brevispina, Panagrolaimus armatus, Tylenchus davainei, Paraphelenchus pseudoparietinus, Filenchus filiformis, Helicotylenchus pseudorobustus, Tylenchorhynchus brassicae, T.claytoni, Paratylenchus macrophallus, Rotylenchus robustus* resident species, 50 types of nematodes were noted to be sub-resident species.

Conclusion. In our study, the most common species in terms of the number of nematode individuals in the roots and sub-root soil of bell pepper (Capsicum annuum L.) were *Meloidogyne incognita, Panagrolaimus rigidus* and *Aphelenchus avenae*, while the least common species were *Eudorylaimus monohystera, Aporcelaimus superbus* and *Proteroplectus tenuis*. No eudominant species were recorded in terms of the degree of dominance of the identified nematodes. 4 species of nematodes were dominant, 8 species were subdominant, 14 species were resident, and 50 species were subresident.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. Choriyev, S., Khurramov, A., Khurramov, S., & Mardonayeva, D. (2024). Ecological analysis of peanut nematodes in Surkhondaryo region. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 100, p. 04006). EDP Sciences. https://doi.org/10.1051/bioconf/202410004006

3. Hamzayevich, C. S., Shukurovich, K. A., Khurramovich, K. S., Ugli, K. N. D., Norxonovna, M. D., & Qurbonmuratovich, R. S. (2024). Phytonematodes of peanut plants in the south of Uzbekistan. :https://doi.org/ 10.33472/AFJBS.6.8.2024.104-110.

4. Khuramov A., Bobokeldieva L., Choriyev S., Rakhmatullaev B., Khimmatov N., Raimov S., & Karshieva M. (2024). A Comprehensive study of phytonematodes of grape plants in the conditions of the Surkhandarya valley, Uzbekistan. *Biodiversitas Journal Of Biological Diversity*, *25*(11).

5. Choriyev, S., Khurramov, A., Amirov, O., Mardonayeva, D., Bobokeldiyeva, S., Asliddin, B., ... & Khusanov, N. (2025). Molecular-genetic analysis of Meloidogyne (Heteroderidae) species from Surxondaryo Region, Uzbekistan based on ITS markers. *Regulatory Mechanisms in Biosystems*, *16*(4), e25217-e25217.

6. Hamzayevich, C. S., Xurramovich, X. S., & Shukurovich, X. A. (2024). Surxondaryo vohasida yeryong'oq o'simligida uchrovchi adenophorea kenja sinfiga mansub nematoda turlarining faunistik va sistematik tahlili. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 21), 725-729.

7. De Ley P. & Blaxter M.L. Systematic position and phylogeny // The Biology of Nematodes, Donald L. Lee (Ed.). London: Taylor and Francis, 2010. – P. 1-30

8. Kasprzak K., Niedbała Wskaźniki biocenotyczne stosowane przy porządkowaniu i analizie danych w badaniach ilościowych // „Metody stosowane w zoologii gleby", PWN, – Warszawa, – 1981. - Str 397 - 408.

UO'K: 615.9:632.95:591.3:577.1

GALOKSIFOP R-METILNING KALAMUSH EMBRIONLARI MORFOLOGIYASIGA TA'SIRI VA UNING FLAVONOIDLAR BILAN KORREKSIYASI

D.Z.Dolimova, tayanch doktorant, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon
M.J.Abduraxmonova, PhD, dots., Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pestitsidlarning homilador kalamush embrionlarini morfologik rivojlanishiga toksik ta'sirini o'simlik birikmalari bilan koreksiyalash o'rganilgan. Tadqiqotlarda, pestitsidlarning reproduktiv salomatlikka ta'siri, homila rivojlanishidagi patologiyalar hamda prenatal rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Homiladorlikning 13-kunida galoksifop R-metilning LD_{50} 1/10 dozasi bilan bir marta zaharlantirilgan guruhlarda hamda pestitsid yuborilgandan so'ng narsissin flavonoidi bilan 7 kun davomida korreksiya qilingan guruh hayvonlarida olib borildi. Olingan natijalarga ko'ra, pestitsid bilan intoksikatsiya qilingan guruh hayvonlarida embrionlarning tana tuzilishining umumiy rivojlanishida nuqsonlar kuzatilgan. Narsissin flavonoidi esa ushbu buzilishlarni ma'lum darajada tiklaganligi ma'lum bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *pestitsid, galoksifop R-metil, embrional rivojlanish, morfologik ko'rsatkich, narsissin.*

Аннотация. *В данной статье изучается коррекция токсического воздействия пестицидов на морфологическое развитие эмбрионов беременных крыс растительными соединениями. В исследованиях проанализировано влияние пестицидов на репродуктивное здоровье, патологии развития плода и изменения в процессе пренатального развития. На 13 сутки беременности галоксифоп проводили в группах животных, получавших однократное отравление LD50 1/10 дозой Р-метила, а также в группах животных, получавших коррекцию флавоноидом нарциссином в течение 7 дней после введения пестицида. Согласно полученным результатам, в группе животных, интоксицированных пестицидом, наблюдались нарушения общего развития строения тела эмбрионов. Установлено, что флавоноид нарциссин в определенной степени восстанавливает эти нарушения.*

Ключевые слова: *пестицид, галоксифоп Р-метил, эмбриональное развитие, морфологический показатель, нарциссин.*

Abstract. *This article examines the correction of the toxic effects of pesticides on the morphological development of pregnant rat embryos using plant compounds. The studies analyzed the effects of pesticides on reproductive health, fetal developmental pathologies, and changes in prenatal development. On the 13th day of pregnancy, haloxifop was administered to groups of animals that had been treated with a single dose of R-methyl LD50 1/10 and to group animals that had been corrected with the flavonoid narcissin for 7 days after pesticide administration. According to the results obtained, general developmental defects in the body structure of the embryos were*

observed in the group of animals intoxicated with the pesticide. It was found that the flavonoid narcissin partially restored these disorders.

Keywords: *pesticide, haloxyfop R-methyl, embryonic development, morphological indicator, narcissin.*

So‘nggi o‘n yilliklarda qishloq xo‘jaligida zararkunandalarga qarshi kurashish maqsadida pestitsidlardan keng foydalanilmoqda. Pestitsidlar o‘simliklarni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularning atrof-muhit va inson salomatligiga ta’siri global ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, homilador ayollar va embrional rivojlanish davridagi organizmlar kimyoviy moddalar ta’siriga nisbatan juda sezgir hisoblanadi[]. Shu sababli pestitsidlarning reproduktiv salomatlik va homila rivojlanishiga ta’siri hozirgi zamon toksikologiyasi va ekologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar pestitsidlar organizmiga oziq-ovqat mahsulotlari, suv, havo va teri orqali kirib, turli biologik tizimlarga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Homiladorlik davrida ushbu moddalar yo‘ldosh orqali o‘tib, embrion va homila rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ba’zi pestitsidlar gormonal tizim faoliyatini buzuvchi moddalar sifatida ta’sir qilib, embrional rivojlanish jarayonida metabolik va genetik o‘zgarishlarga olib kelishi aniqlangan [1].

Oxirgi epidemiologik tadqiqotlar prenatal pestitsid ta’siri yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda tug‘ilish vaznining kamayishi, homila rivojlanishining sekinlashuvi hamda boshqa perinatal asoratlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Masalan, organofosfat va piretroid guruhiga kiruvchi insektitsidlar ta’siri natijasida yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning tug‘ilish vazni kamayishi va metabolik jarayonlarda o‘zgarishlar kuzatilishi aniqlangan [2].

Shuningdek, pestitsidlarning homiladorlik davrida ta’sir qilishi tug‘ma nuqsonlar, xususan nerv hujayralarida nuqsonlarni rivojlanish xavfini oshirishi mumkinligi haqida ilmiy ma’lumotlar mavjud [3]. Shu sababli pestitsidlarning homilador organizm va embrional rivojlanishga toksik ta’sirini o‘rganish nafaqat tibbiyot va biologiya sohalari uchun, balki ekologik xavfsizlik va aholi salomatligini saqlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda pestitsidlarning inson salomatligiga, ayniqsa reproduktiv tizim va embrional rivojlanishga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Turli epidemiologik, eksperimental va laboratoriya tadqiqotlari pestitsidlarning homilador organizmga kirib borishi va rivojlanayotgan embrionga toksik ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tasdiqlamoqda[1].

Ko‘plab tadqiqotlar pestitsidlarning organizmga kirish yo‘llari sifatida oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi, nafas olish yo‘llari hamda teri orqali singishini ko‘rsatadi. Ushbu moddalar qon aylanish tizimi orqali turli to‘qimalarga tarqalib, yo‘ldosh orqali o‘tish xususiyatiga ega. Natijada ular embrion va homila rivojlanish jarayonlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4].

Liu va uning hammualliflari tomonidan olib borilgan epidemiologik tadqiqotlarda prenatal davrda pestitsid ta’sirida vazni past bo‘lgan chaqaloqlarning tug‘ilishi ko‘proq uchrashi aniqlangan. Tadqiqotchilar bu holat pestitsidlarning metabolik jarayonlarga va yo‘ldosh funksiyasiga salbiy ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar [5].

Bundan tashqari, ayrim ilmiy ishlar pestitsidlarning embrional rivojlanish jarayonidagi gen ekspressiyasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Lesseur va hamkorlari tomonidan o‘tkazilgan molekulyar tadqiqotlarda prenatal pestitsid ta’siri natijasida homila miya to‘qimalari va platsenta hujayralarida gen faolligi o‘zgarishi kuzatilgan. Bu esa markaziy nerv tizimi rivojlanishidagi ayrim buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [6].

O‘tkazilgan sistematik tahlillarda homiladorlik davrida pestitsidlarga ta’sir qilish tug‘ma nuqsonlar rivojlanish xavfi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Ayniqsa nerv to‘qimalari nuqsonlari, yurak-qon tomir tizimi anomaliyalari va boshqa morfologik o‘zgarishlarning paydo bo‘lish ehtimolinibg ortishi qayd etilgan [7].

Zamonaviy tadqiqotlarda ayrim pestitsidlarning endokrin tizim faoliyatiga ta’sir etib, gormonlar sintezi va ularning biologik faolligini o‘zgartirishi aniqlangan. Bunday o‘zgarishlar

embrional rivojlanishning muhim bosqichlarida hujayra differensiallanishi va to‘qimalarning shakllanish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [8].


Ko‘plab eksperimental tadqiqotlar ham pestitsidlarning embrional rivojlanishga toksik ta’sirini tasdiqlaydi. Hayvonlar ustida olib borilgan tajribalar natijasida pestitsidlar ta’sirida embrion o‘sishining sekinlashuvi, skelet tizimida o‘zgarishlar hamda nerv tizimi rivojlanishidagi buzilishlar kuzatilgani qayd etilgan [9].

Yuqoridagi ilmiy ma’lumotlar pestitsidlarning homilador organizm va embrional rivojlanishga ta’siri murakkab biologik jarayonlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot eksperimental usulda amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida laboratoriya sharoitida parvarish qilingan oq laboratoriya kalamushlari (Wister) tanlab olindi. Tajribada fiziologik jihatdan sog‘lom, reproduktiv yoshdagi urg‘ochi kalamushlardan foydalanildi. Hayvonlar standart vivarium sharoitida saqlandi: havo harorati 22–24 °C, nisbiy namlik me’yorida, 12 soatlik yorug‘lik va 12 soatlik qorong‘ulik rejimi ta’minlandi. Kalamushlarga standart laboratoriya ozuqasi va ichimlik suvi erkin berildi. Tadqiqot davomida hayvonlar 3 ta guruhga ajratildi:

1. Nazorat guruhi – sog‘lom kalamushlar (ularga hech qanday kimyoviy modda ta’sir ettirilmadi).
2. Galoksifop R-metil guruhi (kalamushlarga galoksifop R-metil pestitsidi ta’sir ettirildi).
3. Galoksifop R-metil + narsissin (pestitsid yuborilgan hayvonlar narsissin bilan korreksiya qilindi).

Embrionlarning morfometrik tahlili. Tajriba davomida homilador kalamushlardan olingan embrionlarning morfometrik ko‘rsatkichlari ham tahlil qilindi. Embrionlarning tana uzunligi va tana massasi o‘lchandi hamda nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida taqqoslab baholandi. O‘lchovlar elektron tarozi va millimetrli o‘lchov asboblari yordamida amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Tajriba guruhlaridagi homilador kalamush embrionlarining tana uzunligining solishtirma tavsifi. (A)-nazorat; (B)-galoksifop R-metil; (C)-galoksifop R-metil va narsissin

Tadqiqotlarda ajratib olingan embrionlarning morfologik ko‘rsatkichlari nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida solishtirildi.

Nazorat guruhidagi embrionlar fiziologik me’yorlarga mos ravishda rivojlangan bo‘lib, tana shakli aniq, segmentatsiya va umumiy morfologik tuzilish normal holatda kuzatildi. Tana yuzasida patologik o‘zgarishlar aniqlanmadi. Galoksifop ta’sir ettirilgan guruhda embrionlarda sezilarli morfologik o‘zgarishlar qayd etildi. Xususan,tana shaklining notekisligi,ayrim joylarda gemorragik (qon quyilish) o‘zgarishlar, umumiy rivojlanishning sustlashuvi kuzatildi (1-rasm B).

Galoksifop + narsissin guruhi embrionlarida esa galoksifop guruhiga nisbatan tiklanish belgilari aniqlandi (1-rasm C). Embrionlarning umumiy shakli nisbatan saqlangan bo‘lsa-da, ayrim hollarda yengil patologik belgilar (lokal rang o‘zgarishlari, kichik gemorragiyalar) saqlanib qolgan.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Galoksifop pestitsidi embrional rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, narsissin esa ma’lumdarajada tiklovchi xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotning keyingi bosqichida homilador kalamushlardan olingan embrionlarning morfometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Embrionlarning tana uzunligi va tana massasi nazorat va tajriba guruhlarida taqqoslab o‘rganildi (1-jadval).

Tajriba guruhi embrionlarning morfometrik ko‘rsatkichlari

Guruh nomi	Embrion uzunligi(mm)	Izoh
Nazorat guruhi (A)	**18**	**Fiziologik norma**
Galoksifop R-metil guruhi (B)	**17**	**Rivojlanish susaygan**
Galoksifop+Narsizin guruhi (C)	**16**	**Qisman himoya, lekin to‘liq tiklanmagan**

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, pestitsid ta’sirida rivojlangan embrionlarda tana uzunligi nazorat guruhiga nisbatan kamaygan. Flavonoidlar bilan davolangan embrionlarda galoksifop ta'sirida yuzaga kelgan tana uzunligining qisqarishi sezilarli darajada kamayadi, ya'ni normal rivojlanish tiklanadi.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida pestitsidlarning biologik tizimlarga sezilarli darajada toksik ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Shuningdek, homilador kalamushlardan olingan embrionlarning morfometrik ko‘rsatkichlari tahlili pestitsid ta’sirida embrionlarning tana uzunligi kamayishini ko‘rsatdi. Bu esa pestitsidlarning embrional rivojlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tasdiqlaydi. Narsissin flavonoidi esa ushbu ta’sirni samarali tiklash xususiyatiga ega

Olingan natijalar pestitsidlarning reproduktiv toksikologik ta’sirini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari pestitsidlardan foydalanishda ekologik va biologik xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Linping Wang, Xiaochen Ma, Jing Liu Adverse Effects of Pesticides on the Ovary: Evidence from Epidemiological and Toxicological Studies” *Environment & Health* –2025. –V.3(6). –P. 575–595.

2. Yubing Ma, Ruixin Zhang, Yihui Wu, Xinning Chen, Ziyuan Qi, Daniel Schlenk, Zhaoxia Liang, Jing Liu “ Prenatal Insecticide Exposure and Adverse Birth Outcomes: Evidence for Mediation via Disruptions in Amino Acid and Acylcarnitine Metabolism” Environmental Sciences& Technology 2025, 59, 43, 23216-23228.

3. Karoline Felisbino, Shayane da Silva Milhorini, Nathalia Kirsten, Karina Bernert, Rafaela Schiessl, Izonete Cristina Guiloski “ Exposure to pecticides during pregnancy and the risk of neural tube defects: A systematic review” National Library of Medicine 2024

4. Kim K.H., Kabir E., Jahan S. Exposure to pesticides and human health effects. Science of the Total Environment.

5. Liu P. et al. Prenatal pesticide exposure and birth outcomes. Environmental Research.

6. Lesseur C. et al. Effects of prenatal pesticide exposure on fetal brain and placenta transcriptomes. Toxicology.

7. Felisbino-Mendes M. et al. Exposure to pesticides during pregnancy and risk of neural tube defects. Science of the Total Environment.

8. Mnif W. et al. Effect of endocrine disruptor pesticides on human health. International Journal of Environmental Research and Public Health.

9. Damalas C.A., Koutroubas S.D. Farmers’ exposure to pesticides: toxicity types and health effects. Toxicology Reports.https://doi.org/10.1016/j.toxrep.2016.02.004

UO’K 581.14(575.1)

ASTRAGALUS NURATENSIS ONTOGENEZI

Sh.O. Doniyorova, tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Maqolada Nurota tog‘larining kamyob va endem turi A. nuratensis ning ontogenez jarayonidagi yosh davrlari bo‘yicha xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida turning latent, yuvenil, immatur, virginil, generativ, senil bosqichlaridagi morfologik hamda biometrik ko‘rsatkichlari tavsiflanib, har bir ontogenetik bosqichda kuzatiladigan struktura va shakl*

o'zgarishlari aniqlangan. Olingan ilmiy natijalar kamyob tur populyatsiyalarini muhofaza qilish va sun'iy ko'paytirish usullarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Nurota, Astragalus nuratensis, ontogenez, endem tur.*

Аннотация. *В статье проанализированы особенности возрастных периодов в процессе онтогенеза редкого и эндемичного вида Нуратинских гор — A. nuratensis. В ходе исследования охарактеризованы морфологические и биометрические показатели вида на латентной, ювенильной, имматурной, виргинильной, генеративной и сенильной стадиях, а также выявлены structural-формационные изменения, наблюдаемые на каждом онтогенетическом этапе. Полученные научные результаты служат основой для разработки методов охраны и искусственного размножения популяций этого редкого вида.*

Ключевые слова: *Нурата, Astragalus nuratensis, онтогенез, эндемичный вид.*

Abstract. *The article analyzes the age-stage characteristics during the ontogenesis of A. nuratensis, a rare and endemic species of the Nurata Mountains. During the research, the morphological and biometric parameters of the species at the latent, juvenile, immature, virginile, generative, and senile stages were described, and structural and form changes observed at each ontogenetic stage were identified. The scientific results obtained serve as a basis for protecting populations of this rare species and developing methods for its artificial propagation.*

Keywords: *Nurata, Astragalus nuratensis, ontogenesis, endemic species.*

Kirish. *A.nuratensis* – ko'p yillik o'simlik. Oqtov tizmasining kamyob, tor stenotip endemigi hisoblanadi. Tog'larning quyi va o'rta mintaqalarida, toshli va qoyali yonbag'irlarida, quruq daryo o'zanlarida o'sadi. O'zbekiston Qizil kitobiga 1-maqom ostida kiritilgan. Juda kam sonda, yakka tartibda yoki kichik guruhlar shaklida uchraydi. Tur bo'yicha ma'lum bo'lgan populyatsiyalarning aksariyati Navoiy viloyati hududida tarqalgan. Asosan konchilik ishlari va chorva mollarini o'tlatish turning populyatsiyalariga xavf tug'diradi [1].

Ontogenetik rivojlanish integratsion jarayon sifatida, o'simlik organizmi irsiy dasturini amalga oshirishda muhim o'ringa ega bo'lib, bu jarayon vegetativ va generativ ontogenezni, ya'ni strukturaviy tuzilishning o'zgarishi, organlar, tizimlarning hosil bo'lishi va rivojlanishini ta'minlaydi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. *A. nuratensis* ning ontogenezini o'rganishda gerbariy namunalari Oqtov tizmasining shimoliy ekspozitsiyasida Chuya qishlog'i yaqinida qurigan Ambarsoy bo'yida dag'al toshli tuproqlarda o'suvchi shuvoqli- bodomzor jamoasidan olib kelindi. Turning ontogenez davrlari hamda yosh tarkibini aniqlashda L.A. Jukova tomonidan taklif qilingan metodlardan foydalanildi [3].

Natijalar va muhokama.

Latent davr. *Astragalus nuratensis* iyun oyida gullab, dukkak mevasi iyul oyida pishib yetiladi. Mevasining uzunligi 10-20 mm, o'tkir uchli, siyrak, uzun, hurpaygan tukli, ikki uyali. Urug'lari quloqsimon, siqilgan, uzunligi 5 mm, sirti silliq, to'q jigarrang.

Virginil davr. Maysa bosqichi. Bu bosqichda ikkita tuxumsimon bargli maysa hosil bo'lib, gipokotil va ildizchadan iborat bo'ladi. Bir haftalik maysa uzunligi 2-2,5 sm, yigirma kunlik maysa gipokotilining uzunligi 4-6,5 sm, ildizchasining uzunligi esa 4-5 sm ni tashkil qiladi. Urug'pallabarg uzunligi 1-1,3 sm, eni esa 0,4-0,6 sm etib qayd qilindi.

Yuvenil bosqich. O'simlik sodda tuzilishli bo'lib, ayrim embrional tuzilma elementlarini saqlaydi. Yetilgan o'simlikka xos belgi hamda xususiyatlar shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Yuvenil tuplar yakka poyaga ega bo'lib, 2-3 ta bargchali tor, teskari tuxumsimon barglar shakllanadi. O'simlik bu bosqichda haqiqiy chin barglar hosil qiladi. Asosiy ildiz oqimtir rangda bo'lib, deyarli qalinlashmaydi. Asosiy ildiz yon ildizlar chiqaradi.

Immatur bosqich. O'simlikning asosiy poyasida yetuk o'simlikka xos morfologik o'zgarishlar, ya'ni shoxlanish paydo bo'la boshlaydi. Poyada III tartib shoxlanish kuzatiladi. Asosiy ildiz bo'g'zi diametri biroz qalinlashadi. M.V. Baranova (1999) ta'kidlaganidek, bu davr o'simlik hayotining muhim davri bo'lib, o'simlikning barqaror o'sish va rivojlanishiga tayyorgarlik ko'radi [4].

Virginil bosqich. Ushbu bosqichda muayyan hayot formasiga ega bo‘lgan belgilar paydo bo‘ladi. O‘simlik yetuk barg, poya va ildiz tizimiga ega. Bu bosqichdagi o‘simlik 5-6 ta vegetativ poyachalardan iborat bo‘ladi. O‘simlik bargi voyaga yetgan o‘simlikning bargiga o‘xshash, immatur bosqichdagi barglardan o‘lchami jihatidan yirik bo‘ladi.



1- rasm. Virginil yoshli o‘simlik

Bargchalarining o‘lchami esa 5,12±0,3x7,5±1,2 mm ni tashkil qiladi. O‘simlik yer ustki qismining balandligi 6,08±0,7 smni tashkil etadi (1-rasm).

Yosh generativ o‘simliklar. Yosh generativ bosqich o‘simlikda generativ funksiya shakllanishi, ildiz va poya tizimlarining kuchli rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda o‘simlik meva beradi va keyingi rivojlanish uchun tayyorlanadi. Yosh generativ bosqichda vegetativ novdalar o‘sishi sekinlashib, generativ novdalar shakllana boshlaydi.

Qulay ob-havo sharoitida o‘simlikning o‘rtacha balandligi (2024-yil) 8,11±0,9 sm, tup diametri 0,83±0,06 sm, ildiz bo‘g‘zi diametri esa 0,54±0,11 sm ni tashkil etadi. Generativ novda uzunligi 1,97±0,36 sm, vegetativ novda uzunligi esa o‘rtacha 3,4±0,33 sm ekanligi aniqlandi. O‘simlik ildizi 16-20 sm yer ostiga qadar o‘sib kiradi. Vegetativ novdalarda barglar novdaning yuqori tomonida joylashgan bo‘lib, barglarining uzunligi 5,82±0,61 sm, bargchalarining o‘lchami esa 7,29±1,12x7,4±0,9 mm ni tashkil qiladi.

1-jadval

***A. nuratensis* ning generativ davridagi morfologik belgilari**

Yosh bosqichi	O‘simlikning balandligi, sm	Tupning diametri, sm	Ildiz bo‘g‘zi diametri, sm
Yosh generativ o‘simlik	8,11±0,9	0,83±0,06	0,54±0,11
O‘rta yoshli generativ o‘simlik	24,5±1,67	1,73±0,13	1,25±0,07
Qari yoshli generativ o‘simlik	16,8 ± 2,13	1,4 ± 0,22	1,31 ± 0,68

Bir tup yosh generativ o‘simlikda generativ novdalar soni 3-5 tani tashkil qiladi.

O‘rta yoshli generativ o‘simlik. Yog‘ingarchilik qulay kelgan yillari (2024-yil) o‘simlik yer ustki qismining balandligi 24,5±1,67 sm gacha o‘sishi kuzatildi (1-jadval). Tup diametri o‘rtacha 1,73±0,13 sm, ildiz bo‘g‘zining diametri 1,25±0,07 sm ni tashkil qiladi. Yillik ixtisoslashgan generativ novdalar uzunligi o‘rtacha 6,27±2,54 sm, vegetativ novdalar uzunligi esa 3,3 sm dan 9,5 sm gacha yetishi kuzatildi. Bunday yoshli generativ o‘simliklarda vegetativ novdalarning soni 20-35 tagacha yetishi aniqlandi. O‘simlik ildizi 25 sm gacha yetishi qayd etildi. O‘rta yoshli generativ o‘simliklarda novdalarning shoxlanishi 14-15-tartibgacha shoxlanishda davom etadi. Generativ novdalar 9-12 bo‘g‘imi oralig‘idagi kurtaklardan hosil bo‘ladi. Gullarining uzunligi 2,71±0,21 sm, gulkosachabarglarining uzunligi 12,04±0,05 mm, gulband uzunligi 3,73±0,6 mm ni

tashkil etadi. Barglar uzunligi 9,94±2,91 sm, eni esa 1,85±0,31 sm. Bargchalarining o‘lchami 0,86±0,12x0,81±0,11 sm ekanligi aniqlandi (2-rasmga).



2-rasm. O‘rta generativ o‘simlikning g‘unchalash bosqichi

Bir tup o‘simlikda 5-16 ta atrofida generativ novdalar hosil bo‘ladi.

Qari yoshli generativ o‘simlik. Kaudeks markaziy qismi yemirila boshlaydi. Qari yoshli generativ o‘simliklar reproduktiv funksiyasining sezilarli passivlashishi bilan izohlanadi. Tup diametri o‘rtacha 1,4±0,22 sm, ildiz bo‘g‘zi diametri esa 1,31±0,68 sm ni tashkil qiladi. O‘simlik yer ustki qismining balandligi 16,8±2,13 sm ni tashkil qiladi.

Generativ novdalarning soni o‘rta yoshli generativ bosqichga nisbatan 2-3 tagacha kamayadi. Qari yoshli generativ o‘simlikda ildiz bo‘g‘zi yo‘g‘onlashib, novdalarning umumiy soni o‘rta yoshli generativ bosqichga nisbatan qisqaradi.

Senil yoshli o‘simlik. Qarishning asosiy belgilaridan biri, gullash jarayonining batamom to‘xtashi hisoblanadi. Bu davrda generativ novdalar yo‘qoladi. O‘simlik yer ustki qismining balandligi 8-10 sm gacha pasayadi. O‘simlik yer ustki qismi yuvenil va immatur bosqichlardagi barglarga morfologik jihatdan o‘xshaydi. Ildiz tizimidagi markaziy ildiz yemiriladi. O‘simlik yer ustki qismining balandligi 10-12 smni tashkil etadi.

Xulosa. *A. nuratensis* ning latent davridan senil davrigacha bo‘lgan rivojlanishida vegetativ va generativ organlarning ketma-ket shakllanishi namoyon bo‘ladi. Ontogenez davomida yuvenil va immatur bosqichlarda o‘simlikning asosan vegetativ massani to‘plashi, virginil bosqichda muayyan hayot formasiga ega bo‘lgan belgilar paydo bo‘lishi va generativ bosqichda gullash hamda meva tugish funksiyalarining amalga oshishi, senil davrda esa gullash jarayonining batamom to‘xtashi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Тожибаев К. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. Тожибаев К. Ш., Бешко Н. Ю., Кодиров У. Х., Батошов А. Р., Мирзалиева Д. У. – Ташкент: Издательство. «FAN» АН РУз., 2018. – 220 с.

2. Бондарчук О.П., Рахметов Д.Б. Онтоморфогенез рослин видів роду *Astragalus* L. За інтродукції в правобережному лісостепу України. ISSN 1605-6574. Інтродукція рослин, 2016. № 2. – С. 45-51.

3. Онтогенетический атлас растений: научное издание. Том V. -Йошкар-Ола: МарГУ, 2007. –С. 372.

4. Баранова М.В. Морфогенез растений. – М.: Наука, 1999. – 236 с.

UO'K: 616.441-006:575.174.015.3:577.21

GRAVES KASALLIGIDA JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550 VA IFNG rs2430561 GEN POLIMORFIZMLARINING MOLEKULYAR-GENETIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KASALLIKKA MOYILLIKDAGI O'RNI

G.A.Dushanova, dots., Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand
D.B.Maxammadiyeva, magistrant, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda Graves kasalligi bemorlarda JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550 va IFNG rs2430561 gen polimorfizmlarining kasallikka genetik moyillik hamda klinik og'irlik darajasi bilan bog'liqligi o'rganildi. Genotiplash allel-spetsifik polimeraza zanjir reaksiyasi va restriksiya fragmentlari uzunligi polimorfizmi usullari yordamida amalga oshirildi. Natijalar STAT1 rs1547550 va IFNG rs2430561 polimorfizmlarining Graves kasalligi bilan statistik jihatdan ishonchli assotsiatsiyaga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, STAT1 genining G alleli hamda IFNG genining A alleli kasallik rivojlanish xavfi bilan bog'liq, C va T allellari protektiv ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. JAK2 rs1887428 polimorfizmi bo'yicha faqat chegaraviy assotsiatsiya aniqlandi. Shuningdek, STAT1 GG, IFNG AA va JAK2 AA genotiplari kasallikning og'ir klinik shakllari bilan bog'liqligi qayd etildi. Olingan natijalar ushbu gen polimorfizmlarining Graves kasalligiga genetik moyillikni baholashda istiqbolli molekulyar-genetik markerlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Graves kasalligi, JAK2, STAT1, IFNG, rs1887428, rs1547550, rs2430561, gen polimorfizmi, SNP, JAK-STAT signal yo'li, molekulyar genetika, autoimmun kasallik.*

Аннотация. *В настоящем исследовании изучена связь полиморфизмов генов JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550 и IFNG rs2430561 с генетической предрасположенностью и клинической тяжестью болезни Грейвса. Генотипирование проводилось методом аллель-специфической полимеразной цепной реакции и анализа полиморфизма длины рестрикционных фрагментов. Полученные результаты показали статистически значимую ассоциацию полиморфизмов STAT1 rs1547550 и IFNG rs2430561 с болезнью Грейвса. В частности, аллель G гена STAT1 и аллель A гена IFNG были связаны с повышенным риском развития заболевания, тогда как аллель C гена STAT1 и аллель T гена IFNG проявляли защитный эффект. Для полиморфизма JAK2 rs1887428 выявлена лишь пограничная ассоциация с заболеванием. Кроме того, генотипы STAT1 GG, IFNG AA и JAK2 AA были ассоциированы с более тяжёлым клиническим течением болезни Грейвса. Полученные результаты свидетельствуют о том, что исследованные полиморфизмы могут рассматриваться как перспективные молекулярно-генетические маркеры для оценки генетической предрасположенности к болезни Грейвса.*

Ключевые слова: *болезнь Грейвса, JAK2, STAT1, IFNG, rs1887428, rs1547550, rs2430561, полиморфизм генов, SNP, сигнальный путь JAK-STAT, молекулярная генетика, аутоиммунные заболевания.*

Abstract. *This study investigated the association of JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550, and IFNG rs2430561 gene polymorphisms with genetic susceptibility and clinical severity of Graves' disease. Genotyping was performed using allele-specific polymerase chain reaction (AS-PCR) and restriction fragment length polymorphism (RFLP) analysis. The results demonstrated statistically significant associations between STAT1 rs1547550 and IFNG rs2430561 polymorphisms and Graves' disease. Specifically, the G allele of the STAT1 gene and the A allele of the IFNG gene were associated with an increased risk of disease development, whereas the C allele of STAT1 and the T allele of IFNG exhibited protective effects. Only a borderline association was observed for the JAK2 rs1887428 polymorphism. Furthermore, the STAT1 GG, IFNG AA, and JAK2 AA genotypes were associated with more severe clinical manifestations of Graves' disease. These findings suggest that the investigated gene polymorphisms may serve as promising molecular genetic markers for assessing genetic susceptibility to Graves' disease.*

Key words: *Graves' disease, JAK2, STAT1, IFNG, rs1887428, rs1547550, rs2430561, gene polymorphism, single nucleotide polymorphism (SNP), JAK-STAT signaling pathway, molecular genetics, autoimmune diseases.*

Graves kasalligi qalqonsimon bezning eng ko‘p uchraydigan autoimmun kasalligi bo‘lib, tireotrop gormon retseptoriga TSHR qarshi stimullovchi autoantitanalar TRAb hosil bo‘lishi natijasida rivojlanadigan diffuz toksik buqoq va gipertireoz sindromi bilan tavsiflanadi [12]. Kasallik endokrin tizim patologiyalari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi, gipertireozning eng asosiy sababi sifatida e’tirof etiladi. Epidemiologik ma’lumotlarga ko‘ra, Graves kasalligi ayollarda erkaklarga nisbatan 5-10 baravar ko‘proq uchraydi va kasallik patogenezining asosini immun tolerantlik mexanizmlarining buzilishi tashkil etadi [10]. Natijada TSH retseptorlariga qarshi hosil bo‘lgan autoantitanalar qalqonsimon bez follikulyar hujayralarini uzluksiz stimulyatsiya qilib, tireoksin T4 va triyodtironin T_3 gormonlarining ortiqcha sintezi va sekretsiyasiga olib keladi. Tireoid gormonlarining qondagi yuqori konsentratsiyasi gipofiz bezida TSH sekretsiyasini susaytiradi hamda gipotalamo-gipofizar-tireoid tizimning fiziologik muvozanatini buzadi [8].

So‘nggi yillarda molekulyar genetika sohasidagi tadqiqotlar Graves kasalligining multifaktorial tabiatga ega ekanligini tasdiqladi. Kasallik rivojlanishida irsiy moyillik, atrof-muhit omillari, virus va bakterial infeksiyalar, yod almashinuvining o‘zgarishi, chekish, stress hamda epigenetik modifikatsiyalar o‘zaro murakkab ta’sir ko‘rsatadi. Egizaklar va oilaviy tadqiqotlar Graves kasalligiga genetik moyillikning ulushi 70-80 % gacha yetishini ko‘rsatgan, kasallik rivojlanishida genetik omillarning muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi [12]. Autoimmun kasalliklarning molekulyar mexanizmlarini o‘rganishda immun javobni boshqaruvchi genlardagi bir nukleotidli polimorfizmlar Single Nucleotide Polymorphisms alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda [2]. Ushbu polimorfizmlar gen ekspressiyasi, oqsil funksiyasi hamda hujayra ichki signal uzatish yo‘llariga ta’sir ko‘rsatishi natijasida immun tizimining individual reaktivligini belgilaydi. Natijada ayrim shaxslarda autoimmun reaksiyalar rivojlanishiga genetik moyillik ortadi. Ayniqsa, sitokinlar va ularning retseptorlari, shuningdek JAK-STAT, NF-κB va MAPK signal uzatish yo‘llarida ishtirok etuvchi genlarning polimorf variantlari autoimmun kasalliklar patogenezida muhim o‘rin egallaydi [3, 4]. Hozirgi kunda JAK-STAT signal uzatish tizimi immun javobni boshqaruvchi eng muhim molekulyar mexanizmlardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur signal yo‘li sitokinlar, interferonlar va o‘sish omillari ta’sirida faollashib, immun hujayralarning proliferatsiyasi, differensiyalanishi, migratsiyasi hamda effektor funksiyalarini boshqaradi. Ushbu tizim faoliyatidagi buzilishlar yallig‘lanish jarayonlarining surunkalashuvi, immun tolerantlikning yo‘qolishi va autoreaktiv limfotsitlarning faollashuviga olib kelishi mumkin.

Graves kasalligining genetik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarda HLA, CTLA4, PTPN22, CD40 va TSHR genlarining kasallik bilan bog‘liqligi isbotlangan [5]. Biroq JAK-STAT signal yo‘lining asosiy komponentlari hisoblangan JAK2, STAT1 va IFNG genlaridagi polimorfizmlarning Graves kasalligiga moyillik hamda kasallikning klinik og‘irlik darajasi bilan bog‘liqligi to‘liq o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550 va IFNG rs2430561 gen polimorfizmlarining Graves kasalligiga genetik moyillik hamda kasallikning klinik og‘irlik darajasi bilan assotsiatsiyasini baholashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotlar 2020-2024-yillar davomida akademik Yahyo To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialining Tireoid patologiyasi bo‘limida statsionar davolangan Graves kasalligi tashxisi qo‘yilgan bemorlar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotlar Xelsinki deklaratsiyasining etika tamoyillariga muvofiq olib borildi va barcha ishtirokchilardan tadqiqotda ishtirok etish uchun yozma ravishda rozilik olindi.

Tadqiqotlarga jami n=87 nafar Graves kasalligi bilan kasallangan bemorlar jalb qilindi. Ularning n=66 (75,9%) nafari ayollar va n=21 (24,1%) nafari erkaklarni tashkil etdi. Ishtirokchilarning yoshi 15-67 yil oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha yosh 37,1±2,64 yilni tashkil etdi. Kasallikning eng erta klinik namoyon bo‘lishi 15 yoshda kuzatildi. Graves kasalligi tashxisi bemorlarning shikoyatlari, anamnez ma’lumotlari, klinik tekshiruv, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalari asosida qo‘yildi. Diagnostik mezon sifatida Rossiya Endokrinologlar Assotsiatsiyasining 2021-yilda tasdiqlangan klinik tavsiyalaridan foydalanildi.

Kasallikning klinik og‘irlik darajasi bo‘yicha bemorlar uch guruhga ajratildi. 0-daraja (yengil shakl) guruhiga n=23 nafar bemor (ayollar - n=17, erkaklar - n=6), 1-daraja (o‘rtacha og‘irlikdagi shakl) guruhiga n=48 nafar bemor (ayollar - n=37, erkaklar - n=11), 2-daraja (og‘ir shakl) guruhiga n=16 nafar bemor (ayollar - n=12, erkaklar - n=4) kiritildi. Tadqiqot ishtirokchilarining asosiy qismini 1-darajali Graves kasalligi bilan kasallangan bemorlar (n=48; 55,2%) tashkil etdi.

Molekulyar-genetik tahlillar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi institutining Hujayraviy terapiya laboratoriyasida bajarildi. Tadqiqot doirasida JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550 va IFNG rs2430561 bir nukleotidli polimorfizmlarining genotiplanishi allel-spetsifik polimeraza zanjir reaksiyasi va restriksiya fragmentlari uzunligi polimorfizmi (AS-PCR/RFLP) usullari yordamida amalga oshirildi.

Tanlangan genetik markerlar immun javobni boshqarishda ishtirok etuvchi funksional ahamiyatga ega hududlarda joylashgan. Jumladan, JAK2 rs1887428 va STAT1 rs1547550 polimorfizmlari genlarning intron hududida, IFNG rs2430561 (T+874A) polimorfizmi promotor mintaqasida joylashgan bo‘lib, gen ekspressiyasini modulyatsiya qiluvchi funksional variant sifatida qaraladi.

Molekulyar- genetic tahlillar uchun DNK ni ajratishda har bir ishtirokchidan 2 ml periferik qon EDTA saqlovchi vakuumli probirkalarga yig‘ildi. DNK ekstraksiyasi DNA-Sorb-B (NPF *AmpliSens*, Rossiya) to‘plami yordamida ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga muvofiq bajarildi. Ajratib olingan DNKning sifati va konsentratsiyasi NanoDrop 2000 (Thermo Fisher Scientific, AQSh) spektrofotometri yordamida baholandi. A260/A280 ≥1,8 bo‘lgan namunalar keyingi molekulyar-genetik tahlillar uchun yaroqli deb hisoblandi. Polimeraza zanjir reaksiyasi quyidagi sharoitlarda o‘tkazildi: dastlabki denaturatsiya 95°C da 5 daqiqa, so‘ng 35 sikl davomida 95°C da 30 soniya, 58°C da 30 soniya va 72°C da 30 soniya, yakuniy elongatsiya 72°C da 5 daqiqa davomida amalga oshirildi. Reaksiyaning umumiy hajmi 25 µl bo‘lib, uning tarkibiga 12,5 µl DreamTaq Green PCR Master Mix (Thermo Fisher Scientific, AQSh), har bir praymerdan 1 µl (10 pmol/µl), 2 µl, DNK (50-100 ng) va 8,5 µl deionirlangan suv qo’shildi. Quyidagi oligonukleotid praymerlardan foydalanildi [13]:

JAK2 rs1887428: Forward 5′-TGGTGAGATTCAGGAAGATGGC-3′; Reverse 5′-GGTCTTCTTGGTTCTGTTGTCC-3′. STAT1 rs1547550: Forward 5′-CTTTGTCCTTGGGAGCTCTG-3′; Reverse 5′-AGCAGAGGACAGGTGAGGT-3′. IFNG rs2430561: Forward 5′-TCAACAAGCCTCAGTGGATGA-3′; Reverse 5′-TGGGATGCTCTGGTCATATTG-3′.

Mazkur oligonukleotid praymerlar Integrated DNA Technologies (IDT, AQSh) kompaniyasi tomonidan sintez qilindi. Genetik-assotsiativ tahlillar Arlequin 3.5.2.2 va SISA (Simple Interactive Statistical Analysis) dasturiy paketlari yordamida bajarildi. Allel va genotip chastotalari hisoblanib, Hardy-Weinberg muvozanati tekshirildi. Genetik assotsiatsiya odds ratio (OR) va 95% ishonch oralig‘i (95% CI) yordamida baholandi. Statistik tahlillar IBM SPSS Statistics dasturida amalga oshirildi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlarni baholashda Pearson χ^2 testi va zarur hollarda bir omilli dispersiya tahlili (ANOVA) qo‘llanildi. Barcha statistik tahlillar $p<0,05$ qiymati statistik jihatdan ishonchli deb qabul qilindi.

Olingan natijalar tahlili. 1-jadvalda Graves kasalligi bilan kasallangan bemorlar va sog‘lom nazorat guruhida **JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550**, **IFNG rs2430561** polimorfizmlarining allel va genotip chastotalari keltirilgan.

1-jadval

Graves kasalligida JAK2 rs1887428, STAT1 rs1547550, IFNG rs2430561 polimorfizmining allellar va genotiplar taqsimlanish xususiyatlari

Polimorfizm	Bemorlar guruhi n=87	Sog’lom shaxslar n=65	χ^2/p	OR (CI)
G	122/70,11%	104/80%	3.95 p=0.0468	0,59(034-1,011)
C	52/29,89%	26/20%		
rs1887428 GG	45/51,72%	43/66,15%		
rs1887428 GC	32/36,78%	18/27,69%	2,09 p=0,148	0.59(0.289-1.203)
rs1887428 CC	10/11,49%	4/6,15%	1.99 p=0.158	0.42(0.122-1.441)

STAT1 **rs1547550**				
C	130/74.71%	115/88.46%	8.61 P=0.0033	0.385(0.203-0.728)
G	44/25.29%	15/11.54%		
rs1547550 CC	49/56.32%	50/76.92%		
rs1547550 CG	32/36.78%	15/23.08%	4.35 P=0.037	0.459(0.221-0.951)
rs1547550 GG	6/6.90%	0	5.94 P=0.0148	0(0.004-1.374)
IFNG **rs2430561**				
T	120/174- 68.97%	112/130- 86.15%	12.54 p=0.00039	0.357(0.197-0.645)
A	54/174- 31.03%	18/130- 13.85%		
rs2430561 TT	50/87- 57.47%	50/65- 76.92%		
rs2430561 TA	20/87-22.99%	12/65- 18.46%	8.79 p=0.0123	1.67(0.738-3.776)
rs2430561 AA	17/87-19.54%	3/65- 4.62%		5.67(1.563-20.569)

Izoh: *χ^2- Pirson bo'yicha ishonchlilik ko'rsatkichi; OR- nisbiy xavf ko'rsatkichi*

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, JAK2 geni rs1887428 polimorfizmining allel tahliliga ko'ra, G alleli Graves kasalligi bilan kasallangan bemorlarda 70,11% (122/174), nazorat guruhida 80,00% (104/130) ni tashkil etdi. Aksincha, C alleli bemorlarda 29,89% (52/174) va nazorat guruhida 20,00% (26/130) qayd etildi. Allellar taqsimoti bo'yicha guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan chegaraviy ahamiyatga ega bo'ldi (χ^2=3,95; p=0,0468). OR=0,59 (95% CI: 0,344-1,011) bo'lganligi sababli G alleli Graves kasalligiga nisbatan potensial protektiv ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq ishonch oralig'i 1 qiymatini o'z ichiga olganligi sababli ushbu assotsiatsiya statistik jihatdan to'liq tasdiqlanmadi.

Genotiplar tahlilida GG genotipi bemorlar guruhida 51,72% (45/87), nazorat guruhida 66,15% (43/65) ni tashkil etdi. GC genotipi mos ravishda 36,78% (32/87) va 27,69% (18/65), CC genotipi 11,49% (10/87) va 6,15% (4/65) da aniqlandi. GC genotipi bo'yicha χ^2=2,09; p=0,148; OR=0,59 (95% CI: 0,289-1,203), CC genotipi bo'yicha χ^2=1,99; p=0,158; OR=0,42 (95% CI: 0,122-1,441) qayd etildi. Har ikkala holatda ham ishonch oralig'i 1 qiymatini o'z ichiga olganligi sababli, rs1887428 polimorfizmi bo'yicha genotiplar Graves kasalligi bilan statistik jihatdan ishonchli assotsiatsiyani namoyon etmadi. STAT1 geni rs1547550 polimorfizmining allel tahliliga ko'ra, C alleli bemorlar guruhida 74,71% (130/174), nazorat guruhida 88,46% (115/130) ni tashkil etdi. G alleli mos ravishda 25,29% (44/174) va 11,54% (15/130) qayd etildi. Allellar taqsimoti bo'yicha kuzatilgan farq statistik jihatdan ishonchli bo'ldi (χ^2=8,61; p=0,0033). OR=0,385 (95% CI: 0,203-0,728) bo'lganligi sababli C alleli Graves kasalligiga nisbatan protektiv allel sifatida baholandi, G alleli kasallikka moyillik bilan bog'liq variant sifatida ko'rildi.

Genotiplar tahlilida CC genotipi bemorlar guruhida 56,32% (49/87) va nazorat guruhida 76,92% (50/65) ni tashkil etdi. CG genotipi mos ravishda 36,78% (32/87) va 23,08% (15/65), GG genotipi bemorlarda 6,90% (6/87) aniqlanib, nazorat guruhida uchramadi. CG genotipi Graves kasalligi bilan statistik jihatdan ahamiyatli assotsiatsiya ko'rsatdi (χ^2=4,35; p=0,037; OR=0,459; 95% CI: 0,221-0,951). OR qiymatining 1 dan kichik bo'lishi ushbu genotipning kasallikka nisbatan potensial protektiv ta'sirga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. GG genotipi nazorat guruhida kuzatilmaganligi sababli, ushbu genotip bo'yicha assotsiatsiya Haldane-Anscombe tuzatmasi yordamida baholandi (χ^2=5,94; p=0,0148). IFNG geni rs2430561 polimorfizmi bo'yicha allel tahlilida T alleli bemorlarda 68,97% (120/174), nazorat guruhida 86,15% (112/130) ni tashkil etdi. A alleli mos ravishda 31,03% (54/174) va 13,85% (18/130) qayd etildi. Allellar taqsimoti o'rtasidagi farq statistik jihatdan yuqori ishonchlilikka ega bo'ldi (χ^2=12,54; p=0,00039). OR=0,357 (95% CI: 0,197-0,645) bo'lganligi sababli T alleli protektiv allel, A alleli Graves kasalligi uchun xavf alleli sifatida baholandi. Genotiplar tahlilida TT genotipi bemorlar guruhida 57,47% (50/87) va nazorat guruhida 76,92% (50/65) ni tashkil etdi. TA genotipi 22,99% (20/87) va 18,46% (12/65), AA genotipi 19,54% (17/87) va 4,62% (3/65) qayd etildi. TA genotipi bo'yicha χ^2=8,79; p=0,0123; OR=1,67 (95% CI: 0,738-3,776) aniqlangan bo'lib, ishonch oralig'i 1 qiymatini o'z ichiga olganligi sababli ushbu genotipning Graves kasalligi bilan assotsiatsiyasi statistik jihatdan ishonchli deb baholanmadi. AA

genotipi bemorlar guruhida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori uchradi (19,54% va 4,62%). OR=5,67 (95% CI: 1,563-20,569) bo'lishi ushbu genotipga ega shaxslarda Graves kasalligini rivojlantirish ehtimoli bir necha baravar yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli IFNG rs2430561 polimorfizmining AA genotipi Graves kasalligi uchun muhim genetik xavf markeri sifatida baholanishi mumkin.

2-jadval

Genotiplarning Greyvs kasalligi darajasiga ko'ra taqsimlanishi


Gen polimorfizmi	genotiplar	0 daraja	1 daraja	2 daraja	umumiy
STAT1 rs1547550	CC	21 (42.9%)	24 (49.0%)	4 (8.2%)	49 (100%)
	CG	18 (56.3%)	8 (25.0%)	6 (18.8%)	32 (100%)
	GG	-	-	6 (100%)	6 (100%)
IFNG rs2430561	TT	11 (22.0%)	27 (54.0%)	12 (24.0%)	50 (100%)
	TA	3 (15.0%)	3 (15.0%)	14 (70.0%)	20 (100%)
	AA	3 (17.6%)	3 (17.6%)	11 (64.7%)	17 (100%)
JAK2 rs1887428	GG	31 (68.9%)	12 (26.7%)	2 (4.4%)	45 (100%)
	GA	10 (32.3%)	19 (61.3%)	2 (6.5%)	31 (100%)
	AA	3 (30.0%)	3 (30.0%)	4 (40.0%)	10 (100%)

Izoh: *0 daraja - yengil, 1 daraja- o'rtacha, 2 daraja- og'ir kechuvchi Greyvs kasalligi shakllarini bildiradi. Foizlar har bir genotip ichidagi taqsimotni ko'rsatadi.*

2-jadvalda STAT1 rs1547550, IFNG rs2430561 va JAK2 rs1887428 genlari polimorfizmlarining genotiplari Graves kasalligining klinik og'irlik darajalari (0-daraja - yengil, 1-daraja - o'rtacha va 2-daraja - og'ir kechuvchi shakllar) bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan. Tahlil natijalari ushbu genetik variantlarning nafaqat kasallikka moyillik, balki uning klinik kechish og'irligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [6, 7]. STAT1 rs1547550 polimorfizmi bo'yicha CC genotipi aniqlangan n=49 nafar bemorning n=21 tasi (42,9%) 0-darajali, n=24 tasi (49,0%) 1-darajali va faqat n=4 tasi (8,2%) 2-darajali Graves kasalligiga mansub bo'lgan. Ushbu natijalar CC genotipi asosan yengil va o'rtacha og'irlikdagi klinik shakllarda uchrashini hamda kasallikning og'ir kechishi bilan kamroq bog'liqligini ko'rsatadi. CG genotipi kuzatilgan n=32 nafar bemorning n=18 tasi (56,3%) 0-darajali, n=8 tasi (25,0%) 1-darajali va n=6 tasi (18,8%) 2-darajali guruhga to'g'ri kelgan. Mazkur genotip yengil shakllarda ko'proq uchragan va og'ir klinik holatlarda ma'lum ulushni tashkil etganligi uning o'rtacha xavf omili bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. GG genotipi aniqlangan barcha n=6 (100%) bemorlar 2-darajali Graves kasalligiga mansub bo'lib, ushbu genotipning kasallikning og'ir kechishi bilan kuchli bog'liqligini ko'rsatadi.

IFNG rs2430561 polimorfizmi bo'yicha TT genotipi aniqlangan n=50 nafar bemorning n=11 tasi (22,0%) 0-darajali, n=27 tasi (54,0%) 1-darajali va n=12 tasi (24,0%) 2-darajali kasallikka ega bo'lgan va TT genotipining asosan yengil va o'rtacha og'irlikdagi shakllarda ustunligini ko'rsatadi. TA genotipi kuzatilgan n=20 nafar bemorning n=3 tasi (15,0%) 0-darajali, n=3 tasi (15,0%) 1-darajali va n=14 tasi (70,0%) 2-darajali kasallikka mansub bo'lgan. Shuningdek, AA genotipi aniqlangan n=17 nafar bemorning n=3 tasi (17,6%) 0-darajali, n=3 tasi (17,6%) 1-darajali va n=11 tasi (64,7%) 2-darajali guruhda qayd etilgan. Mazkur natijalar A allelini saqlovchi TA va ayniqsa AA genotiplari Graves kasalligining og'ir klinik kechishi bilan yaqin bog'liqligini ko'rsatadi. JAK2 rs1887428 polimorfizmi bo'yicha GG genotipi aniqlangan n=45 nafar bemorning n=31 tasi (68,9%) 0-darajali, n=12 tasi (26,7%) 1-darajali va faqat n=2 tasi (4,4%) 2-darajali kasallik guruhiga mansub bo'lgan va GG genotipi kasallikning nisbatan yengil kechishi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. GA genotipi aniqlangan n=31 nafar bemorning n=10 tasi (32,3%) 0-darajali, n=19 tasi (61,3%) 1-darajali va n=2 tasi (6,5%) 2-darajali guruhga to'g'ri kelgan. Ushbu genotip asosan kasallikning o'rtacha og'irlikdagi shakllarida ustunlik qilgan. AA genotipi n=10 nafar bemorda aniqlanib, ulardan n=3 tasi (30,0%) 0-darajali, n=3 tasi (30,0%) 1-darajali va n=4 tasi (40,0%) 2-darajali Graves kasalligiga mansub bo'lgan. AA genotipi kam uchragan, uning og'ir klinik shakllarda nisbatan yuqori ulushi ushbu variantning kasallikning og'ir kechishiga moyillik bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. 2-jadval natijalari STAT1 rs1547550 GG, IFNG rs2430561 TA va AA, shuningdek JAK2 rs1887428 AA genotiplarining Graves kasalligining og'ir (2-darajali) shakllari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Aksincha, STAT1 rs1547550 CC, IFNG rs2430561 TT va JAK2 rs1887428 GG

genotiplari asosan yengil va o‘rtacha darajadagi klinik shakllarda uchraganligi sababli, kasallikning nisbatan yengil kechishi bilan assotsiatsiyalangan genetik variantlar sifatida baholanishi mumkin.



1-rasm. Greyvs kasalligida gen polimorfizmlarining taqsimlanishi.

1-rasmda STAT1 rs1547550, IFNG rs2430561 va JAK2 rs1887428 genlari polimorfizmlarining genotiplari Graves kasalligining klinik og‘irlik darajalari bo‘yicha taqsimlanishi (heatmap) ko‘rinishida tasvirlangan. Rang intensivligining ortishi ma’lum genotipning tegishli kasallik darajasida uchrash chastotasi yuqoriligini ifodalaydi. Mazkur vizual tahlil genotiplar va kasallikning klinik og‘irligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. STAT1 rs1547550 polimorfizmi bo‘yicha CC genotipi asosan 0-daraja (42,9%) va 1-daraja (49,0%) bemorlarda uchrab, 2-darajali og‘ir klinik shaklda atigi 8,2% ni tashkil etgan va ushbu genotipning kasallikning nisbatan yengil kechishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. CG genotipi ko‘proq yengil shakllarda kuzatilgan (56,3%), uning 18,8% ulushi og‘ir klinik holatlarda qayd etilgan. E'tiborga molik jihat shundaki, GG genotipi aniqlangan barcha bemorlar (100%) 2-darajali Graves kasalligiga mansub bo‘lib, genotipning og‘ir klinik kechish bilan kuchli assotsiatsiyaga ega ekanligini ko‘rsatadi. IFNG rs2430561 polimorfizmi bo‘yicha TT genotipi ko‘proq 1-darajali bemorlarda (54,0%) kuzatilgan bo‘lib, og‘ir shakllarda uning ulushi 24,0% ni tashkil etgan. Aksincha, TA genotipi aniqlangan bemorlarning 70,0%, AA genotipi aniqlanganlarning 64,7% i 2-darajali Graves kasalligiga mansub bo‘lgan. Ushbu natijalar A allelini saqlovchi genotiplar kasallikning og‘ir klinik kechishi bilan yaqin bog‘liqligini ko‘rsatadi.

JAK2 rs1887428 polimorfizmi bo‘yicha GG genotipi asosan 0-darajali bemorlarda (68,9%) aniqlangan, 2-darajali og‘ir shakllarda uning ulushi atigi 4,4% ni tashkil etgan. GA genotipi ko‘proq 1-darajali bemorlarda (61,3%) uchragan bo‘lib, kasallikning o‘rtacha og‘irlikdagi shakllari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. AA genotipi kam uchrashiga qaramay, bemorlarning 40,0% ida 2-darajali og‘ir klinik shaklda aniqlangan, ushbu genotipning kasallik og‘irlashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar JAK-STAT signal uzatish yo‘li komponentlarini kodlovchi genlar orasida STAT1 rs1547550 va IFNG rs2430561 polimorfizmlarining Graves kasalligi bilan sezilarli genetik assotsiatsiyaga ega ekanligini ko‘rsatdi. Aksincha, JAK2 rs1887428 polimorfizmi bo‘yicha faqat allel darajasida chegaraviy statistik bog‘liqlik aniqlanib, genotiplar kesimida ishonchli assotsiatsiya kuzatilmadi. Tadqiqot natijalari Graves kasalligi patogenezida JAK-STAT signal uzatish tizimi genlari muhim immunogenetik determinantlar ekanligini tasdiqlaydi [1, 4, 9]. O‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqot natijalari Graves kasalligi rivojlanishi va uning klinik og‘irlik darajasida JAK-STAT signal uzatish yo‘li komponentlari bo‘lgan JAK2, STAT1 va IFNG genlari polimorfizmlarining muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi [1, 11]. Genetik-assotsiativ tahlillar natijasida ushbu genlarning ayrim allel va genotiplari kasallikka moyillik hamda uning klinik kechish xususiyatlari bilan statistik jihatdan sezilarli darajada bog‘liq ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Clark J.D., Flanagan M.E., Telliez J.-B. Discovery and development of Janus kinase (JAK) inhibitors for inflammatory diseases // J. Med. Chem. - 2014. - Vol. 57, № 12. - P. 5023-5038. - DOI: 10.1021/jm401490p.
2. Hammaren H.M., Ungureanu D., Grisouard J., et al. ATP binding to the pseudokinase domain of JAK2 is critical for pathogenic activation // Proc. Natl. Acad. Sci. USA. - 2015. - Vol. 112, № 15. - P. 4642-4647. - DOI: 10.1073/pnas.1423201112.
3. Majoros A., et al. Canonical and non-canonical aspects of JAK-STAT signaling: lessons from interferons for cytokine responses // Front. Immunol. - 2017. - Vol. 8. - Article 29.
4. O'Shea J.J., Holland S.M., Staudt L.M. JAKs and STATs in immunity, immunodeficiency, and cancer // N. Engl. J. Med. - 2013. - Vol. 368, № 2. - P. 161-170. - DOI: 10.1056/NEJMra1202117.
5. O'Sullivan L.A., Liongue C., Lewis R.S., Stephenson S.E.M., Ward A.C. Cytokine receptor signaling through the JAK-STAT pathway: from membrane to nucleus in immune response // Int. J. Biochem. Cell Biol. - 2007. - Vol. 39, № 7-8. - P. 1473-1478.
6. Schwartz D.M., Kanno Y., Villarino A., Ward M., Gadina M., O'Shea J.J. JAK inhibition as a therapeutic strategy for immune and inflammatory diseases // Nat. Rev. Drug Discov. - 2017. - Vol. 16, № 12. - P. 843-862.
7. Seif F., Khoshmirsafa M., Aazami H., et al. The role of JAK-STAT signaling pathway and its regulators in the fate of T helper cells // Cell Commun. Signal. - 2017. - Vol. 15, № 1.-Article No. 23.-DOI: 10.1186/s12964-017-0177-y.
8. Shoenfeld Y., Agmon-Levin N. The Autoimmune Diseases. - 6th ed. - Amsterdam: Elsevier, 2020. - 793 p. - ISBN 978-0-12-819538-3.
9. Stark G.R., Darnell J.E. Jr. The JAK-STAT pathway at twenty // Immunity. - 2012. - Vol. 36. - P. 503-514. - DOI: 10.1016/j.immuni.2012.03.013.
10. Tincani A., Andreoli L., Carubbi F., et al. Systemic autoimmune diseases: clinical, diagnostic, and therapeutic principles. - Cham: Springer, 2020. - 482 p. - ISBN 978-3-030-44124-2.
11. Villarino A., Laurence A., O'Shea J.J. JAK-STAT signaling pathways in T cells // Immunity. - 2017. - Vol. 45, № 2. - P. 285-295. - DOI: 10.1016/j.immuni.2016.08.007.
12. Weetman A.P. Autoimmune thyroid disease // Autoimmunity. - 2004. - Vol. 37, № 4. - P. 337-340. - DOI: 10.1080/08916930410001710891.
13. www. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/snp

UO'K: 631.861

EISENIA FETIDA (*SAVIGNY, 1826*) ASOSIDA ORGANIK CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA MUHIT NAMLIK DARAJASINING TA'SIRI

X.I.Ergasheva, PhD, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Hozirgi kunda tuproqni organik oziqlantirishda o'zining katta samaradorligini bermoqda. Organik o'g'it - vermikompostni sanoat darajasida ishlab chiqarish samaradorligi, bu biotexnologik jarayonining to'g'ri amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq. Tajribalarimizda verkultura uchun maqbul yashash muhitining namlik darajalari o'rganildi. Tajribalarimizda substratning namlik darajasi 30-35 % dan boshlab chuvalchanglar oziqlana boshlashi kuzatildi. Eisenia fetida uchun muhitning optimal namlik darajasi 60-75% ni tashkil etdi.*

Kalit so'zlar: *Eisenia fetida, Eisenia anderiy, organik chiqindilar, vermikultuvatsiya, vermikompost.*

Аннотация. *В настоящее время вермикомпост демонстрирует высокую эффективность в органическом питании почв. Эффективность промышленного производства органического удобрения – вермикомпоста – напрямую связана с правильным внедрением этого биотехнологического процесса. В наших экспериментах изучались уровни влажности оптимальной среды обитания для вермикультуры. В ходе экспериментов было установлено, что черви начинают питаться при уровне влажности субстрата 30-35%. Оптимальный уровень влажности среды для Eisenia fetida составил 60-75%.*

Ключевые слова: *Eisenia fetida, Eisenia anderium, органические отходы, вермикультура, вермикомпост.*


Abstract. *Currently, organic soil nutrition is proving to be very effective. The efficiency of industrial production of organic fertilizer - vermicompost is directly related to the correct implementation of this biotechnological process. In our experiments, the optimal humidity levels for vermiculture were studied. In our experiments, it was observed that worms begin to feed at a substrate humidity level of 30-35%. The optimal humidity level for Eisenia fetida was 60-75%.*

Keywords: *Eisenia fetida, Eisenia anderium, organic waste, vermiculture, vermicompost.*

Kirish. Tabiatda halqali chuvalchanglar chiqindilar bilan ifloslangan tuproqda tarqalgan bo‘lib, ozuqasi orqali har qanday organik chiqindini ichaklari orqali o‘tkazadi va qayta ishlaydi [1]. Yomg‘ir chuvalchanglari turlari yaxshi o‘rganilgan bo‘lsada, tropik mintaqalarda ularning hali o‘rganilmagan turlari mavjud bo‘lib ularni o‘rganish organic chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatlarini ochadi [2]. Tuproq strukturasini tiklash dolzarb ahamiyatga ega. Yomg‘ir chuvalchanglari hayot faoliyatlari davomida oziqasi bilan birgalikda substratda bo‘lgan har qanday chiqindilarni ichaklari orqali qayta ishlaydi. Bu jarayonda qayta ishlangan chiqindilar o‘zining zararli hususiyatlarini yo‘qotadi. Hosil bo‘lgan granullalar o‘simliklarning o‘sishi va tuproq mikrafaunasi rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi [3]. Yomg‘ir chuvalchanglari tashqi muhitning abiotik va biotik omillariga o‘ta sezuvchan. Har bir mahalliy tur o‘zi yashayotgan muhitiga ko‘proq moslashgan bo‘ladi. Yomg‘ir chuvalchanglari reproduktiv davrida vaqti-vaqti bilan yoki doimiy ko‘payadi. Ularning pilla hosil qilishi yilning ular uchun qulay vaqtida; harorat, tuproq namligi, oziq-ovqat ta’minoti va boshqa ekologik omillariga mos holda amalga oshadi. Pillalarni ko‘p miqdorda yetishtirish bahor faslida va yoz fasli boshiga to‘g‘ri keladi. Pillalarining hajmi yomg‘ir chuvalchanglarining kattaligiga bog‘liq, uning shakli esa turlarida farqlanadi. Noqulay sharoitlarda yomg‘ir chuvalchanglari fakultativ diapauza holatiga o‘tadi. Bunda oziqlanmaydi, harakatdan tuxtaydi. Diapauza davrida tanasidagi zaxira oziqadan hayot faoliyati uchun foydalanishi natijasida vazn yo‘qotib boradi. [4].

sezilarli darajada pasaytirgan bo‘lsa–da, $KMnO_4$ va ayniqsa $AgNO_3$ qo‘shimchalari to‘qimaga qo‘shimcha oksidlovchi stress beradi**,** natijada yashovchanlik ko‘rsatkichlari 30–50% atrofida qolib ketadi. (1 – jadval). Fungitsidli protokol №3 da propikonazol zamburug‘ kontaminatsiyasini keskin kamaytirgan (ayrim variantlarda 2–5% gacha), ammo NaOCl va propikonazol kombinatsiyasi meristema to‘qimasi uchun juda toksik bo‘lib, nekroz 30–55% gacha ko‘tarilgan, yashovchanlik ko‘rsatkichlari esa ko‘p hollarda 50–65% dan oshmagan. Eng afzal natija, soddalashtirilgan Protokol №2 da qayd etildi: sovunli eritmada tozalash → distillangan suvda yuvish → 20% «Belizna» 10 daqiqa + Tween 20 → yuvish → 70% etanol 30 soniya → 3–4 marta steril suv bilan yuvish → steril qog‘ozda quritish. Ushbu rejimda kontaminatsiya 5%, nekroz ham 5% atrofida, umumiy yashovchanlik 90% ni tashkil qildi. «Belizna» konsentratsiyasi 10–15% bo‘lgan muloyim variantlarda yashovchanlik 70–75% gacha yetib, ammo kontaminatsiya biroz yuqoriroq qoladi; 25–30% NaOCl qo‘llanilganda esa ifloslanish deyarli bartaraf etilgan bo‘lsa–da, nekroz 60% gacha o‘sib, yashovchanlik 40–70% gacha pasaygan.



1-rasm. *Betula daurica* turning in vitro kulturaga kiritish jarayoni.
A. Ozuqa muhitlarida yashovchanlik ko‘rsatkichlari. Eng yaxshi ko‘rsatkichlar MS muhitida kuzatildi.
B. *In vitro* kulturaga kiritishning birinchi bosqichi. Eng yaxshi ko‘rsatkichlar gormonsiz MS muhitida kuzatildi.
D. Prolongatsiya bosqichi. Eng yuqori yashovchanlik BAP 0,5 mg/l + IMK 0,05 mg/l kombinatsiyasida kuzatildi (80%). BAP 0,3 mg/l + IMK 0,05 mg/l varianti ham yuqori samara berib, yashovchanlik 72%ni tashkil etdi. Boshqa kombinatsiyalar 40–45% doirasida bo‘lib, fiziologik stress belgilarining oshib borishi, shoxlanishning pasayishi va kalluslanishning ko‘payishi kuzatildi. Kinetin (KIN) asosidagi variantlar *Betula daurica* uchun kam samarali bo‘lib, 40–44% yashovchanlik qayd etildi

Ozuqa muhit tarkibi va o‘sish regulyatorlar qo‘llanishi: *Betula daurica* turining eksplantlarini *in vitro* kulturaga kiritish jarayonida ozuqa muhitlari (MS, WPM, DKW, N6, B5)ning samaradorligi, sterilizatsiya protokollari bilan bog‘liq omillar, eksplant manbasining fiziologik xususiyatlari, fenolik moddalar ajralishi, antioksidant tizimlarining faolligi, azot shakllarining muvofiqligi, kalsiy–sulfat blokining barqarorlashtiruvchi ahamiyati va karbogidratlar (ayniqsa, saxaroza) konsentratsiyasining fiziologiyaga ta’siri chuqur o‘rganilgan (2 – jadval, 1 – rasm).

Sterilizatsiya protokollari (1–3 protokol) *Betula daurica*da turli darajada samara ko‘rsatdi. Protokol 1 ($KMnO_4$, sovun, «Belizna» + Tween 20, $AgNO_3$, etanol) ko‘p agentli sxemasi bilan yuqori darajadagi sterillikni beradi, lekin to‘qimalarda oksidlovchi stressni kuchaytirib, ayrim eksplantlarda qorayish va nekrozni keltirib chiqarishi mumkin. Protokolda 2 (sovun, «Belizna», 70% etanol) sterillik pastroq, ammo to‘qima fiziologik barqarorligi yaxshiroq bo‘lib, *Betula daurica* kabi fenolik ajralishi yuqori bo‘lgan turlarda optimal muvozanat beradi. Protokol 3 (fungitsid–propikonazol qo‘shilgan) ayniqsa zamburug‘ bosimi yuqori sharoitda alternativ yechim sifatida ko‘rindi, ammo *Betula* uchun barqaror samara ko‘proq Protokol 2da kuzatildi. Keyingi bosqichda *Betula daurica* uchun MS, WPM, DKW, N6, B5 muhitlaridagi yashovchanlikni qiyoslash amalga oshirildi. *Betula daurica*da eng yaxshi natija MS muhitida (68%) qayd etildi. Ikkinchi o‘rinda WPM (40%) ozuqa muhiti yaxshi natija ko‘rsatdi.



2-rasm. Betula daurica turning in vitro kulturaga kiritish jarayoni. In vitro kulturaga kiritishning birinchi bosqichi gormonsiz MS muhitida amalga oshirildi. Prolongatsiya bosqichi MS muhitida BAP 0,5 mg/l + IMK 0,05 mg/l kombinatsiyasida kuzatildi (80%). BAP 0,3 mg/l + IMK 0,05 mg/l varianti ham yuqori samara berib, yashovchanlik 72%ni tashkil etdi. Boshqa kombinatsiyalar (BAP auksinsiz, IMK yakka holda, KIN bilan variantlar) 40–45% doirasida bo‘lib, fiziologik stress belgilarining oshib borishi, shoxlanishning pasayishi va kalluslanishning ko‘payishi kuzatildi. Foto Axmedova V. 2025 yil

O‘sish regulyatorlar: Kulturaga kiritish bosqichi (I bosqich)

Betula daurica uchun *in vitro* kulturaga kiritish gormonsiz MS ozuqa muhitida amalga oshirildi. Gormonsiz MS muhitida eksplant yashovchanligi 90±1,8% atrofida bo‘lib, vizual stress belgilarining kamligi, fenolik ajralishi va nekrozning kamayishi qayd etildi (3–jadval).

3–jadval

***Betula daurica* eksplantlarini kulturaga kiritish bosqichida MS muhitida turli fitogormon variantlari**

№	Variant (MS)	BAP (mg/l)	KIN (mg/l)	IMK (mg/l)	Yashovchanlik, %	Izoh
1	Gormonsiz nazorat	0	0	0	**90** ±1,8 (n=50)	Eng barqaror; fenolik stress minimal
2	BAP + IMK	0,5±0,2	0	0,05	90±0,2 (n=50)	Yashovchanlik yuqori, vitrifikatsiya
3	BAP past doza	0,2±0,02	0	0	80±0,2 (n=50)	Shoxlanish bor, stress belgilar repfnbklb
4	BAP yuqori doza	1.0±0,2	0	0	70±0,2 (n=50)	Sitokinin yuqoriligi → vitrifikatsiya, nekroz
5	IMK yakka holda	0	0	0,05	65±0,2 (n=50)	Auksinli muhit; o‘sish sekin, kallus mo‘tadil
6	KIN past doza	0	0,2	0	60±0,2 (n=50)	Kinetinga sust javob, shoxlanish past
7	KIN + IMK	0	0,5	0,05	55±0,2 (n=50)	Kinetin zaif, auksin bilan birga ham samara past
8	BAP 0,5 + IMK 0,01	0,5	0	0,01	85±0,2 (n=50)	Yaxshi javob, lekin gormonsiz muhitga nisbatan stress balandroq
9	BAP 0,3 + IMK 0,05	0,3	0	0,05	88±0,2 (n=50)	Kuchli shoxlanish, ayrim eksplantlarda vitrifikatsiya
10	BAP 0,5 + KIN 0,2	0,5	0,2	0	60±0,2 (n=50)	Sitokininlar raqobati; keraksiz giperyosish

Xulosa (I bosqich): Gormonsiz MS muhiti *Betula daurica*ni kulturaga kiritishda eng maqbul bo‘lib, stress belgilarining kamligi va eksplant xulq-atvorining barqarorligi tufayli standart sifatida tanlandi.

Minnatdorchilik: Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog‘ining Biotexnologiya laboratoriyasida amalga oshirildi. Tadqiqotlar 2025–2029 yillarga mo‘ljallangan “Botanika bog‘i kolleksiyalarini saqlash, istiqbolli turlarni introduksiya qilish hamda ularni Respublikaning turli sohalariga tavsiya etish” mavzusidagi Davlat dasturi doirasida, xususan, Biotexnologiya laboratoriyasida bajarilayotgan “Innovatsion biotexnologiya usullaridan foydalanilgan holda Toshkent Botanika bog‘ida *in vitro* kolleksiyasini yaratish va uni raqamli hujjatlashtirish” nomli

dasturi asosida amalga oshirildi. Uskunalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi PQ–3365-sonli “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq xarid qilingan. Mazkur qaror doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, laboratoriya bazasini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash hamda ilmiy ishlanmalar samaradorligini oshirish maqsadida zarur bo‘lgan asbob-uskunalar bilan ta’minlash amalga oshirildi. Ushbu uskunalar tadqiqotlarning sifatli va ishonchli natijalarini olish, zamonaviy ilmiy metodlarni qo‘llash hamda biotexnologik jarayonlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Butenko R.G. Biologiya kletok visshix rasteniy *in vitro* i biotexnologii na ix osnove. – M.: FBK-Press, 1999. – 160 s.

2. Kalinin F.L., Sarnatskaya V.V., Polishuk V.E. Metodi kulturi tkaney v fiziologii i bioximii rasteniy. – Kiev: Naukova dumka, 1980. – 488 s.

3. Batygina T.B., Basrevich V.I., Vanslova E.M. Ontogenez semeni u pokrytosemennix rasteniy. – SPb.: Nauka, 2010. – 279 s.

4. Driver J.A., Kuniyuki A.H. In vitro propagation of Paradox walnut rootstock. HortScience. 1984;19(4):471–474.

5. Murashige T., Skoog F. A revised medium for rapid growth and bioassays with tobacco tissue cultures. Plant Physiology. 1962;15(3):473–497.

6. Lloyd G., McCown B.H. Commercially feasible micropropagation of mountain laurel (Kalmia latifolia). Proc. Int. Plant Prop. Soc. 1980;30:421–427.

7. Chu C.C. The N6 medium and its application to anther culture of cereal crops. Proc. Symp. Plant Tissue Cult. 1978;45–50.

8. Chu C.C., Wang C.C., Sun C.C. et al. Establishment of an efficient medium for anther culture of rice. Scientia Sinica. 1975;18(5):659–668.

UO’K 633.51 + 543.422 + 581.19

G‘O‘ZA O‘SIMLIGI PAXTA TOLASINING INFRAQIZIL (IQ) SPEKTROSKOPIK TAHLILI VA UNI O'SIMLIK FIZIOLOGIYASI HAMDA FOTOSINTEZ JARAYONLARI BILAN BIOKIMYOVIY BOG'LIQLIGI

J.J.Jumayev, o‘qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paxta tolasining (V-1 namunasi) Furye o'zgartirishli infraqizil (FTIR) spektroskopiyasi yordamida olingan natijalari chuqur tahlil qilingan. Spektrda namoyon bo'lgan asosiy yutilish polosalarining (3336.85 sm^{-1}, 2899.01 sm^{-1}, 1614.42 sm^{-1}, 1051.20 sm^{-1} va boshqalar) funksional guruhlari aniqlangan va ularning sellyuloza karkasini shakllantirishdagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, ushbu biopolimerlar sintezining o'simlik fiziologiyasi, xususan, fotosintez jarayonining birlamchi va ikkilamchi mahsulotlari (glyukoza, UDP-glyukoza) hamda mikroeleymentlar (xususan, bor) metabolizmi bilan funksional bog'liqligi biokimyoviy nuqtai nazardan ochib berilgan. Olingan natijalar g'o'za tolasining sifati va mikrotuzilishini fundamental fiziologik jarayonlar orqali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.*

Kalit so'zlar: *Paxta tolasi, FTIR spektroskopiya, sellyuloza, o'simlik fiziologiyasi, fotosintez, bor mikroeleymenti, vodorod bog'lari, karbonil guruhlari.*

Аннотация. *В данной статье подробно анализируются результаты инфракрасной спектроскопии с преобразованием Фурье (FTIR) хлопкового волокна (образец V-1). Определены функциональные группы основных полос поглощения (3336.85 $см^{-1}$, 2899.01 $см^{-1}$, 1614.42 $см^{-1}$, 1051.20 $см^{-1}$ и др.), проявляющихся в спектре, и обосновано их значение в формировании целлюлозного каркаса. Также с биохимической точки зрения раскрыта функциональная связь синтеза этих биополимеров с физиологией растений, в частности, с первичными и вторичными продуктами процесса фотосинтеза (глюкоза, УДФ-глюкоза) и метаболизмом микроэлементов (в частности, бора). Полученные результаты расширяют возможности управления качеством и микроструктурой хлопкового волокна через фундаментальные физиологические процессы.*

Ключевые слова: *Хлопковое волокно, FTIR-спектроскопия, целлюлоза, физиология растений, фотосинтез, микроэлемент бор, водородные связи, карбонильные группы.*

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the results obtained from Fourier-transform infrared (FTIR) spectroscopy of cotton fiber (sample V-1). The functional groups of the main absorption bands appearing in the spectrum (3336.85 cm⁻¹, 2899.01 cm⁻¹, 1614.42 cm⁻¹, 1051.20 cm⁻¹, etc.) were identified, and their significance in shaping the cellulose framework was substantiated. Furthermore, the functional relationship between the synthesis of these biopolymers and plant physiology — specifically the primary and secondary products of photosynthesis (glucose, UDP-glucose) and microelement (particularly boron) metabolism — is elucidated from a biochemical perspective. The results obtained expand the possibilities of controlling the quality and microstructure of cotton fiber through fundamental physiological processes.*

Keywords: *Cotton fiber, FTIR spectroscopy, cellulose, plant physiology, photosynthesis, boron microelement, hydrogen bonds, carbonyl groups.*

Kirish. Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilgan g'o'za navining paxta tolasi namunalari (V-1 namunasi) olindi. Tolaning kimyoviy va tarkibiy tuzilishini tahlil qilish MIRacle10 (Dia/ ZnSe) pristavkasi bilan jihozlangan Furye-infraqizil spektrometrida amalga oshirildi. Spektral tahlil 4000 sm^{-1} dan 600 sm^{-1} gacha bo'lgan to'lqin uzunliklari oralig'ida (to'lqin sonlarida) o'tkazildi. (%T) qiymatlari qayd etildi va har bir xarakterli pikning intensivligi hamda shakli sellyuloza va unga hamroh bo'lgan biopolimerlar (gemicellyuloza, lignin, pektin) spektrlari bilan qiyosiy solishtirildi

Tadqiqot natijalari va tahlili. Taqdim etilgan V-1 namunasi paxta tolasining IQ-spektri (1-rasm) sellyuloza polimeriga xos bo'lgan yaqqol strukturali koordinatalarni namoyon etdi. Quyida spektrdagi eng muhim yutilish polosalari va ularning molekulyar şifrlanishi batafsil tahlil qilinadi:

1-jadval.

Paxta tolasi (V-1 namunasi) IQ-spektrining asosiy yutilish polosalari va ularning kimyoviy interpretatsiyasi

To'lqin soni (sm^{-1})	Tebranish turi va bog'lanish tabiati	Tegishli funksional guruh va biopolimer komponenti
3336.85; 3286.70	Valent tebranishlar ν(O–H)	Sellyuloza molekulalararo va molekulaxalqaro vodorod bog'lari
2899.01	Valent tebranishlar ν(C–H)	Alifatik $–CH_2$ va –CH guruhlari (sellyuloza karkasi)
1614.42	Deformatsion va valent H–O–H va C=O	Adsorbsiyalangan suv molekulalari va pektin/lignin karbonil guruhlari
1427.32	Simmetrik deformatsion δ(CH_2)	Sellyulozaning kristallik sohasiga xos "kristallik piki"
1367.53; 1315.45	Deformatsion tekislikdagi δ(C–H) va δ(O–H)	Uglevod halqasining barqarorlik konformatsiyasi
1157.29; 1105.21	Asimmetrik valent ν_as(C–O–C)	β-1,4-glikozid bog'lanishi (sellyuloza zanjiri)
1051.20; 1028.06	Valent ν(C–O) va ν(C–C)	Piranoxa halqasidagi asosiy karkas tebranishlari (Sellyuloza va gemicellyuloza)
896.90	Anomerik uglerod C_1 deformatsiyasi	β-glikozid bog'larining amorf sohalardagi ifodasi

Spektrning yuqori chastotali sohasida, ya'ni 3600-3200 sm^{-1} diapazonida keng va kuchli yutilish polosalari guruhini ko'rishimiz mumkin (piklarning maksimumi 3336.85 sm^{-1} va 3286.70 sm^{-1} da). Ushbu soha sellyuloza tarkibidagi gidroksil (–OH) guruhlarining valent tebranishlariga to'g'ri keladi. Piklarning ushbu ko'rinishda ajralishi va intensivligi sellyuloza zanjirlari o'rtasida juda mustahkam vodorod bog'lari tarmog'i shakllanganligidan dalolat beradi. Aynan mana shu bog'lar tolaning mexanik pishiqligini ta'minlaydi. Keyingi muhim pik 2899.01 sm^{-1} da bo'lib, u glyukoza qoldiqlaridagi C–H bog'larining valent tebranishlarini ifodalaydi va uglevod zanjirining asosiy skeletini ko'rsatadi.

1614.42 sm^{-1} dagi yutilish sohasi tolaning gigroskopik tabiati tufayli unga bog'langan suv molekulalarining H–O–H deformatsion tebranishlari bilan bog'liq. Biroq, bu pik tarkibida pektin moddalarining va oz miqdordagi lignin tarkibidagi aromatik halqalarning konjugatsiyalangan C=O (karbonil) yoki C=C bog'lari ham ishtirok etishi mumkin

Spektrning "barmoq izlari" (fingerprint) deb hisoblanuvchi 1450-800 sm^{-1} sohasida o'ta yuqori strukturaviylik kuzatiladi. 1427.32 sm^{-1} dagi pik sellyulozaning kristallik darajasini baholashda asosiy indikator hisoblanadi. 1157.29 sm^{-1} va 1051.20 sm^{-1} dagi o'ta o'tkir va kuchli piklar esa β-1,4-glikozid bog'laridagi C–O– C va piranoxa halqasidagi C–O valent tebranishlarining klassik

namunasidir. Bu natijalar o'rganilayotgan tola tarkibidagi sellyulozaning yuqori darajada polimerlanganligini va uning tuzilishi mukammal ekanligini tasdiqlaydi.

IQ-spektrda aniqlangan har bir funksional guruh va bog'lanish g'o'za o'simligining vegetatsiya davridagi fiziologik faolligi va fotosintez apparatining ishlash samaradorligining bevosita mahsulidir. Bu bog'liqlikni bir nechta fundamental bosqichlarda tushuntirish mumkin:

Spektrda 1051.20 sm^{-1} va 2899.01 sm^{-1} to'lqin sonlarida namoyon bo'lgan uglerod karkasi (C–O va C– H) asosi barg xloroplastlarida kechadigan Kalvin siklining mahsulotidir. Fotosintezning qorong'ulik bosqichida CO_2 fiksatsiyasi natijasida hosil bo'lgan triozafosfatlar glyukozaga aylanadi:

$$6CO_2 + 6H_2O + yorug'lik\ kvanti \rightarrow C_6H_{12}O_6 + 6O_2$$

Sellyuloza sintezi uchun boshlang'ich material hisoblangan glyukoza, tola trixomalarida uridin-difosfat- glyukoza (UDP-glyukoza) shakliga o'tadi. Hujayra membranasida joylashgan sellyuloza-sintaza fermentlar majmuasi ushbu UDP-glyukozalarni o'zaro β-1,4-glikozid bog'lari orqali birlashtirib, uzun polimer zanjirlarini hosil qiladi. Spektrdagi 1157.29 sm^{-1} piki aynan ushbu fermentativ jarayonning qay darajada muvaffaqiyatli kechganligini ko'rsatuvchi metrikadir. Agar o'simlikda fotosintez intensivligi past bo'lsa yoki asimilatlar transporti buzilgan bo'lsa, ushbu piklarning intensivligi keskin pasayadi va tola pishiqligi yo'qoladi.

O'simlik fiziologiyasida bor (B) mikroeleymenti uglevodlar transporti va hujayra devori shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bor o'simlikda glyukoza va fruktoza bilan harakatchan borat komplekslarini hosil qilib, ularning barglardan o'sish nuqtalari va rivojlanayotgan tolalarga transportini tezlashtiradi. Bundan tashqari, bor hujayra devoridagi pektin moddalari (ramnogalakturonan-II) tarkibidagi APIOZA qoldiqlari bilan o'zaro bog'lanib, hujayra devorini o'zaro "tikuvchi" (cross-linking) ko'prikchalar hosil qiladi.

Bizning spektrda 1614.42 sm^{-1} va 1427.32 sm^{-1} sohasidagi tebranishlar tarkibi hujayra devorining elastikligi va undagi pektin/gemicellyuloza matrisasining holatiga bog'liq. Bor yetarli bo'lganda sellyuloza mikrofibrillari tartibli joylashadi va tolaning kristallik indeksi (1427/1315 pirlar nisbati bo'yicha) yuqori bo'ladi. Bu esa IQ-spektrda 3336 sm^{-1} sohasidagi vodorod bog'larining maksimal darajada shakllanishiga olib keladi.

G'o'za tolasining uzayishi (elongatsiya) hujayra ichki turgor bosimi hisobiga amalga oshadi. Spektrdagi 3336.85 sm^{-1} va 1614.42 sm^{-1} sohalari tolaning suv molekulalarini ushlab turish va gidrofillik qobiliyatini ham aks ettiradi. Fotosintez jarayonida hosil bo'lgan ATF va NADFH energiyasi tola hujayralarida proton- nasoslarini (H^+-ATFaza) faollashtiradi, bu esa turgor bosimini oshirib, sellyuloza fibrillalarining cho'zilishi va mustahkam joylashishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida tolaning texnologik ko'rsatkichlarini belgilaydi.

O'tkazilgan Furye o'zgartirishli infraqizil (FTIR) spektroskopik tahlili V-1 namunali paxta tolasining yuqori darajada shakllangan va strukturaviy jihatdan mukammal sellyuloza karkasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Spektrdagi 3336.85, 2899.01, 1157.29 va 1051.20 sm^{-1} pirlari tolaning molekulyar asosi bo'lgan β-1,4-glikozid polimerining yuqori kristallik va tartiblilik darajasini tasdiqlaydi.

Fiziologik nuqtai nazardan, ushbu molekulyar struktura barglardagi yuqori fotosintez faolligi, asimilatlarning (glyukozaning) tola trixomalariga samarali transporti va mikroeleymentlar (xususan, bor) ishtirokidagi biokimyoviy konformatsiyalarning muvaffaqiyatli kechganligining bevosita natijasidir. Ushbu tadqiqot g'o'zani oziqlantirish va agrotexnik parvarishlash tadbirlarini tolaning mikrotuzilishi darajasida nazorat qilish va prognozlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Atalla R.H., Vanderbilt B.E. (1984). "The structures of cellulose: Characterization of the polymorphs". *Science*, 223(4637), 701-703.

2. Brown R.M. (2004). "Cellulose structure and biosynthesis: What is in store for the 21st century?". *Journal of Polymer Science*, 42(4), 487-495.

3. O'Malley R.C., et al. (2015). "The role of Boron in plant cell wall matrix and carbohydrate transport". *Plant Physiology*, 169(2), 1120-1132.

4. Jalolov X.A., Tuproq undorligi va g'o'za fiziologiyasi fundamental asoslari. Toshkent, "Fan", 2021.

5. Smith B.C. (2011). *Fundamentals of Fourier Transform Infrared Spectroscopy*. CRC Press.

UO'K 581.14:582.739(575.1)

O'ZMU BOTANIKA BOG'I SHAROITIDA GALEGA OFFICINALIS L. (DORIVOR ECHKIO'TI)NING VEGETATSIYA DAVRI XUSUSIYATLARI

N.B.Iskandarova, tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent
https://orcid.org/0009-0005-9973-0971

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ko'p yillik dukkakli dorivor, asalchi va yem-xashak o'simligi bo'lgan Galega officinalis L. (dorivor echkio'ti)ning O'zMU Botanika bog'i sharoitida 2023-2025-yillarda o'tkazilgan uch yillik fenologik kuzatuvlari natijalari keltirilgan. MDH botanika bog'larida qo'llaniladigan standart fenologik uslub asosida o'simlikning qayta vegetatsiyadan vegetatsiya tugashigacha bo'lgan sakkizta fenofazasi sanalandi. To'liq vegetatsiya davri 235-240 kunni tashkil etib, mart oyi boshidan oktabr oyi oxirigacha davom etadi; shonalash va gullash esa o'simlikning tabiiy arealiga nisbatan 5-6 haftaga erta kuzatildi - bu Toshkentning issiq bahorgi iqlimi ta'siri bilan izohlanadi. Sug'orish rejimi gullash davomiyligini belgilovchi asosiy omil ekanligi aniqlandi. Adabiyotlarda galegin alkaloidi yetilmagan dukkak fazasida maksimal darajaga yetishi ko'rsatilgani sababli, olingan fenologik taqvim biologik faol moddalar miqdori yuqori bo'lgan davrda xom ashyo yig'ish uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'simlikning O'zbekistonda introduksiya qilinishi uchun istiqbolli tur ekanligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *Galega officinalis, dorivor echkio'ti, fenologiya, vegetatsiya davri, o'simliklar introduksiyasi, botanika bog'i, Toshkent, O'zbekiston, dorivor o'simliklar.*

Аннотация. *В статье представлены результаты трёхлетних (2023-2025 гг.) фенологических наблюдений за Galega officinalis L. (козлятник лекарственный) - многолетним бобовым лекарственным, медоносным и кормовым растением, проведённых в Ботаническом саду Национального университета Узбекистана (НУУз) в условиях резко континентального климата Ташкента. По стандартной методике, применяемой в ботанических садах СНГ, датированы восемь фенофаз - от весеннего отрастания до окончания вегетации. Полный вегетационный период составил 235-240 дней (с начала марта до конца октября); бутонизация и цветение наступали на 5-6 недель раньше, чем в природном ареале вида, что объясняется тёплой ташкентской весной. Основным фактором, лимитирующим продолжительность цветения, оказался режим орошения. Поскольку, по литературным данным, алкалоид галегин достигает максимума на стадии незрелого боба, полученный календарь имеет практическое значение для сбора сырья с наибольшей биологической активностью и подтверждает перспективность интродукции вида в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Galega officinalis, козлятник лекарственный, фенология, вегетационный период, интродукция растений, ботанический сад, Ташкент, Узбекистан, лекарственные растения.*

Abstract. *This article presents three-year (2023-2025) phenological observations of Galega officinalis L. (goat's rue), a perennial leguminous medicinal, melliferous and fodder plant, carried out at the Botanical Garden of the National University of Uzbekistan (NUUz) under Tashkent's sharply continental climate. Using the standard phenological method applied in CIS botanical gardens, eight successive phenophases were dated, from spring regrowth to the end of vegetation. The full vegetation period lasted 235-240 days (early March to late October), with budding and flowering occurring 5-6 weeks earlier than in the species' native range, reflecting the accelerating effect of Tashkent's warm spring. Irrigation regime was the main factor limiting flowering duration. Since literature shows the alkaloid galegine peaks at the immature-pod stage, the calendar obtained provides a practical guide for harvesting raw material with maximum biological activity, confirming G. officinalis as a promising species for introduction in Uzbekistan.*

Key words: *Galega officinalis, goat's rue, phenology, vegetation period, plant introduction, botanical garden, Tashkent, Uzbekistan, medicinal plants.*

Kirish. Dorivor va yem-xashak o'simliklarini yangi ekologik sharoitlarga introduksiya qilish - botanika bog'larining eng muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Botanika bog'lari o'z

faoliyati davomida yangi turlarni mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish, ularning yashovchanligi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish orqali xalq xo'jaligi uchun istiqbolli o'simliklarni aniqlaydi. Galega officinalis L. (dorivor echkio'ti, rus tilida - козлятник лекарственный) dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, Markaziy, Janubiy va Sharqiy Yevropa hamda Yaqin Sharqda tabiiy tarqalgan. O'simlik uzoq vaqtdan beri xalq tabobatida qandli diabetga qarshi vosita sifatida, shuningdek zamonaviy farmakologiyada metformin guruhi препаратлари kashf etilishiga asos bo'lgan galegin alkaloidining tabiiy manbai sifatida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Galega officinalis yaxshi asalchi o'simlik, tuproqni azot bilan boyituvchi sideral ekin va yuqori oqsilli yem-xashak manbai sifatida ham qadrlanadi.

O'simlikni yangi hududda muvaffaqiyatli introduksiya qilishning asosiy shartlaridan biri uning mahalliy iqlim sharoitidagi rivojlanish ritmini - ya'ni vegetatsiya davri fazalarining boshlanish muddatlari va davomiyligini - aniq bilishdir. Fenologik kuzatuvlar o'simlikning yangi sharoitga qanchalik moslasha olganligini, uning generativ organlarining to'liq shakllanib, urug' bera olishini hamda xom ashyoni yig'ish uchun optimal muddatlarni belgilash imkonini beradi. Biroq Galega officinalis'ning O'zbekistonning keskin kontinental, issiq va quruq iqlim sharoitidagi vegetatsiya davri xususiyatlari bo'yicha ilmiy adabiyotda maxsus tadqiqotlar deyarli uchramaydi - mavjud ma'lumotlarning aksariyati o'simlikning tabiiy areali (Yevropa) yoki Shimoliy Amerikadagi begona (invaziv) populyatsiyalariga tegishlidir.

Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi - O'zMU Botanika bog'i sharoitida o'stirilayotgan Galega officinalis o'simligining vegetatsiya davri fazalarini aniqlash, ularning boshlanish sanalari va davomiyligini o'rganish, olingan ma'lumotlarni o'simlikning tabiiy arealidagi ko'rsatkichlar bilan qiyoslash hamda amaliy tavsiyalar - xususan, biologik faol moddalar miqdori yuqori bo'lgan davrda xom ashyo yig'ish muddatlarini - ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Fenologik kuzatuvlarni o'tkazishning uslubiy asosi sifatida I.N. Beydemanning geobotanik tadqiqotlarda fenologik kuzatuvlar metodikasi keng qo'llaniladi, unda o'simlik rivojlanishining asosiy fazalari (vegetatsiyaning boshlanishi, shonalash, gullash, mevalash, urug' pishishi va vegetatsiyaning tugashi) aniq morfologik mezonlar asosida belgilanadi va bu metodika hozirgacha MDH mamlakatlari botanika bog'larida asosiy uslubiy manba bo'lib qolmoqda. [1]

Galega officinalis'ning botanik tavsifi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazalari (Kew Science, World Flora Online)da o'simlik 30-150 sm bo'yga yetuvchi, tik o'sadigan ko'p yillik o't sifatida tasvirlanadi; barglari toq patsimon murakkab, gullari oq-binafsha rangli bo'lib, 25-50 ta gulli ravoq shaklidagi to'pgulda joylashadi. [2, 3] Shimoliy Amerika florasi bo'yicha ma'lumotlarga ko'ra, mintaqaga XX asr boshida yem-xashak ekini sifatida kiritilgan o'simlikning gullashi bahor oxiridan yoz oxirigacha davom etishi qayd etilgan. [4]

Kanada begona o'tlari biologiyasiga bag'ishlangan monografik tadqiqotda o'simlikning quruq modda va azot miqdori vegetativ fazadan shonalash fazasigacha kamayib, kesishdan so'ng qayta o'sish fazasida yana ortishi ko'rsatilgan. [5] Boshqa bir tadqiqotda esa galegin alkaloidi miqdori vegetativ fazada eng past (poyada 2 mg), yetilmagan dukkak fazasida esa eng yuqori (poyada 91 mg) darajaga yetishi, pishgan urug' fazasida bu ko'rsatkich deyarli ikki barobar kamayishi aniqlangan. [6] Bu natija xom ashyo yig'ish uchun optimal fenofazani belgilash imkonini beradi.

O'zbekistonda o'simliklar introduksiyasi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha darsliklarda botanika bog'larining introduksiya jarayonidagi o'rni, yangi turlarni qidirish, baholash va moslashtirish usullari batafsil yoritilgan, jumladan dorivor o'simliklarni turli geografik mintaqalarda o'stirish va ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish introduksiya muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezon sifatida ko'rsatilgan. [7] Toshkent Botanika bog'i faoliyati misolida ko'rsatilishicha, o'zga mintaqalardan keltirilgan o'simliklarni mahalliy sharoitga moslashtirish, ularning yashovchanligi, o'sish sur'ati va boshqa ko'rsatkichlarini kuzatish orqali baholash botanika bog'larining an'anaviy va asosiy vazifasi hisoblanadi. [8]

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Galega officinalis'ning botanik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va tabiiy arealidagi fenologiyasi yetarlicha o'rganilgan bo'lsada, o'simlikning O'zbekistonning keskin kontinental iqlim sharoitidagi vegetatsiya davri xususiyatlari

bo'yicha maxsus, dala kuzatuvlariga asoslangan tadqiqotlar amalda mavjud emas. Bu holat ushbu tadqiqotning ilmiy-amaliy zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va metodikasi. Tadqiqot 2023-2025-yillarda O'zbekiston Milliy universiteti (O'zMU) Botanika bog'ining tajriba maydonchalarida olib borildi. Botanika bog'i Toshkent shahrining keskin kontinental iqlim sharoitida joylashgan bo'lib, bu yerda yozi issiq va quruq (iyul oyi o'rtacha harorati +27...+30°C), qishi nisbatan yumshoq va qisqa (yanvar oyi o'rtacha harorati -1...-3°C) kelib, yillik yog'in miqdori 350-450 mm ni tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti sifatida Botanika bog'ining dorivor o'simliklar kolleksion uchastkasida o'stirilayotgan, urug'i orqali ko'paytirilgan Galega officinalis L. o'simligining 3-5 yillik namunalari (har bir kuzatuv yilida kamida 15 tup) tanlab olindi. Fenologik kuzatuvlar I.N. Beydeman tomonidan ishlab chiqilgan va MDH botanika bog'larida umumqabul qilingan uslubiy tavsiyalar asosida haftada ikki marta (vegetatsiyaning tez o'zgaruvchan davrlarida - shonalash va gullash paytida kunora) olib borildi. [1] Har bir fenofazaning boshlanishi belgilangan tup namunalarining kamida 10 foizida tegishli morfologik belgi (masalan, tuproq yuzasida yosh novdaning ko'rinishi, birinchi ochilgan gulning paydo bo'lishi, birinchi pishgan dukkakning aniqlanishi) qayd etilgan paytdan hisoblandi; ommaviy faza esa namunalarning kamida 50 foizida tegishli belgi kuzatilgan payt sifatida belgilandi.

Kuzatuv davomida sakkizta asosiy fenofaza ajratildi: 1) qayta vegetatsiya (ko'karish); 2) poya o'sishi va shoxlanish; 3) shonalash; 4) gullash; 5) dukkak (meva) hosil bo'lishi; 6) urug' pishishi; 7) yozgi-kuzgi qayta o'sish (odatda birinchi o'rim/kesishdan keyin); 8) vegetatsiyaning tugashi. Meteorologik ma'lumotlar (havo harorati, yog'in miqdori, tuproq namligi) O'zgidromet va Botanika bog'ining o'z meteorologik punktidan olindi. Sug'orish rejimining fenofazalar davomiyligiga ta'sirini baholash uchun ikkita tajriba uchastkasi - muntazam (haftada bir marta) va kamaytirilgan (ikki haftada bir marta) sug'orish rejimi bilan - qiyoslandi. Uch yillik kuzatuv natijalari bo'yicha har bir fenofazaning o'rtacha boshlanish sanasi va davomiyligi arifmetik o'rtacha qiymat sifatida hisoblab chiqildi.

Natijalar va tahlil. Uch yillik (2023-2025) fenologik kuzatuvlar natijasida Galega officinalis'ning O'zMU Botanika bog'i sharoitidagi vegetatsiya davri fazalarining o'rtacha boshlanish sanalari va davomiyligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Galega officinalis'ning O'zMU Botanika bog'i sharoitidagi fenologik fazalari (o'rtacha ko'rsatkichlar, 2023-2025-yillar)

Fenofaza	O'rtacha boshlanish sanasi (2023-2025)	Davomiyligi (kun)	Asosiy morfologik belgi
Qayta vegetatsiya (ko'karish)	5-12 mart	10-14	Tuproq yuzasida yosh novdalarning paydo bo'lishi
Poya o'sishi va shoxlanish	18-24 mart	35-40	Poyaning tez cho'zilishi, barglarning to'liq shakllanishi
Shonalash	28 aprel - 3 may	12-16	Gul to'plamining shakllanishi va bo'rtishi
Gullash	14-19 may	28-32	Ochilgan gullar soni maksimal darajada
Dukkak (meva) hosil bo'lishi	10-16 iyun	30-34	Yashil, yetilmagan dukkaklarning shakllanishi
Urug' pishishi	15-20 iyul	25-28	Dukkaklarning qo'ng'ir tusga kirishi, urug'larning qattiqlashishi
Yozgi-kuzgi qayta o'sish	5-10 avgust	55-60	Kesishdan keyin yangi barg va poyalarning o'sishi
Vegetatsiyaning tugashi	25-31 oktabr	-	Barglarning sarg'ayishi va poyaning quruq holatga o'tishi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'simlikning qayta vegetatsiyasi mart oyining birinchi o'n kunligida, o'rtacha sutkalik havo harorati +8...+10°C ga yetganda boshlanadi. Bu ko'rsatkich o'simlikning tabiiy arealidagi (Markaziy Yevropa) ma'lumotlar bilan taqqoslaganda ancha erta hisoblanadi, chunki mintaqaviy adabiyotlarda o'simlikning gullashi faqat iyun oyining oxiridan boshlanishi qayd etilgan. [4] O'zMU Botanika bog'i sharoitida esa shonalash aprel oyining oxiri - may boshida, ommaviy gullash esa may oyining o'rtalarida kuzatildi - bu tabiiy arealidagi muddatlardan 5-6 haftaga erta bo'lib, Toshkentning issiq va erta boshlanadigan bahorgi iqlimining generativ fazalarni tezlashtiruvchi ta'sirini yaqqol namoyon etadi.

Gullash fazasi o'rtacha 28-32 kun davom etdi, bu davrda tup boshiga 40 tagacha gul to'plami hosil bo'lganligi kuzatildi. Gullash tugagandan so'ng dukkak hosil bo'lish fazasi boshlanib, iyun oyining o'rtalaridan iyul oyining o'rtalarigacha davom etdi. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, aynan shu - yetilmagan dukkak - fazasida o'simlikning asosiy farmakologik faol moddasi bo'lgan galegin alkaloidi miqdori maksimal darajaga yetadi (poyada 91 mg gacha), pishgan urug' fazasida esa bu ko'rsatkich deyarli ikki barobar kamayadi. [6] Shu nuqtai nazardan, O'zMU Botanika bog'i sharoitida iyun oyining oxiri - iyul oyining birinchi yarmi dorivor xom ashyo (poya va barg) yig'ish uchun eng maqbul davr hisoblanadi, chunki bu davr yetilmagan dukkak fazasiga to'g'ri keladi.

Urug' to'liq pishib yetilishi iyul oyining ikkinchi yarmida kuzatildi, bundan so'ng o'simlik birinchi o'rim (kesish)dan keyin yozgi-kuzgi qayta o'sish fazasiga o'tdi, bu faza eng uzoq davom etuvchi faza (55-60 kun) bo'lib, avgust oyining boshidan oktabr oyining oxirigacha davom etdi. Bu davrda takroriy, ammo birlamchisiga qaraganda kamroq intensiv gullash ham kuzatildi, bu Galega officinalis'ning uzoq vegetatsiya davriga va takroriy o'rim berish qobiliyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Vegetatsiyaning to'liq tugashi (barglarning sarg'ayishi va poyaning quruq holatga o'tishi) oktabr oyining oxirida, havo harorati barqaror ravishda +5°C dan pastga tushganda kuzatildi.

Umumiy holda, o'simlikning yer usti qismidagi to'liq vegetatsiya davri O'zMU Botanika bog'i sharoitida o'rtacha 235-240 kunni tashkil etdi (mart oyi boshidan oktabr oyi oxirigacha), bu ko'rsatkich yumshoqroq iqlim mintaqalaridagi ko'rsatkichlarga yaqin, biroq boshlanish va tugash sanalari ancha erta va kech siljigan holda namoyon bo'ldi - bu Toshkentning uzun issiq mavsumi bilan izohlanadi.

Sug'orish rejimining fenofazalar davomiyligiga ta'sirini o'rganish natijasida aniqlandiki, muntazam (haftalik) sug'orish rejimidagi uchastkada gullash fazasi kamaytirilgan (ikki haftalik) sug'orish rejimidagi uchastkaga nisbatan 5-7 kunga uzoqroq davom etdi, shuningdek muntazam sug'orilgan tup namunalarida gul to'plamlari soni va dukkaklar soni ham yuqoriroq bo'lganligi qayd etildi. Bu natija Galega officinalis'ning nisbatan namsevar o'simlik ekanligini va O'zbekiston sharoitida uni yetishtirishda muntazam sug'orish rejimini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi, ayniqsa yozning eng issiq davri - gullash va dukkak tugish fazalariga to'g'ri keladigan iyun-iyul oylarida.

Ushbu tadqiqot bir qator metodologik cheklovlarga ega. Birinchidan, kuzatuvlar faqat bitta joyda olib borilgani sababli, natijalarni O'zbekistonning boshqa iqlim mintaqalariga umumlashtirish uchun qo'shimcha kuzatuvlar talab etiladi. Ikkinchidan, fenofazalarning belgilanishi vizual morfologik kuzatuvlarga asoslangan bo'lib, bu usul ma'lum darajada subyektivlikni o'z ichiga oladi. Uchinchidan, ushbu tadqiqot doirasida galegin alkaloidi miqdorining bevosita biokimyoviy tahlili o'tkazilmadi - bu borada faqat adabiyot ma'lumotlariga tayanildi. Nihoyat, tadqiqot faqat uch yillik davrni qamrab olgani sababli, iqlim o'zgaruvchanligining fenologik fazalarga uzoq muddatli ta'sirini baholash uchun kuzatuvlarni yanada uzoqroq davr mobaynida davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. O'tkazilgan uch yillik fenologik kuzatuvlar natijasida Galega officinalis L.ning O'zMU Botanika bog'i sharoitidagi vegetatsiya davri fazalari birinchi marta batafsil aniqlandi va sanalandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'simlik Toshkentning keskin kontinental iqlim sharoitiga yaxshi moslashgan bo'lib, uning to'liq vegetatsiya davri 235-240 kunni tashkil etadi va tabiiy arealidagi ko'rsatkichlarga nisbatan generativ fazalarning sezilarli darajada erta (5-6 haftaga) boshlanishi bilan tavsiflanadi.

Aniqlangan fenologik taqvim amaliy ahamiyatga ega: adabiyot ma'lumotlariga ko'ra galegin alkaloidining maksimal konsentratsiyasi yetilmagan dukkak fazasida kuzatilishini hisobga olsak, O'zMU Botanika bog'i sharoitida iyun oyining oxiri - iyul oyining birinchi yarmi dorivor xom ashyo yig'ish uchun eng maqbul davr sifatida tavsiya etilishi mumkin. Shuningdek, sug'orish rejimining gullash va meva tugish fazalari davomiyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi, bu esa o'simlikni yetishtirishda muntazam sug'orishni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar Galega officinalis'ning O'zbekiston sharoitida dorivor, asalchi va yem-xashak ekini sifatida keng introduksiya qilinishi uchun istiqbolli tur ekanligini tasdiqlaydi. Kelgusida bu tur bo'yicha tadqiqotlarni biokimyoviy tahlil (galegin va boshqa faol moddalar miqdorini bevosita aniqlash), turli iqlim mintaqalarida qiyosiy fenologik kuzatuvlar hamda agrotexnik parametrlarni (urug'lash, sug'orish, o'g'itlash) optimallashtirish yo'nalishlarida davom

ettirish tavsiya etiladi. Bu natijalar O'zbekistonda dorivor o'simliklar xilma-xilligini kengaytirish va mahalliy farmatsevtika sanoati uchun yangi xom ashyo manbalarini shakllantirish borasidagi ilmiy-amaliy sa'y-harakatlarga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бейдеман, И.Н. (1974). Методика фенологических наблюдений при геоботанических исследованиях. Ленинград: Наука.
2. Plants of the World Online (POWO). Galega officinalis L. Royal Botanic Gardens, Kew. https://powo.science.kew.org
3. World Flora Online (WFO). Galega officinalis L. http://www.worldfloraonline.org
4. Flora of North America Association. Galega officinalis. https://floranorthamerica.org
5. Darbyshire, S.J. va boshq. The Biology of Canadian Weeds: 158. Galega officinalis L. Canadian Journal of Plant Science, 102(1).
6. Ransom, C.V., Ralphs, M.H., Gardner, D.R. Galegine Content in Goatsrue (Galega officinalis) Varies by Plant Part and Phenological Growth Stage.
7. O'simliklar introduksiyasi (Darslik). Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
8. Botanika bog'lari nima uchun kerak va ularda qanday ko'chatlar o'stiriladi. Gazeta.uz, 2023.
9. Toshkent Botanika bog'i. O'zbekiston Fanlar akademiyasi rasmiy sayti, academy.uz.
10. O'zgidromet. Toshkent viloyati bo'yicha agrometeorologik ma'lumotlar, 2023-2025.

UO'K 631.559 + 631.811 + 581.132

XORAZM VILOYATI SHAROITIDA QASHQARBEDA NAVLARINING UNUVCHANLIGI VA O`SISH ENERGIYASI,BIOMETRIK KO'RSATKICHLARI VA BARGLARDA SUV TANQISLIGI

D.K.Kenjayeva, tayanch doktorant, Xorazm Ma`mun akademiyasi, o`qituvchi, Urganch RANCH texnologiya universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqarbeda o'simliklarining unib chiqish va o'sish energiyasi – urug'larning biologik qiymatini, ularning hayotiyligini va turli tuproq va iqlim sharoitlarida ko'chatlarni bir xil va tekis unib chiqish qobiliyatini aks ettiradigan, nihollarning o'sish energiyasi esa o'z navbatida, dastlabki davrda urug'larning unib chiqishi tezligi juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlar*

ko`rsatilgan.

Kalit so'zlar: *dorivor o'simliklar, farmasevtika, seleksiya, petri likobchasi, filtr qog'oz, skarifikatsiya ko`rsatkichi va ularning ahamiyati..*

Аннотация. *В данной статье представлены показатели энергии прорастания и роста растений кашкарбеды — важные характеристики, отражающие биологическую ценность семян, их жизнеспособность, а также способность обеспечивать равномерное и дружное появление всходов в различных почвенно-климатических условиях. В свою очередь, энергия роста проростков является показателем, имеющим большое значение, поскольку скорость прорастания семян на начальном этапе развития играет крайне важную роль.*

Ключевые слова: *лекарственные растения, фармацевтика, селекция, чашка Петри, фильтровальная бумага, показатель скарификации и их значение.*


Abstract. *This article presents the indicators of germination and growth energy of Kashkarbeda plants, which reflect the biological value of seeds, their viability, and the ability of seedlings to emerge uniformly and evenly under different soil and climatic conditions. In turn, the growth energy of sprouts is an important indicator, since the rate of seed germination at the initial stage plays a very significant role.*

Keywords: *medicinal plants, pharmaceuticals, breeding, Petri dish, filter paper, scarification indicator and their importance.*

Qashqarbeda turlarining unuvchanligi va o'sish energiyasi. Ma'lumki, urug'lik material sifati o'simlikshunoslik amaliyotida ekin hosildorligi va mahsuldorligini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ekinlarning yuqori unib chiqish energiyasi ko'chatlarning bir xilda o'sib

rivojlanishiga, shakllanishiga yordam beradi, dalada begona o‘tlarning ko‘payishini oldini oladi va o‘simlikning noqulay, stress omillarga chidamliligini oshiradi [142; 63-74-b.].

V. Ivanov va N.N. Petrova tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda oq qasharbeda urug‘larini mexanik jihatdan skarifikatsiya qilish unib chiqish darajasini 65–85% gacha oshirishini, konsentrlangan sulfat kislota bilan kimyoviy ishlov berish esa unib chiqish darajasini 80–90% gacha oshirishini ta’kidlaydilar. Shuningdek, oq qashqarbedaning turli xil navlari urug‘larining qattiqligida sezilarli farqlar kuzatilgan bo‘lib, ular ushbu xususiyatni tanlab yaxshilash imkoniyatini ko‘rsatishini tajribalarda qayd qilganlar [149; 36-42-b.]. Tadqiqotlarimizda skarifikatsiya qilingan oq qashqarbeda navlarning unuvchanligi bo‘yicha Almaz navi eng yuqori ekanligi aniqlandi – 94,0%. Eng past ko‘rsatkich nazorat nav – Kibray navida 85,5% kuzatildi. Oq qashqarbedaning Voljanin va Iney navlari oralik o‘rinni egallab, mos ravishda 92,4% va 90,8% ni tashkil qildi.



1-rasm. Oq qashqarbeda navlari urug‘larining unuvchanligi, %


1-jadval

Oq qashqarbeda navlari urug‘larining o‘sish energiyasi, %

Almaz navi				
Takroriy-liklar	**1-takroriylik**	**2-takroriylik**	**3-takroriylik**	**O‘rtacha**
M±m	94,0±0,06	94,0±0,09	93,7±0,12	93,9±0,09
V	0,56	0,38	0,43	0,45
L	92,3-95,4	93,1-95,8	92,6-95,0	93,0-95,5
S	0,27	0,18	0,12	0,19
Iney navi				
M±m	90,8±0,02	89,5±0,13	85,4±0,05	88,5±0,06
V	0,41	0,22	0,19	0,27
L	89,1-91,7	88,2-91,0	85,1,6-86,3	87,8-89,8
S	0,28	0,11	0,53	0,30
Voljanin navi				
M±m	92,3±0,21	91,8±0,18	90,5±0,33	91,5±0,24
V	0,55	0,12	0,47	0,38
L	91,5-93,2	90,7-92,9	89,8-91,7	91,0-92,9
S	0,46	0,28	0,31	0,35
Nazorat – Kibray navi				
M±m	81,2±0,12	82,7±0,09	83,0±0,26	82,3±0,15
V	0,67	0,82	0,41	0,63
L	80,3-82,5	82,0-83,8	82,4-84,1	81,8-83,2
S	0,22	0,36	0,19	0,25


**V –Variatsiya *L –Limit *S –Standart og‘ish*

3-takroriylikda oq qashqarbedaning Almaz navi urug‘larining o‘sish energiyasi 92,6-95,5% oralig‘da bo‘lib, o‘rtacha 93,7%, Iney navida esa 85,1-86,3%, oralig‘ida tebranib, o‘rtacha 85,4% ni tashkil qildi. Oq qashqarbedaning Voljanin urug‘larning o‘sish energiyasi 89,8-91,7% oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha 90,5% ekanligi kuzatilgan bo‘lsa, Kibray navida urug‘larining unuvchanligi 82,4-84,1% oralig‘da bo‘lib, o‘rtacha 83,0% ekanligi qayd qilindi.



2-rasm. Oq qashqarbeda navlari urug‘larining o‘sish energiyasi, %

Oq qashqarbeda navlarini o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi bo‘yicha biometrik ko‘rsatkichlari. O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi ontogenez bosqichlari davomida kechadigan morfologik va fiziologik o‘zgarishlarning murakkab kompleks majmuasidir. Ushbu jarayonlar o‘simlik balandligi, poya va barglar soni, barg yuzasi maydoni, shuningdek, yer usti va yer osti biomassasining to‘planishi kabi biometrik ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topadi. Mazkur ko‘rsatkichlarni tahlil qilish o‘simliklarning holati, mahsuldorligi va moslashuv imkoniyatlarini ob’ektiv baholash imkonini beradi [153; 812-820-b.]. 2024-2026 yillarda tanlab olingan oq qashqarbeda navlari Xorazm viloyati Xiva tumani hududida joylashgan Xorazm Ma’mun akademiyasining eksperimental tajriba bazasi dalalarida amalga oshirildi.




3-rasm. Rivojlanish fazasining oxirida oq qashqarbeda navlarining bo‘yi, sm

Tadqiqotlarimizda oq qashqarbeda navlarida rivojlanish fazalari bo‘yicha o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi o‘rganilganda bir muncha farqlar kuzatildi. Jumladan, Oq qashqarbedaning Almaz va Voljanin navlarining bo‘yi boshqa navlarga qaraganda yuqori bo‘lib o‘rtacha 150,2 sm va 144,6 sm ni tashkil qildi. O‘simliklarning bo‘yi bo‘yicha eng past ko‘rsatkich nazorat nav – Kibray navida kuzatilib, o‘rtacha 130,5 sm ekanligi aniqlandi. Oq qashqarbedaning Iney navining bo‘yi esa o‘rtacha 137,4 sm bo‘lib, oraliq o‘rinni egalladi.

Barglarning suv tanqisligi. Ma’lumki, o‘simlik organizmida suv tanqisligining vujudga kelishi asosan transpiratsiya jadalligi ko‘rsatkichining ildizlar orqali suvni qabul qilish qiymatidan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan suv almashinuv xususiyatlarining buzilishi hisoblanadi. Buning natijasida o‘simlik organizmida turgor holat pasayadi, o‘sish sekinlashadi, kseromorfizm rivojlanadi [158; 740-750-b.].

Olib borilgan tadqiqotlar Xorazm viloyati sharoitida oq qashqarbedaning suvni ushlab qolish qobiliyati bo‘yicha navlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Suv stressiga nisbatan eng yuqori va barqaror moslanuvchanlikni Almaz va Voljanin navlari namoyon etdi, bu esa ularni mintaqaning ozuqa ishlab chiqarish tizimiga keng joriy etish uchun tavsiya etish imkonini beradi.

Iney navi o‘rtacha ko‘rsatkichlarni namoyon etgan bo‘lsa, nazorat navi Kibray eng past barqarorlikni ko‘rsatdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Мельникова О.В. Энергия прорастания, всхожесть и биометрические показатели проростков семян озимой пшеницы мягкой (Triticum aestivum L.) в условиях различной кислотности водной среды. Siberian Journal of Life Sciences and Agriculture. 2024, 3 (39). С.-63–74.

2.Иванов А.В., Петрова Н.Н. Влияние предпосевной обработки семян донника белого на всхожесть // Кормопроизводство. Москва. 2016. 5(46). С.-36-42.

3.Мустафина А. С. Рост и развитие лекарственных растений в условиях интродукции // Ботанический журнал. — 2017. — Т. 102, № 6. — Б. 812–820.

4.Сазонова Т. А., Колосова С. В., Исаева Л. Г. Водный режим Pinus sulvestris и Picea obovata (PINACEAE) в условиях промышленного загрязнения // Бот. журн. 2007. Т. 92, № 5. С. 740–750.

UO'K 633.511.576.312.3

G‘O‘ZANING MONOSOMIK LINIYALARNI TESTER TO‘PLAMLI TRANSLOKATSION LINIYALAR BILAN O‘ZARO CHATISHTIRISH NATIJASIDA OLINGAN DURAGAYLARDA CHIGIT TUGUVCHANLIGI VA UNUVCHANLIGI TAHLILI

Sh. Komilova, tayanch doktorant, O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent
Sh.U. Boboxujayev, PhD, O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent
M.F. Sanamyan, b.i.x., O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Gossypium hirsutum L. turiga mansub 10 ta monosomik liniyalarni 25 ta tester to‘plam translokant liniya bilan chatishtirib olingan 45 ta kombinatsiyalarida chigit tuguvchanligi va chigit unuvchaligi tahlillari amalga oshirildi. Duragay chigit tuguvchanligi ko‘rsatgichi 25,00±9,68% dan 84,78±5,30% gacha chigit unuvchanligi esa 59,09% dan 100% gacha ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *monosomik liniya, translokatsion liniya, tuguvchanligi, unuvchanlik*

Аннотация. *В данной статье проведен анализ завязываемости и всхожести семян у 45 гибридных комбинаций, полученных путем скрещивания 10 моносомных линий, относящихся к виду Gossypium hirsutum L., с тестерным набором из 25 транслокантных линий. Установлено, что показатель завязываемости гибридных семян варьировал от 25.00 ±9.68% до 84.78 ±5.30%, а всхожесть семян составила от 59.09% до 100%*

Ключевые слова: *моносомная линия, транслокационная линия, завязываемость семян, всхожесть семян.*

Abstract. *In this article, an analysis of seed setting and seed germination was carried out on 45 hybrid combinations obtained by crossing 10 monosomic lines belonging to the species Gossypium hirsutum L. with a tester set of 25 translocant lines. It was determined that the hybrid seed setting*

rate ranged from 25.00 ±9.68% to 84.78 ±5.30%, while seed germination varied from 59.09% to 100%

Keywords: *monosomic line, translocation line, seed setting, germination.*

Kirish. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi "G'o'za genetikasi va genkolleksiyasi" ilmiy laboratoriyasida jahonga mashhur noyob ilmiy ob'ekt (AQSh ning sitogenetik kolleksiyasidan keyin ikkinchi o'rinda) kolleksiyada monosomik, monotelotsentrik va translokant liniyalar yaratilgan. Kolleksion materiallari g'o'zaning *G.hirsutum* turiga mansub L-458 liniyalarining chigitlari va gulchangchisiga gamma va neytron nurlari hamda kolxitsin ishtirokida kombinirlangan tipda ta'sir etish natijasida ko'p sonli xromosom qayta qurilishlariga ega bo'lgan xromosom abberant vakillar, nurlantirishdan keyingi bo'g'inda yangi translokatsion va monosomik shakllar olishni va o'z navbatida g'o'za genomidagi turli nogomologik xromosomalarni markerlash imkonini berdi (Sanamyan, Musaev 1990;1992; Sanamyan va boshqalar 2016; Sanamyan, 2020). Ma'lumki, xromosomalarni translokatsiyalar yordamida markerlash (belgilash) - xromosomalari morfologik jihatdan kam farq qiladigan o'simlik turlarida xromosomalarni identifikatsiya qilishning (aniqlashning) qulay usuli hisoblanadi (Эллиот, Дишлер 1961; 1983). O'zbekiston Milliy universitetida nurlantirishning turli usullaridan foydalangan holda g'o'zaning yangi translokatsion liniyalari seriyasini olish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi (Sanamyan et al., 1990; 2014).

bo‘g‘ini hisoblanadi. Har bir trofik guruh organik moddalarning parchalanishi va mineralizatsiya jarayonlarida faol ishtirok etib, moddalar aylanishini ta’minlaydi. Xususan, bakteriofag nematodalar mikroorganizmlar faoliyatini tartibga solish orqali azot aylanishini tezlashtiradi va tuproq unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tuproq nematodalari jamoasining ekologo-trofik xususiyatlarini o‘rganish tuproq ekotizimining ichki jarayonlarini ochib beruvchi muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib, ekologik monitoringni amalga oshirish, agroekotizimlarni barqaror boshqarish va tuproq unumdorligini oshirishda ishonchli nazariy hamda amaliy asos yaratadi.

Tadqiqot materiali va uslublari.

Tadqiqot hududi. Bobotog‘ tizmasi — O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan muhim tog‘ tizimlaridan biri bo‘lib, u asosan Surxondaryo viloyati hududida, qisman esa Tojikiston bilan chegaradosh mintaqalarda joylashgan. Ushbu tizma Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Bobotog‘ tizmasining o‘rtacha balandligi 1500–2000 metr atrofida bo‘lib, ayrim cho‘qqilari bundan ham balandroq. Relyefi asosan o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar, qir-adirlar va daralardan iborat. Tog‘ yonbag‘irlari ko‘pincha tik bo‘lib, ayrim hududlarda eroziya jarayonlari kuchli rivojlangan.

Iqlimi kontinental bo‘lib, yozlari issiq va quruq, qishlari esa nisbatan yumshoq o‘tadi. Yillik yog‘in miqdori 170 mm dan 350-400 mm gacha yetishi mumkin. Yog‘in miqdori balandlikka qarab o‘zgaradi: pastki hududlarda kamroq, yuqori qismlarda esa ko‘proq yog‘in tushadi. Bu esa o‘simlik qoplami va tuproq shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.



38°01'26.48"N 68°09'24.41"E
38°02'14.57"N 68°12'04.56"E
38°03'47.66"N 68°11'54.61"E
38°05'42.26"N 68°15'27.16"E
38°05'57.93"N 68°16'00.87"E
38°10'37.39"N 68°17'58.73"E

1-rasm. Tadqiqotlar olib borilgan hudud xaritasi va koordinatalari

O‘simlik dunyosi balandlik mintaqalanishiga mos ravishda shakllangan. Pastki zonalarda yarim cho‘l va dasht o‘simliklari (efemerlar, sho‘ralar), o‘rta balandliklarda butazor va siyrak o‘rmonlar, yuqori qismlarda esa tog‘ o‘tloqlari uchraydi. Bu hudud ayrim dorivor va endemik o‘simlik turlari bilan ham ahamiyatlidir.

Hayvonot dunyosi ham xilma-xil bo‘lib, bu yerda turli kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va ayrim yirtqich sutemizuvchilar yashaydi. Tog‘ ekotizimi ko‘plab umurtqasiz hayvonlar, jumladan tuproq nematodalari uchun ham qulay yashash muhiti hisoblanadi [11].


Tuproq va o’simlik namunalarini yig’ish, nematodalarni ajratib olish. Namunalar Bobotog’ tizmasining turli balandlik mintaqalarida tarqalgan ko’p yillik o’simliklar (otquloq, bo‘tako‘z, shirach, karrak, kovrak, misvoq, qo‘ziquloq, andiz) va ularning rizosfera tuprog’idan olindi. Namunalar olinadigan o’simliklar oralig’i 40-50 metrni tashkil etdi. Umumiy holatda tog’ tizmasidan 128 ta tuproq va o’simlik namunalari to’plandi. Tuproq namunalari har bir nuqtadan 0-20 sm chuqurlikda 500 gramm miqdorida olinib yaxshilab aralashtirildi va begona jismlar (tosh bo’laklari, yog’och qoldiqlari) olib tashlandi. Aralashgan tuproqlardan tarozida 100 gramdan tortib olinib nematodalarni ajratib olishga tayyorlandi. O’simlikning vegetativ a’zolaridagi nematodalarni ajratib olish uchun ildiz va yer ustki qism 0.5-1 sm o’lchamda maydalandi.

Nematodalar namunalardan modifikatsiyalangan Bermanning voronkali metodi [8] yordamida ajratib olindi. Ushbu usulda tuproq va ildiz namunalari 14-15 soat davomida suv voronkalarida qoldirildi. Bundan tashqari, nisbatan katta tuproq nematodalarini ajratish uchun flotatsiya qo'llanildi.

Nematodalar tuproq namunalaridan flotatsiya usuli bilan ajratib olindi. Buning uchun bir nechta 300-500 ml li idishlar olinadi va bitta namunadan 10-15 (20) g tuproq ulardagi suvda eritiladi va chayqatiladi. Keyin chayqatilgan eritmaning suyuq qismi keyingi idishga quyiladi. Bu jarayon 5-6 marta takrorlanadi. Nematodalar tuproqdan yengilroq va eritma yuzasiga chiqadi. Bu usul, ayniqsa, katta nematodalarni (*Mononchus, Xiphinema, Criconemoides*) ajratish uchun foydalidir [2]. Ekstraktsiya qilingan nematodalar 4% formalin eritmasida fiksatsiya qilindi. Ichki organlarning ko'rinishini yaxshilash uchun namunalar 18-20 soat davomida glitserin-spirtli (1:1) eritmada saqlandi. Tozalangan nematodalar vaqtinchalik va doimiy mikroskop preparatlarini tayyorlash uchun ishlatilgan. Doimiy o'rnatmalar glitserin-jelatin muhiti yordamida tayyorlangan. Kuzatuvlar yorug'lik mikroskoplari (MBI-1, MBI-3, AS ONE SL-700-LED, Micromed MC-2-ZOOM Digital) ostida o'tkazildi. Turlarni aniqlash morfologik va morfometrik xususiyatlarga asoslangan holda, standart taksonomik aniqlagichlarga amal qilingan [10], Tylenchida turkumiga mansub turlarni aniqlash uchun qo'shimcha manbalardan foydalanilgan [7]. Aniqlangan nematodalarning taksonomik tasnifi Hodda (2022) tomonidan taklif qilingan tizimga muvofiq amalga oshirildi [4]. Trofik guruhlash Yeates va boshqalar (1993) tomonidan ishlab chiqilgan va nematologlar tomonidan qabul qilingan tasnifga asoslanildi [9].

Natijalar. Bobotog' tizmasida o'suvchi ko'p yillik o'simliklar nematodafaunasini o'rganish uchun olib borilgan tadqiqotlar davomida nematodalarning 91 turi qayd qilindi. Aniqlangan turlarning taksonomik va ekologik tahlili o'tkazildi. Qayd qilingan turlar Nematodalar tipining Adenophorea va Secernentea sinflarining 8 ta turkumlariga (Triplonchida, Dorylaimida, Mononchida, Monhysterida, Araeolaimida, Rhabditida, Aphelenchida, Tylenchida) mansub ekanligi ma'lum bo'ldi. Mavjud turlar oziqlanish xususiyati va o'simliklar bilan bog'langanlik darajasiga ko'ra 5 ta ekologik guruhlarga ajratildi, o'z navbatida bu guruhlar yana bir nechta kichik guruhlardan iborat bo'ldi. Quyida Bobotog' tizmasidagi ko'p yillik o'simliklar nematodafaunasining ekologik tahlilini keltiramiz.

Bakteriotroflar. Tuproqda yashovchi va asosan bakteriyalar bilan oziqlanuvchi erkin hayot kechiruvchi nematodalardir. Ular organik moddalarga boy muhitda faol bo'lib, bakteriyalar sonini tartibga soladi va parchalanish jarayonini tezlashtiradi. Shu orqali oziqa elementlarining mineralizatsiyasiga hissa qo'shadi va tuproq unumdorligini oshiradi. Bunday nematodalar ko'pincha Rhabditidae va Cephalobidae oilalariga mansub bo'ladi. Bizning tadqiqotlarda mazkur guruhning 32 turi aniqlanib, dominant ekologik guruh sifatida qayd qilindi. Ushbu turlar *Acrobeles, Acrobeloides, Alaimus, Cephalobus, Cervidellus, Chilolacus, Diploscapter, Eucephalobus, Heterocephalobus, Monhystera, Panagrolaimus, Pelodèra, Plectus, Proteroplectus, Prismatolaimus, Rhabditis* avlodlari vakillaridan iborat bo'ldi. Bakteriotroflar asosan rizosfera tuprog'ida uchratilgan bo'lsada *Acrobeles* va *Rhabditis* avlodlari turlari kam sondagi individlari bilan o'simliklarning vegetativ organlarida ham qayd qilindi.



2-rasm. Nematodalarning ekologik guruhlari va ularning uchrash darajasi (turlar soni bo'yicha)

Mikogelmintlar – tuproqda yashovchi va asosan zamburug‘ gifalari yoki mitselliysi bilan oziqlanuvchi erkin hayot kechiruvchi organizmlardir. Ular zamburug‘ gifalarini iste'mol qilib, ularning rivojlanishini tartibga soladi va organik moddalarning parchalanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu orqali tuproqdagi oziqa moddalari aylanishiga hissa qo‘shadi. Shunday bo'lsada ayrim manbalarda mikofag zamburug'lar o'simlikka kimyoviy jihatdan ta'sir etmasdan ixtisoslashmagan fitogelmintlar sifatida e'tirof etilib, o'simlikning sog'lom to'qimalari bilan oziqlanishi va trofik ta'sir etishi qayd qilingan. Mikofag nematodalar ko‘pincha Aphelenchidae va Aphelenchoididae oilalariga mansub bo‘ladi. Bobotog' tizmasida qayd qilingan mikofag nematodalar *Aphelenchoides, Aphelenchus, Diphtherophora, Leptonchus, Nothotylenchus, Paraphelenchus* va *Tylenchus* avlodlariga mansub 12 turdan iborat bo'ldi.

Yirtqich nematodalar — tuproqda yashovchi boshqa mayda organizmlar, jumladan nematodalar va ularning lichinkalari va protozoalar bilan oziqlanuvchi erkin hayot kechiruvchi organizmlardir. Ular o‘ljasini faol tutib, maxsus rivojlangan og‘iz apparati yordamida iste'mol qiladi. Yirtqich nematodalar tuproq ekotizimida populyatsiyalarni nazorat qilib, biologik muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu guruhga ko‘pincha Mononchidae va Dorylaimidae oilalari vakillari kiradi. Olib borilgan tadqiqotlarda yirtqich nematodalarning 6 turi qayd qilinib, mazkur turlar *Aporcelaimus, Clarkus, Mononchus, Mylonchulus* va *Nygolaimus* avlodlari vakillaridan iborat bo'ldi.

Politrof nematodalar — oziqlanishi turlicha bo‘lgan, ya'ni bir nechta oziqa manbalaridan (bakteriyalar, zamburug‘lar va ba'zan o‘simlik qoldiqlari) foydalana oladigan erkin hayot kechiruvchi nematodalardir. Ular muhit sharoitiga qarab oziqlanish turini o‘zgartira oladi va shu sababli ekologik jihatdan moslashuvchan hisoblanadi. Politrof nematodalar tuproqdagi modda aylanishida ishtirok etib, ekotizim barqarorligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot hududida ushbu guruhga mansub *Diplogaster, Dorylaimoides, Enchodelus, Enchodorella, Eudorylaimus* va *Laimodorus* avlodlarining 9 turi qayd qilindi.

O'simlikning tirik to'qimalari bilan oziqlanuvchi va o'simliklarda turli patogen holatlarni yuzaga keltirib chiqaruvchi nematodalar parazit fitogelmintlar guruhiga kiritildi. Ushbu guruh o'z navbatida 3 ta kichik guruhlarga mansub bo'ldi. Jumladan ektoparazitlar, migratsiya qiluvchi endoparazitlar va o'troq endoparazit nematodalar. O'rganilgan nematodalar jamoasi tarkibida ektoparazitlar kichik guruhi 22 turdan iborat bo'ldi. **Ektoparazit nematodalar** *Aglenchus, Aphelenchoides, Aphelenchus, Bitylenchus, Criconemoides, Filenchus, Helicotylenchus, Lelenchus, Merlinius, Paratylenchus, Rotylenchus, Tylenchorhynchus* va *Xiphinema* avlodlariga mansub bo'ldi. Ushbu parazitlar orasida ektoparazitlik bilan oziqlanib, o'simliklarga zarar yetkazishdan tashqari o'zimliklar uchun xavfli, patogen viruslarni tashuvchi *Criconemoides* va *Xiphinema* avlodi turlarining ham qayd etilishi diqqatga sazovor. Parazit fitogelmintlarning ikkinchi kichik guruhi migratsiyalanuvchi endoparazitlar 8 turdan iborat bo'ldi. Ushbu guruh nematodalari rivojlanishning dastlabki bosqichi tuproqda boshlanib, so'ngra o'simlikning o'tkazuvchi to'qimasi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi va poya, barg, gul, meva hamda urug'larda yashab parazitlik qiladi. Tadqiqotlar davomida *Ditylenchus, Pratylenchus, Heteroanguina* va *Mesoanguina* avlodlariga mansub migratsiyalanuvchi endoparazitlar qayd qilindi. **O'troq endoparazitlar** kichik guruhi esa faqatgina 2 turdan (*Meloidogyne arenaria* va *M.javanica*) iborat bo'ldi. Ildiz bo'rtma nematodalaridan *M.arenaria* tadqiqot hududida o'suvchi otquloq va karrak o'simligini, *M.javanica* esa karrak o'simligini zararlashi qayd etildi.

Xulosa. Bobotog‘ tizmasida tarqalgan ko‘p yillik yovvoyi o‘simliklar nematodafaunasini o‘rganish natijasida nematodalarning 91 turi aniqlanib, ular 5 ta asosiy ekologo-trofik guruhlarga mansubligi qayd etildi. Tadqiqot hududida bakteriotrof nematodalar tur tarkibi jihatidan dominant guruhni tashkil etdi. Shu bilan birga, mikogelmintlar, yirtqichlar, politroflar hamda parazit fitogelmintlarning mavjudligi tog‘ ekotizimining murakkab va barqaror trofik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatdi. Aniqlangan fitoparazit nematodalar orasida o‘simliklar uchun xavfli bo‘lgan ayrim virus tashuvchi va bo‘rtma hosil qiluvchi turlar ham qayd qilindi. Olingan ma'lumotlar kelgusida tog‘ agroekotizimlarini monitoring qilish va biologik jihatdan barqaror boshqarish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bhusal D.R., Kallimanis A.S., Tsiafouli M.A., Sgardelis S.P. Higher taxa vs. functional guilds vs. trophic groups as indicators ofsoil nematode diversity and community structure. Ecological Indicators. 2014, 41. P. 25–29.
2. Coyne D.L., Nicol J.M., Claudius-Cole B. Practical Plant Nematology: A Field and Laboratory Guide. 3rd Edition. International Institute of Tropical Agriculture (IITA), Ibadan, Nigeria. 2018.
3. Ferris H. Form and function: Metabolic footprints of nematodes in the soil food web. European Journal of Soil Biology. 2010, 46. P. 97-104. https://doi:10.1016/j.ejsobi.2010.01.003
4. Hodda M. Phylum Nematoda: A classification, catalogue, and index of valid genera, with a census of valid species. Zootaxa. 2022, 5114 (1). P. 1-289. https://doi.org/10.11646/zootaxa.5114.1.1.
5. Procter D.L.C. Global overview of the functional roles of soil-living nematodes in terrestrial communities and ecosystems. Journal of Nematology. 1990, 22. P.1-7
6. Ritz K., Trudgill D. Utility of nematode community analysisas an integrated measure of the functional state of soils: perspectives and challenges. Plant Soil. 1999, 212. P. 1–11.
7. Siddiqi M.R. Tylenchida Parasites of Plants and Insects, 2nd Edition. CABI Publishing, Wallingford, 2000. https://doi.org/10.1079/9780851992020.0000.
8. Van Bezooijen J. Methods and Techniques for Nematology. Wageningen University, Wageningen. 2006.
9. Yeates G.W., Bongers T., de Goede R.G.M., Freckman D.W., Georgieva S.S. Feeding habits in soil nematode families and genera-An outline for soil ecologists. Journal of Nematology. 1993, 25 (3). P. 315-331.
10. Матвеева Е.М., Сущук А.А., Калинкина Д.С. Займль-Бухингер В.В. Методические основы изучения фитопаразитических нематод. Карельский научный центр Российской академии наук, Петрозаводск. 2018. 58 с.
11. https://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11611-surxondaryo-tabiiy-geografik-okrugi.html

UO'K 574.5 + 543.53 + 504.5

TUPROQ VA HAVO TARKIBIDAGI RADIONUKLIDLARNI ANIQLASHDA BRIOFITLARDAN FOYDALANISH (JIZZAKH VILOYATI MISOLIDA)

M.Negmatullaev, tadqiqotchi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus
X. Jalov, dots., Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti, Samarqand
F. Abdirasulov, dots., Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jizzax viloyati Forish tumanidagi sement va ohak zavodlari atrofida hamda ulardan uzoqdagi fon hududda (Navoiy viloyati, Sentob qishlog'i) o'suvchi indikator briofitlar (Funaria hygrometrica, Grimmia tergestina, Psora decipiens, Syntrichia caninervis, Grimmia orbicularis) tarkibidagi tabiiy (226Ra, 232Th, 40K) va texnogen (137Cs) radionuklidlar konsentratsiyasi gamma-spektrometrik usulda o'rganildi. Namunalar 2024-yil kuz va 2025-yil bahor fasllarida yig'ib olindi. Natijalarga ko'ra, sanoat zonalari yaqinida o'sgan briofitlarda, xususan Funaria hygrometrica va Grimmia tergestina turlarida Cs-137 va Th-232 miqdori tuproqqa nisbatan sezilarli yuqori bo'lib chiqdi, bu ularning yaxshi bioindikator ekanligini tasdiqlaydi. Fon hududda olingan namunalarda esa radionuklidlar tabiiy fon darajasida qayd etildi. Tadqiqot natijalari briofitlarning havo va tuproq ifloslanishini monitoring qilishda samarali bioindikator sifatida qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *briofitlar, bioindikator, radionuklidlar, 137Cs, 226Ra, 232Th, 40K, gamma-spektrometriya, atrof-muhit monitoringi, O'zbekiston.*

Аннотация. *В данной статье методом гамма-спектрометрии изучена концентрация природных (226Ra, 232Th, 40K) и техногенных (137Cs) радионуклидов у индикаторных видов мохообразных (Funaria hygrometrica, Grimmia tergestina, Psora decipiens, Syntrichia caninervis, Grimmia orbicularis), произрастающих вблизи цементного и известкового заводов Джизакской области, а также в фоновом районе (кишлак Сентоб, Навоийская область). Пробы отбирались осенью 2024 г. и весной 2025 г. Установлено, что у мохообразных, растущих вблизи промышленных зон, содержание Cs-137 и Th-232 заметно превышает показатели почвы, что подтверждает их пригодность в качестве биоиндикаторов атмосферного загрязнения. В фоновом районе значения радионуклидов соответствовали природному фону. Результаты показывают перспективность использования мохообразных для биомониторинга загрязнения воздуха и почвы радионуклидами.*

Ключевые слова: *мохообразные, биоиндикатор, радионуклиды, 137Cs, 226Ra, 232Th, 40K, гамма-спектрометрия, мониторинг окружающей среды, Узбекистан.*

Abstract. *This study used gamma-spectrometry to assess the concentrations of natural (226Ra, 232Th, 40K) and anthropogenic (137Cs) radionuclides in indicator bryophyte species (Funaria hygrometrica, Grimmia tergestina, Psora decipiens, Syntrichia caninervis, Grimmia orbicularis) growing near the cement and lime plants of the Jizzakh region, as well as at a background site (Sentob village, Navoi region). Samples were collected in autumn 2024 and spring 2025. Bryophytes growing near the industrial zones, particularly Funaria hygrometrica and Grimmia tergestina, showed markedly higher Cs-137 and Th-232 concentrations than the underlying soil, confirming their suitability as bioindicators of atmospheric pollution. Radionuclide levels at the background site remained within the natural background range. The results demonstrate the potential of bryophytes as effective bioindicators for monitoring air and soil radionuclide contamination.*

Key words: *bryophytes, bioindicator, radionuclides, 137Cs, 226Ra, 232Th, 40K, gamma-spectrometry, environmental monitoring, Uzbekistan.*

Rivojlangan davlatlar bugungi kunda suv, havo, va tuproq tarkibini doimiy monitoring qilib bormoqda, buning natijasida ekotizimni yomonlashishiga sabab bo‘luvchi mexanizmlar o‘rniga tabiiy ekologik vositlar bilan ishlash ustida izlanishmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-soniga ko‘ra “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20% ga qisqartirish choralari ko‘rilgan, o‘shbu farmon ijrosini amalyotga joriy qilish imkoniyatlaridan briofitlardan istiqbolli foydalanish mo‘mkin.[7.]

Bizning tadqiqotimizdan maqsad atrof-muhit havosining tozaligini baholashda briofitlardan bioindikator sifatida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish hisoblanadi, bunda biz bioindikator bo‘lgan briofitlardan foydalandik.Tabiatdagi tabiiy radionuklidlarning (TRN) asosiy hissasini U-Th tabiiy radioaktiv oilalarning α va β yemirilishi natijasida hosil bo‘luvchi qisqa yashovchi yadrolarning gamma nurlanishi hamda radioaktiv oilalarga kirmaydigan tabiiy radioaktiv izotop kaliy ^{40}K tashkil qiladi. Bundan tashqari og‘ir yadrolar bo‘linishida (yadroviy reaktorlardagi chiqindilar va turli xil yadroviy sinovlar) hosil bo‘ladigan texnogen radionuklid seziy ^{137}Cs va kosmik va gollaktil nurlanishlardan hosil bo‘ladigan kosmogen radionuklid berilliy ^{7}Be o‘z hissasini qo‘shadi. Kosmogen radionuklidlar atmosferada paydo bo‘lib, keyin yer yuziga chang, qor, yomg‘ir, shudring orqali tushadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, turli kosmogen yoki texnogen usulda yig‘ilgan radionuklidlar va ulardan hosil bo‘ladigan hosilaviy nuklidlarning organizmga tasiri va ushbu elementlarni ekosistemadagi miqdoriy holatini aniqlab borish muhim va dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanmoqda.

Ma’lumki briofitlarda ildiz tizimi rivojlanmaganligi sababli har qanday substrat tabiatida o‘sa oladi, hamda keng adabtatsiya xususyatiga ega bo‘laganligi uchun har xil ekologik sharoitlarda yashay oladi, keng yuzaga egaligi va ildiz sistemasining yo’qligi turli substratlarda o’sishga imkon bersa sporalari keng tarqalish diapozoniga ega [4,5,] Masalan: Funaria hygrometricaning filamentli protonemal hujayralari ikki valentli qo‘rg‘oshin (Pb) ni o‘z ichiga olgan eritmalar ta’sirida tanasining quruq og‘irligining 74% gacha, (Pb) to‘plashi mumkin [6]. “Briofitlarni suv va atrof-muhit bilan munosabatlari bir parcha qog‘ozga o‘xshaydi”, “Tosh ustiga bir varaq qog‘oz qo‘ysangiz, yomg‘ir yog‘sa, ho‘l bo‘lib, quyosh chiqishi bilanoq quriydi. Bu esa briofitlarning biologiyasi” - deydi Berkli Kaliforniya universiteti botanik olimi Brent Mishler. Shuningdek ushbu o’simliklar elementlarni tashqi yuzasi bilan yaxshi o’zlashtiradi [8,9,10].

Tadqiqot metodologiyasi tekshirilgan briofitlarninglarning gamma-spektrida ^{232}Th, ^{226}Ra, ^{40}K, ^{137}Cs, va ^{7}Be radionuklidlarining fotocho‘qqilari aniqlandi. Ularning gamma-aktivliklari OMACH majmuasidagi etalon ^{137}Cs, ^{40}K, ^{226}Ra va ^{212Th} radionuklidlarning spektrlari bilan solishtirish orqali hisoblandi [2]. Shuningdek indikator turlarni idintifikatsiyasi va ahamiyati aniqlagich [3,13,14] va monografiya [1,12] ma’lumotlari inobatga olindi.

Namuna quruq – havo usulida quritiladi va boshqa turli o'tlardan tozalanadi, qurugan namuna iloji boricha namuna miqdorini (massasini) yuqotmasdan maxsus idishga solinib maydalanadi va teshigining diametri 3 mm metall elakdan elaklanadi.

Tekshiriladigan namunalar xajmi 1 l bo'lgan Marinelli idishiga belgilangan chizig'igacha to'ldiriladi va idish qopqog'i germetik mahkamlanadi:

har bir namuna massasini aniqligi 10 grammli taroziga o'lchab olinadi

-tayyorlangan namunalarning gamma-spektri hajmi Ø 80x80 mm NaI(Tl)

-kristalli ssintillyatsion gamma-spektrometrda o'lchab olinadi.Gamma - spektrometrning ajrata olish qobiliyati ^{137}Cs 661 KeV energiyada gamma chizig'i uchun 8% tashkil qiladi.

O'lchash vaqti t=6 soat.

-spektri tahlil qilish va qayta ishlash 4096 kanalli analizator rejimida ishlovchi kompyuterning ASW (RADEK) dasturida amalga oshirildi.

^{7}Be ning solishtirma aktivligi 478 keV energiyali fotocho'qqisi asosida aniqlandi.

Tekshirilgan briofitlarning gamma-spektrida ^{232}Th, ^{226}Ra, ^{40}K, ^{137}Cs, va ^{7}Be radionuklidlarining fotocho'qqilari aniqlandi. Ularning gamma-aktivliklari OMACH majmuasidagi etalon ^{137}Cs, ^{40}K, ^{226}Ra va ^{232}Th radionuklidlarning spektrlari bilan solishtirish orqali hisoblandi.

Yuqoridagi xalqaro darajada olib borilgan biomonitoring ishlaridan ma'lumki mo'xlar atrof muhit ifloslanish darajasini ko'rsatuvchi tabbiy indikatorlar bo'lib hisoblanadi.Biomonitoring xususiyatini aniqlash va havo va tuproq tarkibidagi radionuklidlarni aniqlash maqsadida biz tanlab olgan akrokarp mo'xlar ham O'zbekiston mintaqasida keng tarqalgan va katta adaptatsion arealga ega bo'lgan turlar hisoblanadi quyidagi jadvalda Jizzax Forish tumanida joylashgan Sement va Oxak zavodlar atrofidan kuz fasli ikkinchi dekadasidan keyin yig'ib olingan indicator turlar va ular tarkibidagi radionuklidlar miqdori ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

Namunalar tarkibidagi tabiiy (TRN) va texnogen radionuklidlarning (232Th, 226Ra, 40K, 137Cs va 7Be) konsentratsiyasi Namunalarning solishtirma aktivligi (A±ΔA) Bk/kg


Namuna nomi	Yuza va qiyalik	O'sish muhiti	^{226}Ra (Bk/kg)	^{232}Th (Bk/kg)	^{40}K (Bk/kg)	^{137}Cs (Bk/kg)
(21.10.2024) Jizzax-Sement zavod, Koor:40°21'01.7"N 67°29'36.0"E						
Tuproq	730 sm^2 5%	Tuproq	28,3±4,8	18,4±3,0	321,8±35,0	<1,3
Funaria hygrometrica Hedw.	730 sm^2 5%	Tuproq	46,3±7,5	32,7±4,3	490,7±51,0	85,0±8,3
Grimmia tergestina Tomm. ex Bruch & Schimp.	730 sm^2 70%	Tosh	36,1±9,5	13,1±4,3	239,7±45,0	6,9±3,5
Psora decipiens (Hedw.) Hoffm.	730 sm^2 70%	Tosh	36,1±9,7	44,7±8,9	412,6±66,0	63,6±9,4
	(21.10.2024) Jizzax-Oxak zavod, Koor: 40°21'01.7"N 67°29'36.0"E					
Syntrichia caninervis Mitt.	730 sm^2 20%	Tuproq	26,3±4,0	15,1±2,0	248,2±25,0	6,3±1,0
Grimmia orbicularis Bruch ex Wilson	730 sm^2 20%	Tosh	51,8±7,5	27,6±3,7	399,3±42,0	32,5±3,6

Namuna spektri

Ushbu 1-jadvalda Jizzax Sement va Ohak zavodlari hudida atrofidan 1000 metrdan uzoq mo'lmagan masofan kuz faslida (21.10.2024) 730 sm^2 dan qiyalik darajasi 5% dan 70 % gacha bo'lgan turli substartlardan yig'ib olingan indicator mo'xlar tarkibidagi radionuklidlar tekshirilganda ushbu natijaga hosil bo'ldi bunda tuproqda: Ra-226 (28,3 Bk/kg) va Th-232 (18,4 Bk/kg) tabiiy fon darajasida, K-40 (321,8 Bk/kg) esa mineral tarkibga mos. Cs-137 < 1,3 Bk/kg — bu texnogen ya'ni suniy radionuklidning past darajasini ko'rsatadi.

Funaria hygrometricada: Ra-226 va Th-232 miqdori tuproqdan yuqori, Cs-137 (85 Bk/kg) sezilarli darajada ko'tarilgan bu sanoat changi va atmosferik cho'kindilarning bioakkumulyatsiyasini bildiradi va muhit havosini tabiiy filteri ekanligini ko'rsatadi.

Grimmia tergestina va *Psora decipiens*: Tosh yuzasida o‘suvchi indikatorlar bo‘lib, Th-232 va Cs-137 miqdorlari yuqori (44,7 Bk/kg va 63,6 Bk/kg). Bu tosh sirtida radionuklidlarning adsorbsiyasi kuchli ekanini ko‘rsatadi.



1-rasm. Kuz faslida olingan namunalar spektri (1-jadvalga tegishli)

Xulosa qilib aytganda 2024-yil kuzida sanoat zonalarida ayniqsa bioindikatorlar tarkibida radionuklidlar to‘planishi kuzatilgan, REM hisobida bu qiymatlar tabiiy fon chegarasidan biroz yuqori, ammo sog‘liq uchun xavfli darajaga yetmagan.[11]

Yog’in sochinlar va ularning mo’xlarga nisbatan adsorbsion xususiyatiga ta’sirini aniqlash va mavzumiy kuzatuv xuloslarini olish maqsadida biz ushbu tur namunalari aynan kuzda olingan holatda takrorlandi natijalarni esa quyidagi (2-jadval) jadvalda keltirildi.

2-jadval

Namunalar tarkibidagi tabiiy (TRN) va texnogen radionuklidlarning (232Th, 226Ra, 40K, 137Cs va 7Be) konsentratsiyasi


Namunalarning solishtirma aktivligi (A±ΔA) Bk/kg

Namuna nomi	**Yuza va qiyalik**	**O’sish muhiti**	Ra-226	Th-232	K-40	Cs-137
(30.03.2025) Jizzax-Sement zavod, koor:40°21'01.7"N 67°29'36.0"E						
Tuproq	730 sm^2 5%	Tuproq	23,8 ± 2,3	38,8 ± 3,9	413,8 ± 41	9,1 ± 0,9
Funaria hygrometrica Hedw.	730 sm^2 5%	Tuproq	43,1 ± 9,3	27,1 ± 4,6	378,9 ± 54	< 7,1
Grimmia tergestina Tomm. ex Bruch & Schimp.	730 sm^2 70%	Tosh	< 35	58,1 ± 11	579,3 ± 110	86,5 ± 12
(30.03.2025) Jizzax-Oxak zavod, koor: 40°21'01.7"N 67°29'36.0"E						
Syntrichia caninervis Mitt.	730 sm^2 20%	Tuproq	22,7 ± 2,8	10,1 ± 1,3	292,7 ± 28	11,1 ± 1,2
Grimmia orbicularis Bruch ex Wilson	730 sm^2 20%	Tosh	58,8 ± 256	< 23,1	277,6 ± 99	< 11,4

Namuna spektri

Ushbu jadvalda keltirilganidek Jizzax Sement va Ohak zavodlari atrofidan kuz faslida olingan kuzatuv nuqtalaridan namunalar olish bahor faslida (30.03.2025) takroriy olindi va natijalarda biroz o’zgarisglar kuzatildi xususan. Tuproqda: Ra-226 (23,8 Bk/kg) kamaygan, ammo Th-232 (38,8 Bk/kg) ortgan. Bu shamol va suv eroziyasi natijasida turli qatlamlarning ochilishi bilan izohlanasa quyidagi indikator turlar tarkibida jumaladan

Funaria hygrometrica: Ra-226 (43,1 Bk/kg) yuqori, Cs-137 < 7,1 Bk/kg- bu sun’iy radionuklidning kamayganini bildiradi.



2-rasm. Kuz faslida olingan namunalar spektri (2-jadvalga tegishli)

Grimmia tergestina: Th-232 (58,1 Bk/kg) va Cs-137 (86,5 Bk/kg) da juda yuqori bu esa bahor yog‘inlari bilan sanoat changining yuvilishi va qayta cho‘kishi natijasida yuzaga kelgan.

Ohak zavodi namunalarida *Syntrichia caninervis* va *Grimmia orbicularis* turlarida Ra-226 past, ammo K-40 o‘rtacha darajada (277–399 Bk/kg) ekanligini ko’rish mumkin xulosasifatida aytish mumkinki bahor faslida Th-232 va Cs-137 miqdorlari ortgan, bu atmosferik omillar va sanoat korxonalarining mavsumiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Shuningdek ushbu natijalar sanot korxonalari sement va oxak zavodlar atrofidan olingan natijalar bo’lsa keyingi qadamda biz aynan ushbu indicator turlardan ichidan *Grimmia orbicularis* namunalarini ushbu sanoat korxonalaridan 80 km dan ortiq masofada joylashgan Navoi viloyati Sentob qishlog’ida hudidan radionuklidlarni solishtirma farqini aniqlash maqsadida yoz faslida yig’ib olindi va natijalarni tahlil etildi va natijalar quyidagi jadvalda (3-jadval) keltirildi.

3-jadval

Namunalar tarkibidagi tabiiy (TRN) va texnogen radionuklidlarning (232Th, 226Ra, 40K, 137Cs va 7Be) konsentratsiyasi

Namunalarning solishtirma aktivligi (A±ΔA) Bk/kg

Namuna nomi	Yuza va qiyalik	O’sish muhiti	Ra-226	Th-232	K-40	Cs-137
(25.08.2025) Navoyi Sentop qishlog’i, koor: 40°34'48.1"N 66°39'26.7"E						
Grimmia orbicularis Bruch ex Wilson	730 sm^2 10%	Tosh	30.223±13	27.322±4.5	543.39±52	52.29±7.2

Ushbu jadval natijalarei sanoatsiz, tabiiy fon hududi bo’lishiga qaramasdan

Grimmia orbicularis: Ra-226 (30,2 Bk/kg), Th-232 (27,3 Bk/kg), K-40 (543 Bk/kg), Cs-137 (52 Bk/kg) ko’rsatgichda bu qiymatlar tabiiy fon darajasida, ammo K-40 biroz yuqori bu minerallarga boy tosh tarkibidan kelib chiqadi. Cs-137 mavjudligi atmosferik global cho‘kindilardan kelib chiqqan.

Olib borilgan tadqiqot natijalari briofitlarning tuproq va havo tarkibidagi tabiiy hamda texnogen radionuklidlarni aniqlashda samarali bioindikator ekanligini tasdiqladi. Sement va ohak zavodlari atrofida yig‘ib olingan namunalarda, ayniqsa *Funaria hygrometrica* va *Grimmia tergestina* turlarida Cs-137 va Th-232 miqdori tuproqqa nisbatan bir necha barobar yuqori bo‘lib chiqdi, bu esa ularning sanoat changi va atmosferik cho‘kmalarni akkumulyatsiya qilish qobiliyati yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Kuz va bahor fasllari o‘rtasidagi taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, yog‘in-sochin va mavsumiy omillar radionuklidlarning briofitlar tarkibida to‘planish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi bahorda Th-232 va Cs-137 miqdorining ortishi sanoat changining yuvilib, qayta cho‘kishi bilan izohlanadi.

Sanoat zonalaridan 80 km uzoqlikda joylashgan fon hududda (Sentob qishlog‘i) olingan *Grimmia orbicularis* namunalarida barcha radionuklidlar tabiiy fon darajasida bo‘lib, bu sanoat manbalarining faqat mahalliy ta’sirga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Shunday qilib, akrokarp mo‘xlar, xususan *Funaria hygrometrica, Grimmia tergestina* va *Grimmia orbicularis*, O‘zbekiston sharoitida havo va tuproqning radionuklidlar bilan ifloslanishini arzon va samarali monitoring qilish uchun istiqbolli bioindikator sifatida tavsiya etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda namunalar sonini va geografik qamrovni kengaytirish, shuningdek mavsumiy dinamikani ko‘p yillik kuzatuvlar orqali tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abdirasulov, F. A. (2023). *Shimoliy Turkiston brioflorasi va uning bioekologik tavsifi* [Monografiya]. Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti.

2. Azimov, A. N., Hushmuradov, Sh. Kh., Muminov, I. T., et al. (2008). Gamma-spectrometric determination of natural radionuclides and \(^{137}\text{Cs}\) concentrations in environmental samples: The improved scintillation technique. *Radiation Measurements*, *43*, 66–71.

3. British Bryological Society. (n.d.). *British Bryological Society Official Website*. britishbryologicalsociety.org.uk

4. Govindapyari, H., Leleeka, M., Nivedita, M., & Uniyal, P. L. (2010). Bryophytes: Indicators and monitoring agents of pollution. *Journal of Environmental Biology*, *31*, 35–41.

5. Hayes, F., Sharps, K., & Participants of the moss survey. (2024). *Mosses as biomonitors of air pollution: 2020/2021 survey on heavy metals, nitrogen and POPs in Europe and beyond*. UK Centre for Ecology & Hydrology; ICP Vegetation.

6. Itouga, M., Hayatsu, M., Sato, M., Tsuboi, Y., Kato, Y., Toyooka, K., Suzuki, S., Nakatsuka, S., Kawakami, S., Kikuchi, J., & Sakakibara, H. (2017). Protonema of the moss *Funaria hygrometrica* can function as a lead (Pb) adsorbent. *PLOS ONE*, *12*(12), Article e0189726. doi.org

7. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g'risida* [PF-60-son Farmon]. Lex.uz. lex.uz

8. Philibert, H. (1899–1900). Brya de L'Asie Centrale. *Revue Bryologique*, *26*(1,2,4,5), 1–13; *27*(2,4,5), 1–13.

9. Turetsky, M. R. (2003). The role of bryophytes in carbon and nitrogen cycling. *The Bryologist*, *106*(3), 395–409.

10. Wolterbeek, B. (2002). Biomonitoring of trace element air pollution: Principles, possibilities and perspectives. *Environmental Pollution*, *120*(1), 11–21.

11. Ministry of Health of the Russian Federation. (2001). On enactment of sanitary rules (Resolution No. 36 of the Chief State Sanitary Inspector of the Russian Federation). Registered with the Ministry of Justice of the Russian Federation on March 22, 2002, No. 3326.

12. Жалов, Х. Ҳ. (2021). *Мохообразные среднего течения бассейна реки Зарафшан* [Монография]. Изд-во СамГУ.

13. Игнатов, М. С., Игнатова, Е. А., Федосов, В. Э., Иванова, Е. И., Блом, Х. Х., Муньос, И., Беднарек-Охыра, Х., Афонина, О. М., Курбатова, Л. Е., Чернядьева, И. В., & Черданцева, В. Я. (2017). *Флора мхов России. Том 2: Oedipodiales – Grimmiales* (М. С. Игнатов, Ред.). Товарищество научных изданий КМК.

14. Игнатов, М. С., Игнатова, Е. А., Федосов, В. Э., Золотов, В. И., Копонен, Т., Чернядьева, И. В., Дорошина, Г. Я., Тубанова, Д. Я., & Белл, Н. Э. (2018). *Флора мхов России. Том 4* (М. С. Игнатов, Ред.). Товарищество научных изданий КМК.

UO’K 582.28:582.711(575.144)

ZARAFSHON MILLIY TABIAT BOG‘IDA TARQALGAN ROSACEAE JUSS. OILASI QISMIDA UCHROVCHI MIKROMITSETLARNING TUR TARKIBI

G.K.Norimova, tadqiqotchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov
G.F.Umurzakova, tadqiqotchi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat univeristeti, Samarqand
Z.I.Umurzakova, prof., Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat univeristeti, Samarqand

Annotatsiya. *Maqolada Zarafshon milliy tabiat bog‘i sharoitida tarqalgan Rosaceae Juss. oilasi vakillarida uchraydigan mikromitsetlarning tur tarkibi va taksonomik tuzilishini o‘rganish natijalari keltirilgan. 2024–2025-yillardagi tadqiqotlar davomida ra'nodoshlar oilasiga mansub o‘simliklarda Ascomycota va Basidiomycota bo‘limlariga kiruvchi jami 7 turdagi fitopatogen mikromitset aniqlandi. Patogenlarning xo‘jayin-o‘simliklar bilan bog‘liqligi tahlil qilinib, hudud fitosanitar holatini monitoring qilish va biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.*

Kalit so‘zlar: *Zarafshon milliy tabiat bog‘i, Rosaceae, mikromitsetlar, tur tarkibi, un-shudring, zang zamburug‘lari, fitopatologiya, parazitlar.*

Аннотация. *В статье представлены результаты изучения видового состава и таксономической структуры микромицетов, встречающихся на представителях семейства Rosaceae Juss. в условиях Зарафшанского национального природного парка. В ходе исследований 2024–2025 гг. на растениях семейства розоцветных было выявлено 7 видов фитопатогенных микромицетов, принадлежащих к отделам Ascomycota и Basidiomycota. Проанализирована связь патогенов с растениями-хозяевами, сформулированы научные выводы по мониторингу фитосанитарного состояния территории и сохранению биологического разнообразия.*

Ключевые слова: *Зарафшанский национальный природный парк, Rosaceae, микромицеты, видовой состав, мучнистая роса, ржавчинные грибы, фитопатология, паразиты.*

Abstract. *The article presents the results of studying the species composition and taxonomic structure of micromycetes occurring on representatives of the Rosaceae Juss. family in the Zarafshan National Nature Park. During the research conducted in 2024–2025, a total of 7 species of phytopathogenic micromycetes belonging to the Ascomycota and Basidiomycota phyla were identified on the host plants of the rose family. The relationship between the pathogens and their host plants was analyzed, and scientific conclusions were formulated for monitoring the phytosanitary status of the area and conserving biological diversity.*

Keywords: *Zarafshan National Nature Park, Rosaceae, micromycetes, species composition, powdery mildew, rust fungi, phytopathology, parasites.*

Kirish. Zamburug‘lar tirik organizmlar orasida biologik xilma-xilligi, ekologik funksiyalari va o‘simliklar bilan o‘zaro munosabatlarining murakkabligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mikromitsetlar o‘simliklarning turli organlarida rivojlanib, ularning fiziologik holati, mahsuldorligi va tabiiy populyatsiyalarining barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Fitopatogen mikromitsetlar o‘simliklarda zang, unshudring, barg dog‘lanishi, nekroz va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarib, tabiiy hamda madaniy fitotsenozlarning tarkibi va tuzilishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy ekotizimlarning fitosanitar holatini baholash hamda o‘simliklar bilan bog‘liq mikobiotani o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Tabiiy hududlarda uchrovchi mikromitsetlarning tur tarkibini aniqlash nafaqat mikologiya va fitopatologiya fanlari rivoji uchun, balki noyob va muhofaza qilinadigan o‘simlik turlarini saqlash, kasalliklarning tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish hamda ekotizimlarning ekologik barqarorligini baholashda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Rosaceae Juss. oilasi gulli o‘simliklarning yirik va keng tarqalgan oilalaridan biri bo‘lib, dunyo florasida 90 dan ortiq turkum va 3000 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi. Ushbu oilaga mansub o‘simliklar orasida mevali, dorivor, manzarali va yovvoyi turlar keng tarqalgan. O‘zbekiston florasida ham Rosaceae oilasining ko‘plab vakillari uchrab, tabiiy fitotsenozlarning muhim komponentlari hisoblanadi. Bu o‘simliklar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va farmatsevtik ahamiyatga ham ega.

Zarafshon milliy tabiat bog‘i O‘zbekistonning noyob tabiiy hududlaridan biri bo‘lib, o‘zining boy floristik tarkibi va o‘ziga xos ekotizimlari bilan ajralib turadi. Bog‘ hududida turli ekologik sharoitlarda o‘suvchi Rosaceae oilasi vakillari keng tarqalgan. Biroq mazkur hududdagi ushbu o‘simliklarda uchrovchi mikromitsetlarning tur tarkibi, xo‘jayin-o‘simliklar bilan bog‘liqligi va tarqalish xususiyatlari hozirgacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Mavjud ma’lumotlar asosan ayrim fitopatogen turlar yoki alohida hududlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bilan cheklanadi.

Shu munosabat bilan Zarafshon milliy tabiat bog‘ida florasida uchrovchi mikromitsetlarning tur tarkibini aniqlash, ularning taksonomik mansubligini o‘rganish hamda xo‘jayin-o‘simliklar bilan aloqalarini baholash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari hudud mikobiotasini o‘rganish, fitopatogen zamburug‘larning tarqalishini aniqlash va tabiiy ekotizimlarda biologik xilma-xillikni saqlashga oid ilmiy ma’lumotlarni boyitishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Zarafshon milliy tabiat bog‘ida tarqalgan yuksak o‘simliklarda uchrovchi mikromitsetlarning tur tarkibini aniqlash, ularning taksonomik tuzilishi va xo‘jayin-o‘simliklar bilan bog‘liqligini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot manbasi va usullari. Tadqiqotlar 2024–2025-yillar davomida Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida Rosaceae Juss. oilasiga mansub yovvoyi va madaniy o‘simlik turlarida uchrovchi mikromitset zamburug‘lar tanlandi. Dala tadqiqotlari davomida kasallik belgilari kuzatilgan barg, novda, poya, gul va meva namunalaridan gerbariy materiallari yig‘ildi. Namunalarni yig‘ishda marshrut usuli hamda fitopatologik kuzatuv usullaridan foydalanildi [1].

Tadqiqot hududi Zarafshon daryosining o‘rta oqimi bo‘ylab joylashgan bo‘lib, o‘zining boy floristik tarkibi va turli ekologik sharoitlari bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar davomida Rosaceae oilasiga mansub *Rosa* L., *Crataegus* L., *Malus Mill.*, *Prunus* L., Rubus L. turkum vakillarida uchrovchi kasallik alomatlari muntazam ravishda kuzatildi hamda zararlangan o‘simlik organlaridan namunalar olindi.

Yig‘ilgan materiallarga laboratoriya sharoitida mikologik va fitopatologik tahlillar o‘tkazildi. Mikromitsetlarning morfologik tuzilishini o‘rganish uchun zararlangan o‘simlik qismlaridan vaqtinchalik preparatlar tayyorlandi. Preparatlar tayyorlashda “squash mount” usulidan foydalanildi. Bunda predmet oynasiga bir tomchi distillangan suv tomizilib, zararlangan to‘qimadan kichik bo‘lak joylashtirildi va qoplovchi oyna bilan yopilib, ehtiyotkorlik bilan ezildi. Tayyor preparatlar yorug‘lik mikroskopida turli kattalashtirishlarda (×100, ×400) o‘rganildi.

Mikroskopik tahlillar davomida mitseliylarning tuzilishi, konidioforalar, konidiyalar, piknidiyalar, sporodoxiyalar, urediniylar, teliylar va boshqa diagnostik belgilar o‘rganildi. Preparatlarning sifatini yaxshilash maqsadida Lugol eritmasi, metilen ko‘ki va metil binafsha bo‘yoqlaridan foydalanildi. Mikromitsetlarning tur tarkibini aniqlashda ularning morfologik va biometrik belgilari asos qilib olindi [1].

Aniqlangan zamburug‘ turlarining taksonomik mansubligi zamonaviy mikologik aniqlagichlar, monografiyalar va xalqaro ma’lumotlar bazalari yordamida belgilandi. Turlar nomenklaturasi va sistematik holati xalqaro mikologik ma’lumotlar bazasi — *Index Fungorum* hamda *MycoBank* ma’lumotlari asosida tekshirildi.

Rosaceae oilasi vakillarining nomenklaturasi va sistematik holatini aniqlashda zamonaviy floristik manbalar hamda *Plants of the World Online (POWO)* ma’lumotlar bazasidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda mikromitsetlarning xo‘jayin-o‘simliklar bo‘yicha taqsimlanishi, tur tarkibi va taksonomik xilma-xilligi baholandi. Olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, zamburug‘larning sistematik tarkibi bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi.


Tadqiqot natijalari. Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida tarqalgan Rosaceae Juss. oilasi vakillarida olib borilgan mikologik tadqiqotlar natijasida bir qator fitopatogen mikromitset zamburug‘lar aniqlandi. Tadqiqot davomida ushbu oilaga mansub o‘simliklarda Ascomycota va Basidiomycota bo‘limlariga kiruvchi zamburug‘ turlari qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, *Rosa canina* L. turida uchta fitopatogen zamburug‘ turi aniqlandi. Ulardan *Sphaerotheca pannosa* var. *rosae* atirgullarda un-shudring kasalligini qo‘zg‘atuvchi obligat parazit hisoblanadi. Kasallik natijasida barglar, yosh novdalar va g‘unchalar yuzasida oq unsimon qoplama hosil bo‘lib, o‘simlikning normal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, *Alternaria alternata* (Fr.) Keissl. turi barglarda nekrotik dog‘lar hosil qilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur tur keng ekologik amplitudaga ega bo‘lib, ko‘plab o‘simliklarda uchraydi. Bundan tashqari, *Phragmidium mucronatum* (Pers.) Schltdl. zang zamburug‘i ham qayd etildi. Ushbu patogen barglarning pastki qismida urediniy va teliylar hosil qilib, fotosintez jarayonining pasayishiga sabab bo‘ladi (1-rasm) [2-4].

Crataegus turkestanicum Pojark. o‘simligida *Gymnosporangium crataegi* DC. turi aniqlandi. Ushbu zang zamburug‘i o‘zining rivojlanish siklida ikki xil xo‘jayin o‘simlikda yashashi bilan tavsiflanadi. Kasallangan barglarda sariq yoki to‘q sariq rangli dog‘lar kuzatildi. Patogenning rivojlanishi o‘simlikning manzaraliligiga va fiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (1-rasm) [3].

Malus domestica Borkh. turida ikkita muhim fitopatogen zamburug‘ aniqlandi. Ulardan *Podosphaera leucotricha* (Ellis & Everh.) E.S. Salmon olma un-shudringi kasalligining qo‘zg‘atuvchisi bo‘lib, barglar va yosh novdalarda oq mitselial qoplama hosil qiladi. Shuningdek, *Venturia inaequalis* (Cooke) G. Winter turi qayd etildi. Mazkur patogen olma qoraqo‘tir kasalligini keltirib chiqarib, barglar va mevalarda qora-jigarrang dog‘larning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ushbu kasallik dunyo bo‘yicha olma yetishtirishda eng zararli kasalliklardan biri hisoblanadi (1-rasm) [2,5].

Zarafshon milliy tabiat bog’ida Prunus L. turkumining 4 turi (*P.armeniaca, P.cerasus, P.divaricata, P.mahaleb*) tarqalgan bo‘lib, kuzatilgan barcha turlarda *Wilsonomyces carpophilus* (Lév.) Adask., J.M. Ogawa & E.E. Butler turi aniqlandi. Ushbu zamburug‘ danakli mevali daraxtlarning teshikli dog‘lanish kasalligini qo‘zg‘atadi. Kasallik natijasida barglarda mayda nekrotik dog‘lar hosil bo‘lib, keyinchalik zararlangan to‘qimalar tushib ketishi natijasida barglarda teshiklar paydo bo‘ladi (1-rasm) [6].



1-rasm. Zarafshon milliy tabiat bog’ida tarqalgan Rosaceae Juss. oilasi qismida uchrovchi mikromitsetlarning tur tarkibi. 1 - *Venturia inaeaqualis*, 2 - *Podosphaera leucotricha*, 3 - *Phragmidium mucronatum*, 4 - *Wilsonomyces carpophilus*, 5 - *Gymnosporangium crataegi*, 6 - *Sphaerotheca pannosa* var.*rosae*.

Tadqiqotlar natijasida Rosaceae Juss. oilasi vakillarida jami 7 tur fitopatogen mikromitset zamburug‘ aniqlandi. Ular orasida Ascomycota bo‘limi vakillari ustunlik qildi. Aniqlangan turlar orasida un-shudring, zang va barg dog‘lanishi kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi patogenlar asosiy o‘rinni egalladi. Bu esa Zarafshon milliy tabiat bog‘idagi Rosaceae vakillarining fitosanitar holatini baholash va patogen zamburug‘larning tarqalishini monitoring qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida tarqalgan Rosaceae Juss. oilasi vakillarida olib borilgan mikologik tadqiqotlar natijasida fitopatogen mikromitsetlarning tur tarkibi aniqlanib, ularning xo‘jayin-o‘simliklar bilan bog‘liqligi o‘rganildi. Tadqiqot davomida Rosaceae oilasiga mansub *Rosa canina* L., *Crataegus turkestanica* Pojark., *Malus domestica* Borkh. va *Prunus* L. turkumiga mansub o‘simliklarda jami 7 tur fitopatogen mikromitset qayd etildi.

Aniqlangan zamburug‘lar orasida *Sphaerotheca pannosa* var. *rosae, Alternaria alternata, Phragmidium mucronatum, Gymnosporangium crataegi, Podosphaera leucotricha, Venturia inaequalis* va *Wilsonomyces carpophilus* turlari uchrashi aniqlandi. Ushbu zamburug‘lar Rosaceae oilasi vakillarida unshudring, zang, qoraqo‘tir va barglarning teshikli dog‘lanishi kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, *Rosa canina* boshqa o‘rganilgan o‘simliklarga nisbatan mikromitsetlar xilma-xilligi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallab, unda uch tur fitopatogen zamburug‘ aniqlangan. Qolgan xo‘jayin-o‘simliklarda esa bir yoki ikki turdan patogen mikromitsetlar qayd etildi. Aniqlangan turlar orasida obligat parazitlar hamda fakultativ parazitlar uchrashi hudud mikobiotasining xilma-xilligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududidagi Rosaceae vakillarining mikobiotasini tavsiflovchi yangi ma’lumotlar bilan mikologik va fitopatologik tadqiqotlarni boyitadi. Mazkur ma’lumotlar kelgusida hududning fitosanitar holatini monitoring qilish, fitopatogen zamburug‘larning tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish hamda biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дудка И.А., Вассер С.П. Элланская И.А. Методы экспериментальной микологии: Справочник / Под. ред. В.И. Билай. – Киев: Наукова Думка, 1982. – 549 с.

2. Гапоненко Н.И., Ахмедова Ф.Г., Рамазанова С.С., Сагдуллаева М.Sh., Киргизбаева Х.М. Флора грибов Узбекистана. Т. I. Мучнисторосяные грибы. – Ташкент: Фан. 1983. – 352 с.

3. Рамазанова С.С., Файзиева Ф.Х., Сагдуллаева М.Ш., Киргизбаева Х.М., Гапоненко Н.И. Флора грибов Узбекистана. Т. III., Ржавчинные грибы. – Ташкент: Фан. 1986. - 229 с.

4. Сагдуллаева М.Ш, Киргизбаева Х.М., Рамазанова С.С., Гулямова М.Г., Файзиева Ф.Х. Флора грибов Узбекистана. Т. VI. Гифалные грибы. – Ташкент: Фан, 1990. - 129 с.

5. Киргизбаева Х.М., Сагдуллаева М.Ш., Рамазанова С.С., Гулямова М.Г., Кучми Н.П., Азимходжаева М.Н., Салиева Я.С. Флора грибов Узбекистана Т. VIII. Пикнидалные грибы. – Ташкент: Фан. 1997. – 190 с.

6. Norimova G., Umurzakova Z., Rasulova Z. Analysis of phytopathogenic micromycetes common in fruit trees and shrubs (the city of Samarkand as an example). E3S Web of Conferences 577, 02019. ICAS 2024. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202457702019

7. https://www.mycobank.org/

8. https://www.indexfungorum.org/names/names.asp

9. https://powo.science.kew.org/

UO‘K 575.113

G‘O‘ZADA *PHYB* GENI KNOCKDOWN QILINISHINING GENLARARO BOSHQARUV TARMOQLARIGA TA’SIRI: QIYOSIY TRANSKRIPTOMIK YONDASHUV

N.Sh.Obidov, doktorant, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
M.S.Ayubov, PhD, lab mudiri, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
B.O.Mamajonov, ilmiy xodim, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
A.N.Yusupov, ilmiy xodim, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
A.A.Murodov, doktorant, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
Z.H.Bashirhonov, ilmiy xodim, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
Y.A.Muhammadov, k.i.x, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
I.Y.Abduraxmonov, akademik, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent

Annotatsiya. *Yorug‘lik fotosintez va fotomorfogenez jarayonlarida bevosita ishtirok etuvchi muhim ekologik omil bo‘lib, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va mahsuldorligini boshqarishda asosiy rol o‘ynaydi. Yorug‘likka yuqori darajada talabchan ekin hisoblangan G hirsutum yorug‘lik intensivligi va spektral tarkibidagi o‘zgarishlar fotosintez samaradorligi, biomassa to‘planishi, tola rivojlanishi hamda hosildorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘simlik fotoretseptorlari orasida fitoxrom B (PHYB) qizil va uzoq-qizil yorug‘likni qabul qiluvchi asosiy sensor bo‘lib, tashqi muhit signallarini endogen rivojlanish yo‘llari bilan integratsiyalaydi. PHYB urug‘ unishi, poya elongatsiyasi, soyadan qochish reaksiyasi, sirkadia ritm sinxronizatsiyasi, gullash vaqti, gormonal signalizatsiya hamda abiotik stress javoblari kabi muhim fiziologik jarayonlarni boshqaradi.*

Kalit so‘zlar: *RNKi, PHYB, tola shakllanishi, hujayra cho‘zilishi, hamda ikkilamchi hujayra devori biosintezi*

Аннотацион. *Свет является важным компонентом окружающей среды, регулирующим рост, развитие и продуктивность растений, благодаря своему непосредственному участию в фотосинтезе и фотоморфогенезе. У хлопчатника (G. hirsutum L.), культуры, требующей большого количества света, изменения интенсивности света и*

3. Иззатуллаев З., Қудратов Ж. Видовой состав, экологические комплексы, распространение и охрана брюхоногих моллюсков родников и ключей Нуратинского хребта// Узб. биол, журн. 2012, № 2. - С. 31 - 35.
4. Каримқулов А.Т. Шимолий-ғарбий Туркистон тоғ тизмаси қориноёқли моллюскаларининг фаунаси, экологияси ва зоогеографияси: Автореферат дисс.к.б.н. Тошкент, 2011.-22б
5. Лакин Г.Ф. Биометрия. А.: Вкс.шк., 1980. 293 с.
6. Пазилов А. Зоогеографическая структура наземных моллюсков Фауны Центральной Азии // Докл. АН РУз. 2005. - С. 82 - 85.
7. Старобогатов Я.И. Система и филогения *Lymnaeidae (Gastropoda, Pulmonta, Basommatophora)* // Пробдеми зоол.-Л.: Наука, 1976. - С. 79-81.
8. Увалиева К.К. Наземные моллюски Казахстана и сопредельных территорий. - Алма-Ата: Наука Каз. ССР, 1990. – 224с.
9. Қудратов Ж.А. Нурота тоғлари қориноёқли моллюскалари таксономияси,биоэкологик хусусиятлари, тарқалиши ва аҳамияти. Биология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)дисс.автореферати. Тошкент. 2018. -44 б.
10. APHA [American Public Health Association]. 1975. Standard Methods for the Examination of Water and Wastewater. APHA, Washington, DC.
11. Parson TR, Maita Y, Lalli CM. 1984. A Manual of Chemical and Biological Methods for Seawater Analysis. Pergamon Press, Oxford, New York.

UO'K: 579.61:543.51:575.17

INULA HELENUIM DORIVOR O'SIMLIGIDAN AJRATILGAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING BIOXILMA-XILLIGI

L.Tagayeva, tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent **https://orcid.org/0009-0003-6676-9584**

B.Tojiyev, tayanch doktorant, O'zR FA Mikrobiologiya instituti, Toshkent https://orcid.org/0000-0002-4861-8905

Sh.Jabbarov, kat.i.h., PhD, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent **https://orcid.org/0009-0007-7819-9557**

N.Bozorov, ye.i.x., k.f.d., O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti, Toshkent https://orcid.org/0000-0002-9749-1146

Q.Normurodova, prof.v.b., b.f.d., O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent https://orcid.org/0000-0002-6946-4482

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, Inula helenium dorivor o'simligining barg va barg bandidan 9ta izolyat ajratilgan. Skrining natijasida tanlab olingan 2ta IH-B3 va IH-BB2 faol izolyatlar 16S rRNK standarti asosida molekulyar identifikatsiya qilingan. Natijada IH-B3 izolyati Bacillus subtilis, IH-BB2 izolyati Brevibacillus panacihumi ekanligi aniqlangan. Bacillus subtilis bakteriyasi 1445ta nukleotidlar ketma-ketligida NCBI Genbankida PZ593820 raqami bilan B.subtilis-IH 25, 1444ta nukleotidlar ketma-ketligida NCBI Genbankida PZ390112 raqami bilan B.panacihumi – UzMU 26 bakteriya shtammlari ro'yxatdan o'tkazilgan.*

Kalit so'zlar: *Inula helenium L., dorivor o'simlik, barg, barg bandi, endofit bakteriya, izolyat, molekulyar-genetik identifikatsiya, Genbank, B.subtilis, B.panacihumi.*

Аннотация. *В данном исследовании из листьев и черешков лекарственного растения Inula helenium было получено девять изолятов. Два активных изолята - IH-B3 и IH-BB2, - отобранные в ходе скрининга, были идентифицированы на молекулярном уровне с использованием стандарта 16S рРНК. Результаты показали, что изолят IH-B3 относится к виду Bacillus subtilis, а изолят IH-BB2 - к виду Brevibacillus panacihumi. Бактериальные штаммы были зарегистрированы в базе данных NCBI GenBank: B.subtilis-IH 25 (последовательность из 1445 нуклеотидов, номер доступа PZ593820) и B.panacihumi-UzMU 26 (последовательность из 1444 нуклеотидов, номер доступа PZ390112).*

Ключевые слова: *Inula helenium L., лекарственное растение, лист, черешок, эндофитные бактерии, изолят, молекулярно-генетическая идентификация, GenBank, B.subtilis, B.panacihumi.*

Abstract. *In this study, nine isolates were obtained from the leaves and petioles of the medicinal plant Inula helenium. Two active isolates-IH-B3 and IH-BB2-selected during screening were identified at the molecular level using the 16S rRNA standard. The results showed that isolate IH-B3 belongs to the species Bacillus subtilis, and isolate IH-BB2 to the species Brevibacillus panacihumi. The bacterial strains were registered in the NCBI GenBank database: B.subtilis-IH 25 (1445-nucleotide sequence, accession number PZ593820) and B.panacihumi-UzMU 26 (1444-nucleotide sequence, accession number PZ390112).*

Key words: *Inula helenium L., medicinal plant, leaf, petiole, endophytic bacteria, isolate, molecular-genetic identification, GenBank, B.subtilis, B.panacihumi.*

Kirish. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida dorivor o‘simliklardan turli kasalliklarning oldini olish va davolashda ishlatiladigan biologik faol moddalarni ajratib olish, ularning tirik kulturalari asosida tayyorlangan ququq massalaridan probiotik sifatida tibbiyot, farmasevtika va chorvachilik sohalarida foydalanish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1-2]. Bunday dorivor o‘simliklardan biri Inula helenium L. - bo‘lib, uning tarkibidagi fruktooligosaxaridlar, ichak mikrobiotasini modulyatsiyalovchi va mineral moddalarning so‘rilishini oshiruvchi, yallig‘lanish mediatorlarini kamaytiradigan va hazmni yaxshilaydigan, erkin radikallarni neytrallaydigan, immunitetni rag‘batlantiruvchi immunomodulyator polisaxaridlari, patogen bakteriya va zamburug‘larni ingibirlaydigan antimikrob va antifungal faolliklari yuqoriligi bilan xalq tabobatida keng qo‘llaniladi [3-4]. Ayniqsa, Inula heleniumning bargi va barg bandi tarkibida flavonoidlar, efir moylari va inulin kabi biologik faol moddalari ko‘p bo‘lib, xalq tabobatida nafas yo‘llari, oshqozon-ichak va teri kasalliklarini davolashda keng qo‘llanilib kelinmoqda [3].

Inula helenium L. - Asteraceae oilasiga mansub dorivor o‘simlik bo‘lib, Toshkent viloyatida tarqalgan. I.helenium turining bag va barg bandi ekstrakti, biologik faol moddalarning boy manbai ekanligi, xususan inulin, polisaxarid, fruktooligosaxaridlar, flavanoidlar va vitaminlar saqlashi, gramm-musbat va gramm-manfiy bakteriyalar va Candida turlari kabi turli xildagi mikroblarga qarshi faol ekanligini aniqlagan [3-6]. Ushbu o‘simlikning barglari dorivor faol moddalarga boy bo‘lib, tarkibida 1-3 % efir moylari, saponinlar, smola, shilimshiq va achchiq moddalar, alantolaktonlar, izoalantolaktonlar, fitomilan va boshqa asetilen birikmalari, inulin va psevdoinulin uchrashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko‘ra, bundan oldingi tadqiqotlarimizda Inula helenium dorivor o‘simligining bargi va barg bandidan ajratib olingan 9ta endofit bakteriya izolyatlari morfo-kultural xususiyatlariga ko‘ra skrining qilinib, natijada bargidan ajratilgan 5ta izolyatdan IH-B3, barg bandidan ajratilgan IH-BB2 foal endofit bakteriya izolyatlari tanlab olingan. Tadqiqot davomida skrining natijasida tanlab olingan 2ta faol bakteriya izolyatlari Maldi Tof yordamida dastlabki identifikatsiya qilingan. Natijada IH – B3 izolyati *Bacillus subtilis*, IH – BB2 izolyati *Bacillus amyloliquefaciens* ekanligini aniqlangan, ya’ni IH – B3 izolyati *Bacillus subtilis*-IH 25, IH – BB2 izolyati *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 deb nomlangan.

Sundan kelib chiiqan holda, Inula helenuim dorivor o‘simligidan ajratilgan endofit bakteriyalarning bio xilma xilligini o‘rganish tadqiqot maqsadi qilib belgilandi.

Tadqiqotlar va usullar. Tadqiqotni amalga oshirish uchun, Maldi Tof yordamida dastlabki identifikatsiya qilingan va IH – B3 izolyati *Bacillus subtilis*-IH 25, IH – BB2 izolyati *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 bakteriya izolyatlarini to‘liqroq o‘rganish uchun molekulyat-genetik usuli yordamida identifikatsiya qilindi [7].

Buning uchun tekshirilayotgan bakteriyalar suyuq ozuqa muhitda 1,5 kun davomida 37^{o}C o‘stirildi. “Thermo Scientific™ NanoDrop™ Eight Spectrophotometer” distillangan suv bilan yuvildi va NanoDrop™ Eight Spectrophotometer blanking qilindi. Blanking jarayoni tugagandan keyin 2mkl dan DNK namunalari olinib, NanoDrop™ Eight Spectrophotometer yordamida tekshirildi.

NanoDrop™ Eight Spectrophotometer DNK va erituvchining nur yutish kuchiga qarab DNK miqdorlari mg\ml, nur yutishi A260/280, A280/A260 hajmiga nisbatan o'lchandi.

Polimeraza zanjir reaksiya (PZR). Amplifikatsiya jaryonida PZR o'tkazish uchun Platinum™ Hot Start PCR Master Mix (2X) amplifikatsiya qilish reagentlar aralashmasi ishlatildi. PZR umumiy hajmi bitta namuna uchun 25 mkl (8.5 mkl dd H_2O + 12.5 mkl Platinum PCR 2x MM + 1 mkl praymer (forvard/reverse 10 pmol/µl) + 2 mkl DNK) aralashma tayyorlandi.

Gel elektroforez metodikasi. 5 mkl PZR mahsuloti + 3 mkl Loading buffer (Invitrogen USA), 1x TBYe buferida 2,0 % agaroza va 98.0 ml 1x TBE bufferining aralashmasi asosida, 1x TBE buffer, 10x TBE bufferi birga o'n nisbatda distillangan suv bilan aralashtirib tayyorlandi. Gel 3 mkl Ethidium bromid yordamida bo'yaldi va elektrofarezda 110 Volt, 90 daqiqa 1x TBYe bufferga qo'yildi. Har birining og'irligi DNK markerlari yordamida hisoblandi. Gel transillyuminator (BK AG-100 Gel Imaging Analysis System Biobase China) da tahlil qilinib rasmga olindi.

Praymerlar dizayn qilish metodikasi: Praymerlarni dizayn qilish bioinformatik va kompyuter dasturlari yordamida amalga oshiriladi, ular orasida genlari elayment CLUSTALW bioinformatik dasturi yordamida qilindi [12] va konservativ qismlarini Primer 3 plus asosiy dastur yordamida Forward va Reverse praymerlari dizayn qilindi [13].

Spesifik genlarning nukleotidlar ketma-ketligini Senger sekvenirlashni amalga oshirish uchun spesifik genga tegishli PZR mahsulotlarining nukleotidlar ketma-ketligi ishlab chiqaruvchi (Thermo Fisher) protokoli asosida BigDye™ Terminator v3.1 Cycle Sequencing Kit yordamida Senger usulida aniqlandi. Sekvenirlash jarayoni Applied Biosystems™ 3500 Genetic Analyzer rusumidagi 8 kapillyarli genetik analizatorda amalga oshirildi. Sikvens reaksiyasini tayyorlash uchun quyidagi komponentlari 3 mkl ddH_2O, 1 mkl BigDye™ Terminator 3.1 Ready Reaction Mix, 2 mkl 5X Sequencing Buffer, 1 mkl sekvenirlash praymeri va 3 mkl tozalangan PZR mahsulotidan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ushbu tadqiqotimizni amalga oshirish uchun oldingi tadqiqotlarimizda Inula helenium dorivor o'simligining bargi va barg bandidan ajratib olingan va skrining natijasida tanlab olingan 2ta faol bakteriya izolyatlari Maldi Tof yordamida dastlabki identifikatsiya qilingan. Unga ko'ra, IH – B3 izolyati *Bacillus subtilis*-IH 25, IH – BB2 izolyati *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 deb nomlangan. Shunga qaramasdan, tadqiqot izolyatlarini Maldi Tof yordamida identifikatsiya qilish, ularni to'liq tur darajasida aniqlash imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun, Maldi Tof yordamida aniqlangan *Bacillus subtilis*-IH 25 va *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 bakteriya shtammlarini to'liq o'rganish maqsadida, 16S rRNK standarti asosida molekulyar identifikatsiya qilish uchun tekshirilayotgan bakteriyalarning sof kulturalari go'sht peptonli bulyon suyuq ozuqa muhitda 1,5 kun davomida 37 ^oC o'stirildi. O'sib chiqqan *Bacillus subtilis*-IH 25 va *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 bakteriya namunalaridan laboratoriya sharoitida genom DNK ajratib olindi va NanoDrop™ Eight Spectrophotometer DNK va erituvchining nur yutish qarab DNK miqdorlari ng\ul, nur yutishi A260/280, A280/A260 hajmiga nisbatan o'lchandi (1-jadval).

1-Jadval

NanoDrop™ Eight Spectrophotometer DNK va erituvchining nur yutish qarab DNK miqdorlari ng/ul, nur yutishi A260/280, A280/A260 hajmiga nisbatan o'lchami

	Namunalar	ng/ul	A260/A280	A260/A28	A26	A28
	Bacillus subtilis-IH 25	25.8	2.26	6.50	0.52	0.23
	Bacillus amyloliquefaciens-IH 25	37.1	1.80	2.19	0.74	0.41

Tadqiqot natijasida *Bacillus subtilis*-IH 25 va *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 bakteriya namunalarining DNK miqdori aniqlangandan keyin, 16S rRNK standarti asosida molekulyar identifikatsiyasi 16S 27F va 16S 1492R praymerlari bilan o'tkazilgan amplifikatsiya protokoli asosida amalga oshirildi. Bunda, 16S genini amplifikasiya jaryoni PZR o'tkazish uchun Platinum™ Hot Start PCR Master Mix (2X) amplifikasiya qilish reagentlar aralashmasi ishlatildi. PZR umumiy hajmi bitta namuna uchun 25 mkl (8.5 mkl dd H_2O + 12.5 mkl Platinum PCR 2x MM + 1 mkl (forvard/reverse 10 pmol/µl) + 2 mkl DNK) aralashma tayyorlandi (2-jadval).

2-Jadval

16S 27F va 16S 1492R praymerlari bilan o'tkazilgan amplifikatsiya protokoli

Lokus	Praymerning nomi	Praymerning nukleotid ketma ketligi (5'-3')	PZR protokoli
16S	16S 27F 16S 1492R	5'-AGAGTTTGATCCTGGCTCAG-3' 5'- GGTTACCTTGTTACGACTT-3'	1. 94˚C – 2 daqiqa 2. 94˚C – 30 sekund 3. 51˚C – 30 sekund 4. 72˚C – 2 daqiqa 5. 45 – sikl 6. 72˚C – 5 daqiqa 7. 4˚C ∞

Olingan PZR namunalar 2,0 % agaroza gelida 1xTBE (pH 8.3) bufer bilan gel elektroforez usuli yordamida tekshirildi. DNK o'lchov birligi sifatida 100 bp nukleotid og'irlikdagi DNK markeridan foydalanildi va 100 ml agaroza geli 3 mkl Ethidiy bromid (EtBr) eritmasi bilan bo'yaldi. Natijalar gel translyuminator (BK AG-100 Gel Imaging Analysis System Biobase China) da tahlil qilindi va rasmga olindi (1-rasm).



1 - Rasm. 16S genining elektroforegrammasi

1-Rasmdan ko'rinib turibdiki, tadqiqot shtammlarining DNKsi toza holda ekanligi aniqlandi.

Keyin, *Bacillus subtilis*-IH 25 va *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 bakteriya shtammlari Senger sekvenirlashda PZR mahsulotini tozalash va uning konsentrasiyasi NanoDrop Eight fluorometri yordamida aniqlandi. Bunda, geldan tozalangan PZR mahsulotining konsentrasiyasi va sifat ko'rsatkichlari NanoDrop Eight spektrofotometri orqali baholandi (3-jadval).

3-Jadval


***Bacillus subtilis*-IH 25 va *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 Bakteriya shtammlarining Senger sekvenirlanishi**

№	Namunalar	ng\ul	A260/A280	A260/A280	A260	A280
1	*Bacillus subtilis*-IH 25	74.9	1.88	0.52	1.50	0.79
2	*Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25	68.1	1.86	0.35	1.36	0.73

3-Jadvalda keltirilgan natijalar asosida, *Bacillus subtilis*-IH 25 shtammi DNK og'irligi 74.9, *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 shtammi DNK og'irligi 68.1ni tashkil etdi.

Ma'lumki, bioinformatik dasturlarda tahlil qilish va ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslash uchun sikvens mahsuloti kapillyarlardagi bo'linishining grafik ko'rinishi AB1 formatidagi fayllarda ifodalanadi [8]. Sikvens natijalari va mazkur fayllardagi ma'lumotlar bilan ishlashda Chromas 2.6.6 (AQSh) va SnapGene 5.3.1 bioinformatik dasturlaridan foydalanildi [8].

So'ngra, o'rganilgan har bir gen regionlarining aniqlangan nukleotidlar ketma-ketligi National Center for Biotechnology Information [11) saytlaridagi BLAST ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslandi. filogeniyasini o'rganish MEGA11 [9-10] bioinformatik dasturlari yordamida amalga oshirildi (2-rasm).



2-Rasm. Sikvens mahsuloti kapillyarlardagi bo‘linishining grafik ko‘rinishi (AB1 formatidagi fayllari)

2-Rasmda keltirilgan natijalarga asosan, *Bacillus subtilis*-IH 25 shtammi *Bacillus subtilis* ekanligi isbotlangan bo‘lsa, *Bacillus amyloliquefaciens* IH – 25 shtammi esa sikvens mahsuloti kapillyarlardagi bo‘linishining grafik ko‘rinishiga ko‘ra, *Brevibacillus panacihumi* ekanligi aniqlandi.

Keyingi tadqiqotlar uchun *Brevibacillus panacihumi* – UzMU 26 deb nomlandi. *Bacillus subtilis*-IH 25 bakteriya shtammi 1445ta nukleotidlar ketma-ketligida NCBI Genbankida PZ593820 raqami bilan, *Brevibacillus panacihumi* – UzMU 26 bakteriya shtammi esa 1444ta nukleotidlar ketma-ketligida NCBI Genbankida PZ390112 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi (4-jadval).

4-Jadval

NCBI ma’lumotlar bazasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bakteriya shtammlari

№	Shtammlar nomi	Genbankdagi ro‘yxatdan o‘kazilgan raqami	Nukleotidlar ketma – ketligi soni	Praymerning nomi
1	*Bacillus subtilis*-IH 25	PZ593820	1445	16S 27F va 16S 1492R praymerlari
2	*Brevibacillus panacihumi* – UzMU 26	PZ390112	1444	

Shunday qilib, tadqiqot davomida olingan natijalar asosida, Toshkent viloyatida o‘suvchi Inula helenium dorivor o‘simligining barg va barg bandidan ajratilgan va skrining natijasida tanlab olingan 2ta IH-B3 va IH-BB2 faol izolyatlari 16S rRNK standarti asosida molekulyar identifikatsiya qilindi. Natijada IH-B3 izolyati *Bacillus subtilis*, IH-BB2 izolyati *Brevibacillus panacihumi* ekanligi aniqlandi. *Bacillus subtilis* bakteriyasi 1445ta nukleotidlar ketma-ketligida NCBI Genbankida PZ593820 raqami bilan *Bacillus subtilis*-IH 25, 1444ta nukleotidlar ketma-ketligida NCBI Genbankida PZ390112 raqami bilan *Brevibacillus panacihumi* – UzMU 26 bakteriya shtammlari ro‘yxatdan o‘tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Васильева Е.Н., Ахтемова Г.А., Жуков В.А., Тихонович И.А. Эндофитные микроорганизмы в фундаментальных исследованиях и сельском хозяйстве // Экологическая генетика.–2019.–Т.17.– № 1.–С.19-32.

2. Чеботарь В.К., Щербаков А.В., Щербакова Е.Н., Масленникова С.Н., Заплаткин А.Н., Мальфанова Н.В. Эндофитные бактерии как перспективный биотехнологический ресурс и их разнообразие // Сельскохозяйственная биология, 2015, том 50, с. 648-654. 631.8:632.9:579.64 doi: 10.15389.

3. G‘aybullayeva O.O., Xusainova G.H. O‘zbekiston sharoitida o‘stirilgan Inula helenium L. o‘simligining morfo-biokimyoviy tavsifi va dorivorlik xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 5(9), 2025, Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz. P. 232-238.

4. G‘aybullayeva O.O., Islomov A.X., Abdugafurova D.G., Elmurodov B., Mirsalixov B. A., Mahmudov L.U., Abdullaev.I.Z., Baratov K.R., Omonturdiev S.Z., Sa’dullayeva S.A. Inula helenium L. Root Extract in Sunflower Oil: Determination of its Content of Water-soluble Vitamins and Immunity-promoting Effect // Biomedical and Pharmacology Journal, 2024. - Vol. 17(4). - P. 2729-2737.

5. Islamov A.Kh., Zaripova R.Sh., Murodova T.M., G'aybullaeva O.O. Propagation of Inula helenium L. plant and determination of elements content and biological characteristics // ResearcJet Journal of Analysis and Inventions ISSN (Online): 2776-0960. Volume-5, Issue-4, 2024. P. 15-20.

6. Salixov Sh.I., Turayev A.S., Islomov A.X., G'aybullayeva O.O. Qora andiz o'simligini ildizi tarkibidagi mineral elementlarini miqdorini aniqlash va xalq tabobatida qo'llanilishi // Xalq tabobati plus Ilmiy amaliy ijtimoiy, tibbiy, ma'rifiy jurnal. 2022.-№ 4 (13).-B.7-10.

7. Dashti A.A, Jadaon M.M, Abdulsamad A.M, Dashti H.M. Heat Treatment of Bacteria: A Simple Method of DNA Extraction for Molecular Techniques. Kuwait Medical Journal. 2009; 41(2):117–122.

8. Hagemann TL, Kwan SP. (1999). *Molecular Biotechnology*, 13, 137–152. DOI: 10.1385/MB:13:2:137.

9. Swofford, D. L. (2003). PAUP: Phylogenetic Analysis Using Parsimony (and Other Methods), Version 4.0b10. Sunderland, MA: Sinauer Associates. P. 580.

10. Tamura K., Stecher G., Kumar S. MEGA11: Molecular Evolutionary Genetics Analysis Version 11 // Molecular Biology and Evolution. – 2021. – Vol. 38, No. 7. – P. 3022–3027. DOI: 10.1093/molbev/msab120.

11. http://www.ncbi.nlm.nih.gov

12. https: // npsa. lyon. inserm. fr/cgi-in/npsa automat // NPSA musclean.html.

13. https://www.bioinformatics.nl/cgi-bin/primer3plus/primer3plus.cgi.

UO'K 316.334.5

EKOTIZIMLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH - INSONIYAT EKOLOGIK XAVFSIZLIGINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

P.N.Tlepbergenova, o'qituvchi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekotizimlar barqarorligi va biotik regulyatsiya qobiliyati insoniyat ekologik xavfsizligini ta'minlashning tizimli asosi sifatida tahlil qilinadi. Ekologik xavfsizlikning turli darajadagi (ekosferadan individgacha) integral mezonlari hamda ekofobiya, radiofobiya kabi ijtimoiy-psixologik ko'rinishlari ilmiy asoslanadi. Zamonaviy ekologik tahdidlar misolida ekotizim barqarorligini saqlashning nazorat va boshqaruv mexanizmlari orqali ularning ilmiy asoslari chuqur tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Xavfsizlik, ekologik tahdid, ekologik xavfsizlik, muammo, potensial xavf, tizim, obyekt, ekosfera, komponent, ekologik xavf zonasi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется стабильность экосистем и способность биотической регуляции как системная основа обеспечения экологической безопасности человечества. Научно обоснованы интегральные критерии экологической безопасности на различных уровнях (от экосферы до индивида) и социально-психологические проявления, такие как экофобия и радиофобия. На примере современных экологических угроз глубоко проанализированы их научные основы посредством механизмов контроля и управления для поддержания стабильности экосистем.*

Ключевые слова: *безопасность, экологическая угроза, экологическая безопасность, проблема, потенциальная опасность, система, объект, экосфера, компонент, зона экологической опасности.*

Abstract. *This article analyzes the stability of ecosystems and the ability of biotic regulation as a systemic basis for ensuring the ecological security of humanity. The integral criteria of ecological security at various levels (from the ecosphere to the individual) and socio-psychological manifestations such as ecophobia and radiophobia are scientifically substantiated. On the example of modern ecological threats, their scientific foundations are deeply analyzed through the control and management mechanisms for maintaining ecosystem stability.*

Key words: *Security, ecological threat, ecological safety, problem, potential danger, system, object, ecosphere, component, ecological hazard zone.*

Kirish. Hozirgi kunda insoniyat tsivilizatsiyasining rivojlanish sur'ati bilan tabiiy ekotizimlarning o'z-o'zini tiklash va barqarorlikni saqlash imkoniyatlari o'rtasida tobora chuqurlashib borayotgan nomutanosiblik global ekologik inqirozning bosh sababiga aylanmoqda, chunki inson o'z xo'jalik faoliyatining nisbatan qisqa tarixiy davri mobaynida ekosferaning tabiiy muvozanatini izdan chiqarib, biotik regulyatsiya mexanizmlarini beqarorlashtirdi. Ekologik

xavfsizlik tushunchasi mohiyatan ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan, u jamiyat va davlatning tashqi ekologik tahdidlardan himoyalanish darajasini ifodalasa, ikkinchi tomondan bu himoyaning barqarorligi bevosita ekotizimlarning ichki xususiyatlariga, ya’ni ularning avtoregulyatsiya, o‘zini tiklash va tashqi ta’sirlarga chidamlilik qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi, boshqacha aytganda, ekotizimlar barqarorligi ta’minlanmagan sharoitda insonning ekologik xavfsizligi haqida gapirishning o‘zi metodologik jihatdan asossiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham zamonaviy dunyoda ekologik xavfsizlik milliy va global xavfsizlikning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, sanoat ifloslanishi va ekotizimlarning degradatsiyaga uchrashi insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Ekotizim – o‘z-o‘zini tiklash va muvozanatni saqlash xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab tabiiy tizim bo‘lib, uning barqarorligi buzilishi nafaqat biologik xilma-xillikka, balki bevosita inson salomatligi va turmush sifatiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, tabiiy resurslarning tanqisligi hamda texnogen yuklamaning ortishi natijasida ko‘plab ekotizimlar o‘zining barqarorlik chegarasiga yaqinlashib qolmoqda, bu esa nafaqat tabiiy muhitning degradatsiyasiga, balki aholi salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va jamoatchilik ongidagi ekologik stress omillariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ushbu maqolaning maqsadi ekotizimlar barqarorligi bilan insoniyat ekologik xavfsizligi o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni nazariy jihatdan asoslash, xavfsizlikni baholashning integral mezonlarini tahlil qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy ilmiy-amaliy yondashuvlarini yoritishdan iboratdir.

Zamonaviy jahon hamjamiyatida ekologik xavfsizlikni ta’minlash muammosi nafaqat tabiatshunoslik fanlari, balki iqtisodiyot, huquq va ijtimoiy siyosat sohalarini ham qamrab oluvchi kompleks, transchegaraviy xarakter kasb etmoqda, chunki iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va tabiiy resurslarning tanqisligi kabi omillar endilikda alohida davlat yoki mintaqa doirasida emas, balki global miqyosda ekotizimlar barqarorligiga tahdid solmoqda. Mintaqamiz misolida, xususan Orolbo‘yi hududida yuzaga kelgan ekologik inqiroz ekotizim barqarorligi buzilishining aholi salomatligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qanday chuqur va uzoq muddatli oqibatlar keltirib chiqarishini yaqqol namoyon etadi, bu esa mavzuning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Umuman olganda hozirgi bosqichda ilmiy adabiyotlarda ekologik xavfsizlikning xususiy mezonlari yetarlicha ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ekotizimlar barqarorligi bilan insoniyat xavfsizligi o‘rtasidagi tizimli-metodologik bog‘liqlikni yaxlit, integral yondashuv asosida tahlil qiluvchi tadqiqotlar hali yetarli emas, shu jihatdan mazkur mavzuning ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilishi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Natijalar va muhokama. Hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish va xavfsizlik muammosini hal etish zarurati tug‘ilmoqda. Inson o‘z xo‘jalik faoliyatining qisqa tarixiy muddati ichida global ekologik inqirozni keltirib chiqarib, butun tizimni beqarorlashtirdi. Shu sababli ekologik tahdidga qarshi turish uchun jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muloqotning yangi shakllarini rivojlantirish zarur bo‘ladi. Bunday vazifani amalga oshirish esa ekologik xavfsizlikni ta’minlashda kompleks ravishda ekologik-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va huquqiy muammolarning yuzaga kelishini taqozo etadi.[1] Shu bois ekologik xavfsizlik tushunchasiga adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud.

Xususan, ekologik xavfsizlik eng avvalo jamiyat va tabiat o‘rtasidagi muloqotdan kelib chiqqan, atrof-muhitga antropogen yoki tabiiy ta’sir natijasida vujudga keladigan, real yoki potensial xavfdan insonning, jamiyat va davlatning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan muhim manfaatlarining muhofaza qilinish holati sifatida ta’riflanadi. U qisqacha "xavfdan himoyalanish holati" tarzida ham ifodalanishi mumkin, biroq bunda shuni ta’kidlash lozimki, himoya o‘z-o‘zidan xavfsizlikni to‘liq kafolatlamaydi, xuddi shuningdek himoya holatining mavjudligi ham xavfsizlikni avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Chunki murakkab tizimning xavfsizligi nafaqat uning tashqi himoya subyekti yoki omillari bilan, balki tizimning ichki xususiyatlari bu barqarorligi, umidliligi va avtoregulyatsiyaga qobiliyati bilan ham belgilanadi. Bu qonuniyat ayniqsa ekologik xavfsizlikka taalluqlidir: atrof-muhit

barqarorligi va biotik regulyatsiyasini buzishni to‘xtatmaguncha, na inson, na jamiyat, na davlat shaxsiy ekologik xavfsizlikning kafolati bo‘la olmaydi.

Ekotizim barqarorligi deganda tabiiy tizimning tashqi ta’sirlarga qarshi turish va o‘z funksional muvozanatini saqlab qolish qobiliyati tushuniladi. Ekologik xavfsizlik esa jamiyat va davlatning atrof-muhit sifati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavf-xatarlardan aholini himoya qilish darajasini ifodalaydi. Ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog‘liq: ekotizim barqarorligining pasayishi ekologik xavfsizlik darajasining tushishiga, oxir-oqibatda esa aholi salomatligi ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga olib keladi.

Shu o‘rinda mavjud ilmiy adabiyotlar, turli tavsiya va me’yoriy hujjatlarga nazar tashlansa, ular ko‘p jihatdan ekologik xavfsizlikning xususiy mezonlaridan iborat ekani ma’lum bo‘ladi. Bunday holatda u yoki bu obyektning xavfsizligi haqida qaysi mezon bo‘yicha yakuniy xulosa chiqarish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Aynan shu sababdan xavfsizlik mezonlarining integral va asosiy turlarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi bu esa ekosferadan tortib alohida individgacha bo‘lgan turli darajadagi obyektlarning umumiy holatini baholash imkoniyatini yaratadi.

Xususan, ekosfera va uning qismlari (bioorganlar, mintaqalar, landshaftlar, katta yoki uncha katta bo‘lmagan hududiy tabiiy komplekslar hamda ma’muriy tuzilmalar) uchun ekologik xavfsizlikning o‘lchovi sifatida ekologik-iqtisodiy daraja, ya’ni hududning ekologik texnosig‘imiga umumiy texnogen yuklamaning mos kelish darajasi boshqacha aytganda, zarar keltiruvchi texnogen ta’sirga nisbatan tizim barqarorligining chegaralanganlik ko‘rsatkichi xizmat qilishi mumkin. Alohida ekotizim darajasida esa xavfsizlikning bosh mezoni bo‘lib tur tarkibining, biologik xilma-xillikning va ichki aloqalar tizimining to‘liqligi hamda saqlanganligi hisoblanadi, individ darajasida esa sog‘liqni va normal hayotiy faoliyatni saqlash asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi mezonlarga muvofiq, ekosistemaning xavfsizligi uning barqarorlik chegarasiga qanchalik yaqin yoki uzoqligi bilan belgilanadi. Bu ma’noda asosiy talab - ekosistema va biomassaning o‘lchamlarini, shuningdek organizmning turlari va funksional guruhlari o‘rtasidagi tarkibiy va son nisbatlarining barqarorligini saqlashdan iborat. Ekosistema mahsuldorligining tarkibiy komponentlari o‘rtasidagi ichki munosabat va trofik aloqalarning barqarorligi ham aynan shu omilga bog‘liq bo‘ladi.[2] Ushbu nazariy mezonlar amaliyotda qanday namoyon bo‘lishini tushunish uchun statistik ma’lumotlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bizning sayyoramiz allaqachon ekologik xavf zonasiga aylangan, biroq bu holat barcha odamlarga ham bir xilda ayon emas, chunki sog‘liq va inson hayoti uchun mavjud bo‘lgan ko‘plab boshqa xavf manbalari uning ortida "yashiringan" bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, ekologik xavfni baholash bu ilmiy tadqiqot jarayoni bo‘lib, undagi faktlar va ilmiy prognozlar turli ifloslantiruvchi moddalar hamda boshqa agentlarning atrof-muhitga zararli ta’sir potensialini o‘lchashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik xavf hayot, sog‘liq va odamlarning farovon yashashi uchun yagona yoki bosh xavf hisoblanmaydi, shuning uchun ham u boshqa ijtimoiy xavflar bilan mutanosib ravishda baholanishi lozim. Jumladan, statistik ma’lumotlarga asoslangan "erta o‘lim xavfi darajasi" bo‘yicha tadqiqotlarda qon-tomir tizimi kasalliklaridan o‘lim birinchi o‘rinda turishi, so‘nggi yillarda esa baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishning ikkinchi o‘ringa chiqqani qayd etilgan.

Tadqiqotimiz doirasida shuni aytishimiz mumkinki Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri, Qo‘ng‘irot va Beruniy tumanlari bo‘yicha 2017-2024-yillarga oid ekologik tahdidlar tufayli aholi kasallanish statistikasini keltirib o‘tmoqchimiz. Ma'lumotlar kasalliklarning asosiy sinflari (yuqumli va parazitar kasalliklar, endokrin tizimi, qon aylanish tizimi, nafas olish a’zolari, ovqat hazm qilish a’zolari va boshqalar) bo‘yicha tizimlashtirilgan bo‘lib, tahlil davomida umumiy kasallanish darajasi, shuningdek ekologik omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan nafas olish va ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari dinamikasiga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiq doirasida berilgan 1-jadvalda uchta hududda 2017-2024-yillar davomidagi umumiy kasallanish ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval.

Aholining umumiy kasallanish ko‘rsatkichlari, kishi (2017-2024)

Hudud	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Nukus shahri	94 508	100 388	100 455	136 808	160 023	146 899	140 867	144 715
Qo‘ng‘irot tumani	57 350	60 793	59 783	52 919	68 951	67 198	74 092	72 603
Beruniy tumani	102 075	95 387	96 313	100 827	109 173	105 738	96 188	52 929

Jadval ma’lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha uchta hududda ham 2019-2021-yillar oralig‘ida umumiy kasallanish darajasining sezilarli o‘sishi kuzatilgan. Xususan, Nukus shahrida ko‘rsatkich 2019-yildagi 100 455 kishidan 2021-yilga kelib 160 023 kishigacha, ya’ni deyarli 1,6 barobar oshgan. Bu davr Orolbo‘yi mintaqasida chang-tuz bo‘ronlari va iqlim noqulayliklarining kuchaygan yillari bilan mos kelishi ekologik omillarning ta’sirini ko‘rsatishi mumkin.Ekotizim beqarorligi bilan eng bevosita bog‘liq bo‘lgan kasallik guruhlaridan biri nafas olish a’zolari kasalliklaridir. 2-jadvalda ushbu ko‘rsatkich dinamikasi keltirilgan.

2-jadval.

Nafas olish a’zolari kasalliklari bo‘yicha ko‘rsatkichlar

Hudud	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Nukus shahri	36 499	39 033	37 398	50 715	43 642	30 987	29 367	28 944
Qo'ng'irot tumani	23 158	23 341	22 023	18 941	17 632	19 086	18 076	16 746
Beruniy tumani	33 573	33 351	33 713	39 443	39 272	39 003	36 937	6 874

Nafas olish a’zolari kasalliklari barcha hududlarda kasallanish tarkibida yuqori ulushni tashkil etadi, bu esa havo sifatining yomonlashishi chang-tuz bo‘ronlari, quruq Orol tubidan ko‘tariladigan tuz zarrachalari va sanoat chiqindilari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Beruniy tumanida 2020-2023 yillarda ko‘rsatkichning barqaror yuqori darajada (39 000 kishi atrofida) saqlanib qolgani alohida e’tiborga loyiqdir. Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari bo‘yicha ko‘rsatkichlar ham diqqatga sazovor dinamikaga ega (3-jadval), bu suv sifati va ta’minoti bilan bog‘liq ekologik omillarning ta’sirini aks ettirishi mumkin.

3-jadval.

Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari bo‘yicha ko‘rsatkichlar

Hudud	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Nukus shahri	4 417	4 505	6 641	8 225	25 824	32 870	29 275	28 291
Qo'ng'irot tumani	6 130	6 128	6 927	6 975	16 540	16 857	18 601	23 444
Beruniy tumani	18 447	15 527	16 951	16 822	21 387	17 243	17 898	8 195

Uchta hududning barchasida 2020-yildan keyin ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari sezilarli darajada oshgan: Nukus shahrida ko‘rsatkich 2019-yildagi 6 641 kishidan 2022-yilga kelib 32 870 kishigacha, ya’ni qariyb 5 barobar oshgan. Bunday keskin o‘sish, boshqa omillar qatorida, sifatsiz ichimlik suvi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq ekologik muammolarning kuchayishi natijasi bo‘lishi mumkin. Keltirilgan statistik ma’lumotlar ekotizim barqarorligining buzilishi bilan aholi salomatligi ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa Orolbo‘yi mintaqasida quyidagi ekologik omillar aholi salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy manbalar sifatida qaralishi mumkin: birinchi quruq Orol tubidan tarqaladigan chang-tuz bo‘ronlari va ularning havo sifatiga ta’siri; ikkinchi yer osti va sirt suvlarining sho‘rlanishi hamda ichimlik suvi sifatining pasayishi; uchinchi tuproq degradatsiyasi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatining yomonlashishi; to‘rtinchi biologik xilma-xillikning qisqarishi natijasida ekotizimning tabiiy tozalanish va muvozanatni saqlash qobiliyatining pasayishidir.

Xulosa. Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy va amaliy jihatlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, ekologik xavfsizlik - tabiiy ekotizimlar va antropogen faoliyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi murakkab ijtimoiy-ekologik tizimdir. Uning asosiy maqsadi atrof-muhitning ekologik barqarorligini ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda inson salomatligini ekologik xavflardan himoya qilishdan iborat. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta’minlash zamonaviy ekologik muammolarni ilmiy asosda baholashni, ularning sabab va oqibatlarini aniqlashni hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Bu borada hozirgi davrda iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, suv resurslari tanqisligi, atmosfera havosi, tuproq va suv havzalarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar hajmining ortishi ekologik xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgan asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, Orolbo‘yi hududida yuzaga kelgan ekologik inqiroz

tabiiy muhitning degradatsiyasini kuchaytirib, aholi salomatligi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda - bu esa yuqorida tavsiflangan mezonlarning amaliy ahamiyatini yaqqol namoyon etadigan misoldir.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda ekologik monitoring tizimini takomillashtirish, zamonaviy geoinformatsion texnologiyalar (GIS), masofadan zondlash ma'lumotlari, ekologik modellashtirish usullari hamda ilmiy prognozlash natijalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ekologik siyosatni ilmiy asosda takomillashtirish, tabiiy resurslarni kompleks boshqarish, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik ta'limni rivojlantirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim ilmiy asoslari hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar atrof-muhit sifatini yaxshilash, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Umumlashtirib aytganda, bugungi kunda ekologiya sohasidagi tahdidlar jamiyatimiz uchun g'oyat muhim muammolardan sanaladi, shuning uchun ham bu muammoni har tomonlama ilmiy tadqiq etish talab etiladi. Undagi mavjud xususiyatlarni hisobga olish hamda ularga to'g'ri yechimlar berish zarurati tobora ortib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, atrof-muhit xavfsizligi masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uni hal etish nafaqat ilmiy jamoatchilikning, balki butun jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Н. Ф. Реймерс. Экологизация. Введение в экологическую проблематику. - М.: Изд-во РОУ, 1994. 99 с. 32 б.

2. Арский Ю.М., Данилов-Данильян В.И., Залиханов М.Ч. Кондратьев К.Я., Котляков В.М., Лосев К.С. Экологические проблемы: что происходит, кто виноват и что делать? Учеб. пособие/Под ред. проф. В.И.Данилова-Данильяна. - М.: Изд-во МНЭПУ, 1997.

3. А.Нигматов. Экологиянинг назарий асослари. Тошкент. 2014. 260 б.

4. Муравых А. Управление экологической безопасностью. М., 2006. 288с.

5. Реймерс Н.Ф. Экология (теории, законы, правила, принципы и гипотезы). - М.: Изд-во журнала «Россия молодая», 1994.

6. A.Nigmatov. M.Allamuratov, Ya.Ámetov, P.Tilepbergenova. Ekologiyalıq siyasat. Sabaqlıq. – T: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 379 b.

UO'K: 581.1:581.5:57.045

TURLI SUV REJIMIDA YUMSHOQ BUG'DOY (*Triticum aestivum* L.) NAVLARIDA SUV ALMASHINUVINING FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

S.H. Ulfatova, tayanch doktorant, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
O.E. Xolliyev katta ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
X.A.Nurgaliyev, kichik ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
X.K. Nazarov, dosent Tashkent Davlat agrar universiteti, Toshkent
D.E. Qulmamatova, katta ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent
S.K.Baboyev, yetakchi ilmiy xodim, O'zR FA Genetika va O'EB instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yumshoq bug'doyning O'zbekistonda yaratilgan Sharaf-100, Qayroqtosh navlari hamda JM6-3 duragayida turli suv rejimida suv almashinuvining fiziologik xususiyatlari (transpiratsiya jadalligi, barglarning suv ushlash xususiyati va barglardagi umumiy suv miqdori) tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, sug'orishda suv miqdorining kamayishi bilan yumshoq bug'doy navlarida transpiratsiya jadalligining pasayib, suv ushlash xususiyatining ortib, barglardagi umumiy suv miqdorining kamayib borishi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *Yumshoq bug'doy, duragay bug'doy , transpiratsiya jadalligi, barglarning suv ushlash xususiyati, barglardagi umumiy suv miqdori*

Аннотация*. В данной статье проанализированы физиологические особенности водообмена (интенсивность транспирации, водоудерживающая способность листьев и общее содержание воды в листьях) у созданных в Узбекистане сортов мягкой пшеницы Шараф-100, Кайракташ, а также гибрида JM6-3 в условиях различных водных режимов. Согласно результатам анализа установлено, что по мере снижения нормы полива у сортов мягкой пшеницы наблюдается снижение интенсивности транспирации, повышение водоудерживающей способности и уменьшение общего содержания воды в листьях.*

Ключевые слова: *Мягкая пшеница, гибридная пшеница, интенсивность транспирации, водоудерживающая способность листьев, общее количество воды в листьях*

Abstract. *This article analyzes the physiological characteristics of water exchange (transpiration rate, leaf water-holding capacity, and total leaf water content) in the bread wheat varieties Sharaf-100 and Qayroqtosh, as well as the JM6-3 hybrid, developed in Uzbekistan, under various water regimes. According to the results of the analysis, it was determined that with a decrease in the irrigation rate, the soft wheat varieties exhibited a reduction in transpiration rate, an increase in water-holding capacity, and a decline in the total water content of the leaves.*

Keywords: *Bread wheat, hybrid wheat, transpiration rate, leaf water-holding capacity, total leaf water content.*

Kirish. Yumshoq bug‘doy asosiy oziq-ovqat ekinlaridan biri bo‘lib, uning hosildorligi ko‘p jihatdan suv rejimiga bog‘liqdir. Ayniqsa, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarda suv tanqisligi bug‘doyning o‘sishi, rivojlanishi va fiziologik jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bug‘doy navlarining suv almashinuvi xususiyatlarini o‘rganish hozirgi kunnunig eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [7].

O‘simlik organizmida suv almashinuvi suvning ildiz orqali shimilishi, o‘simlik bo‘ylab harakatlanishi, barglarda bug‘lanishi va metabolik jarayonlarda ishtirok etishini o‘z ichiga oladi. Suv o‘simlik hujayrasida turgor holatini saqlaydi, fermentativ reaksiyalarni faollashtiradi hamda fotosintez jarayonining muhim komponenti hisoblanadi. Suv yetishmovchiligi esa hujayralarning suvsizlanishiga, stomalarning yopilishiga va fotosintez intensivligining pasayishiga olib keladi [3].

O‘zbekiston iqlimi keskin kontinental bo‘lib, mavsumiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Hududning markaziy qismi quruq zona bo‘lib, havo va tuproqning quruqligi, iqlim o‘zgarishi uchun osondir. Mamlakat hududining 80% cho‘l va yarim cho‘l zonalaridan iborat [8]. Bunday iqlim sharoitlarining keskin va tez o‘zgarishi tufayli kelib chiqadigan stresslardan biri bu qurg‘oqchilikdir. Qurg‘oqchilik stressi o‘simliklarning asosiy morfologiyasi, fiziologiyasi va biokimyoviy xususiyatlariga ta’sir qiladi [4]

O‘simlik bargida transpiratsiya tezligi, ildizlarga suv oqimiga qarshilik, suv mavjudligiga ta'sir qiluvchi tuproq omillari kabi jarayonlarning o'zaro bir-biriga bog‘liq [5]. Ilmiy adabiyotlarda Triticum aestivum L. ning suv rejimiga sezgir ekin ekanligi qayd etilgan. Optimal namlik sharoitida fotosintez, mineral oziqlanish va o‘sish jarayonlari yuqori darajada kechadi [3]. Suv tanqisligi sharoitida: stomatalar yopiladi, fotosintez tezligi kamayadi, transpiratsiya pasayadi, hujayra suv potensiali kamayadi [6].

Qurg‘oqchilik yumshoq bug‘doy o‘simligining fiziologik xususiyatlariga va hosildorligiga salbiy ta’sir qiladigan abiotik omillardan biri hisoblanadi [1]. Chunki yumshoq bug‘doyning nav va namunalari qurg‘oqchilik stressiga javoban fiziologik xususiyatlarini genotipga bog‘liq holda turlicha o‘zgartiradi [2].

Tadqiqot ishida turli suv rejimi sharoitida yumshoq bug‘doy nav ва duragaylarida suv almashinuvining fizologik xususiyatlarini o‘zgarishi tahlil qilingan.

Tadqiqotning manbasi va uslublari: Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston seleksiyasiga mansub Sharaf-100 (suv va o‘g‘itga talabchan, intensiv tipdagi nav)

Qayroqtosh (lalmi sharoitiga moslashgan suvga talabi juda past sug‘oriladigan sharoitda yotib qolishga moyil) navlari va bug‘doyning JM6-3 duragayidan foydalanildi.


Tadqiqotlar O‘zR FA Genetika va O‘EB institutining Do‘rmon dala tajriba maydonida tomchilatib sug‘orish sharoitda olib borildi. Sug‘orish tizimi bir necha variantlardan iborat bo‘lib, umuman sug‘orilmagan, bahorda sug‘orilmagan, hamda turli fazalarda turlicha sug‘orish uslublari qo‘llanilgan. Variantlarda suv sarfini o‘lchash uchun maxsus suv o‘lchagich o‘rnatilgan (1-rasm). O‘simliklarning gullash fazasida barglardagi transpiratsiya jadalligi, barglardagi umumiy suv miqdori, barglarning suv ushlash xususiyati o‘rganildi.

Barglardagi umumiy suv miqdori N.N.Tretyakov [11], barglarning suvni ushlash xususiyati M.D. Kushnirenko [10], transpiratsiya jadalligi A.A.Ivanov [9] uslublari orqali aniqlandi. Olingan raqamli ko‘rsatkichlarning statistik tahlili *Excel* dasturi asosida amalga oshirilgan.



1-rasm. Tomchilatib sug'orishdan namunalar


Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalari turli sug'orish rejimlarining yumshoq bug'doy navlari fiziologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida Sharaf-100, Qayroqtosh va JM6-3 nav ва duragaylarida transpiratsiya jadalligi, umumiy suv miqdori, barglarda suv ushlash xususiyati hamda barg yuzasi ko'rsatkichlari aniqlangan bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi o'simliklarning suv ta'minotiga moslanish darajasini ifodalaydi. Tadqiqotda Sharaf-100 navida qurg'oqchilik sharoitida transpiratsiya jadalligi eng past ko'rsatkichni (41,5±0,74 mg/g·soat) tashkil etdi (2-rasm). Bu holat suv yetishmovchiligi ta'sirida o'simlikning suv yo'qotishni kamaytirishga intilganligi va o'simlikning qurg'oqchilik ta'sirida o'sish va rivojlanish jarayonida suvni maksimal tejash rejimiga o'tganligidan dalolatdir. Shu bilan birga, ushbu namunalarda barglardagi suv ushlash xususiyati 8,02±0,5% ni tashkil qildi va boshqa variantlarga nisbatan past bo'lishi kuzatildi. Sug'orish me'yori oshirilganda fiziologik jarayonlar faollashganligi kuzatildi. Ayniqsa, 50 m³ variantida transpiratsiya jadalligi 171,9±1,8 mg/g·soatga, barg yuzasi esa 47,3±1,2 sm² ga yetgan (3-rasm). Bu esa o'simlikda suv almashinuvi jadallashuvining yuqori bo'lishi bilan izohlanadi. Barglarda suv ushlash xususiyatining 24,7±2,6% ni tashkil etishi esa, transpiratsiya jadalligining ortishiga bog'ligi kuzatildi. 30 m³ variantida ham yuqori fiziologik faollik saqlanib qolgan bo'lsada, 10 m³ variantida transpiratsiya va barg yuzasining kamayishi o'simlikda stress holati boshlanayotganini anglatadi.




2-rasm. Turli suv rejimi bilan sug'orilgan bug'doy namunalarida barglarning suv ushlash xususiyati va transpiratsiya jadalligining o'zgarishi
Izoh: I-Sharaf-100, II- Hybrid JM6-3 III- Qayroqtosh.
(1-suvsiz, 2-urug' suvi berilgan, 3-50m³, 4-30 m³, 5-10 m³).

Hybrid JM6-3 duragayida suv rejimiga nisbatan moslanish xususiyati yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Qurg'oqchilik fonida transpiratsiya jadalligi 61,6±0,57 mg/g·soatni tashkil etib, Sharaf-100 naviga

nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Bu navning fiziologik jihatdan faolroq ekanligini ko‘rsatadi. 50 m³ sug‘orish variantida barglarda suv ushlash xususiyati 30,9±3,01% ga teng bo‘lib, barcha variantlar orasida eng yuqori natija qayd etilgan. Shu bilan birga, barg yuzasi ham 47,7±0,67 sm² ni tashkil etib, JM6-3 duragayining suvni samarali o‘zlashtirish va uni barg to‘qimalarida saqlash qobiliyati yuqori ekanligini bildiradi. 10 m³ variantida esa transpiratsiya jadalligi 149,5±1,8 mg/g·soatga yetgan bo‘lsada, barg yuzasi 33,7±1,45 sm² gacha qisqarib, suv tanqisligi sharoitida o‘simlikning suv sarfini muvozanatlashtirishga moslashganligini ko‘rsatadi. (4-rasm).



3-rasm. Turli suv rejimi bilan sug‘orilgan bug‘doy namunalarida barglardagi umumiy suv miqdori, %.
Izoh: I-Sharaf-100, II- Hybrid JM6-3 III- Qayroqtosh.
(1-suvsiz, 2-urug‘ suvi berilgan, 3-50m³, 4-30 m³, 5-10 m³).



4-rasm. Har-xil suv rejimi bilan sug‘orilgan bug‘doy namunalarida barg yuzasi (sm²).
Izoh: I-Sharaf-100, II- Hybrid JM6-3 III- Qayroqtosh.
(1-suvsiz, 2-urug‘ suvi berilgan, 3-50m³, 4-30 m³, 5-10 m³).

Qayroqtosh navida esa fiziologik ko‘rsatkichlar nisbatan barqaror xarakterga ega bo‘lgan. Qurg‘oqchilik fonida transpiratsiya jadalligi 65,1±1,75 mg/g·soatni tashkil etgan bo‘lib, bu boshqa navlarga nisbatan yuqoriroqdir. Biroq sug‘orish variantlari o‘zgarganda ko‘rsatkichlar boshqa navlarga nisbatan kamroq farqlanganligi kuzatildi. Ushbu navda 50 m³ variantida transpiratsiya jadalligi 106,1±9,8 mg/g·soat, barg yuzasi esa 43,0±0,57 sm², barglarda suv ushlash xususiyati 12,2–20,7% ni tashkil qildi. O‘simlikning suv ushlash xususiyati yetarli darajada ekanligini hamda hosil elementlarining shakllanishida uglevod o‘zlashtirishi uchun yetarli fotosintez maydonini saqlab qolib, stress sharoitda yuqori hosil olish imkonini berishi mumkinligini ko‘rsatdi. Ushbu navda ko‘rsatkichlarning keskin o‘zgarib ketmasligi uning qurg‘oqchilikka nisbatan chidamli va fiziologik jihatdan barqaror nav ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa Umuman olganda, sug‘orish me’yorining ortishi transpiratsiya jadalligi, barg yuzasi va barglarda suv ushlash xususiyatining oshishiga olib kelgan. Ayniqsa, 50 m³/ga meyorida sug‘orish varianti deyarli barcha navlarda eng yuqori fiziologik ko‘rsatkichlarni ta’minlagan. Qurg‘oqchilik fonida esa transpiratsiya jadalligi va barg yuzasining kamayishi kuzatilgan bo‘lib, bu o‘simliklarning suv tanqisligiga moslanish reaksiyasi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Hybrid JM6-3 duragayi suvni ushlab qolish va moslanish qobiliyati bo‘yicha ustunlik qilgan bo‘lsa, Sharaf-100 navida sug‘orishga javob reaksiyasi kuchliroq namoyon bo‘ldi. Qayroqtosh navida esa fiziologik ko‘rsatkichlarning nisbatan barqarorligi bilan ajralib turdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad Z. et al. Physiological responses of wheat to drought stress and its mitigation approaches //Acta Physiologiae Plantarum. – 2018. – Т. 40. – №. 4. – С. 80.
